

ISSN: 2181-3523

Scientific Journal



idea

Innovative Development in Educational Activities

Social Sciences & Humanities

2024/10



OPENIDEA.UZ

VOLUME 3, ISSUE 10

ISSN 2181-3523
VOLUME 3, ISSUE 10
MAY 2024



<http://openidea.uz/>

INNOVATIVE DEVELOPMENT IN EDUCATIONAL ACTIVITIES

VOLUME 3, ISSUE 10, MAY, 2024

EDITOR-IN-CHIEF

Sh. Rajabov

*Doctor of Philosophy (Phd) in Philosophical Sciences,
International Islamic Academy of Uzbekistan*

EDITORIAL BOARD

A. Madaliev

*Professor, Doctor of Economics, Tashkent State
Agrarian University*

G. Sotiboldieva

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Biological Sciences, Fergana State University*

U. Rashidova

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Philological Sciences, Samarkand State University*

D. Darmonov

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Biological Sciences, Fergana State University*

X. Abdusakimova

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Biological Sciences, Fergana State University*

U. Ruzmetov

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Chemical Sciences, National University of Uzbekistan*

M. Yusupova

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Biological Sciences, Fergana State University*

M. Kambarov

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Pedagogical Sciences, Namangan State University*

S. Sadaddinova

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Physics and Mathematics Sciences, Tashkent
University of Information Technologies*

M. Fayzullaev

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd)
Geographical Sciences, Karshi State University*

Z. Muminova

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences,
Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

B. Kuldashov

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences,
Samarkand Institute of Veterinary Medicine*

Kh. Askarov

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences,
Fergana Polytechnic Institute*

S. Nazarova

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Agricultural Sciences, Bukhara State University*

O. Rahmonov

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences,
Fergana Polytechnic Institute*

G. Tangirova

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian
University*

Z. Koryogdiev

*Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences,
Bukhara State University*

S. Ubaydullaev

*Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences,
Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology*

R. Yuldasheva

*Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences,
Tashkent State Agrarian University*

M. Yuldashova

*Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences,
Namangan State University*

D. Sarimova

*Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in
Pedagogical Sciences, Institute of the Chemistry of
Plant Substances*

D. Hikmatov

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences,
Bukhara Institute of Engineering and Technology*

A. Karimov

*Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences,
Karshi Institute of Engineering and Economics*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11321868>

JANUBIY MINTAQALARDA HUNARMANDCHILIK TURLARI VA ULARNING TAVSIFI

Mallayev Dilmurot Tursunmurodovich
TerDU Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Janubiy mintaqalarda hunarmandchilik turlari va ularning tavsifi yoritilib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Gilamchilik; Do'ppichilik Kashtachilik; Zardo'zlik. Ganchkorlik; O'ymakorlik; Temirchilik.*

***Abstract:** Types of crafts in the southern regions and their description are highlighted.*

***Key words:** Carpet making; Hat making. Embroidery; Goldsmithing. Goldsmithing; Carving; Blacksmithing.*

O'zbekistonda milliy hunarmandchilik taraqqiy ettirib borilar ekan, har bir hudud o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bunda hunarmandlar o'zlari yashab turgan hududlarining tabiiy sharoiti, arzon xom ashyo bazasi, mavjud texnik imkoniyatlari, aholining talab va ehtiyojlari, ichki va tashqi bozorlardagi narxnavodan kelib chiqqan holda o'z faoliyatlarini olib borishadi. Shundan kelib chiqib, har bir hududda hunarmandchilik muayyan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va bozorga yetkazib beriladi. Natijada, yurtimizda hunarmandchilikning unutilayotgan yoki unutilgan turlari qayta tiklanib, yanada rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

Bugungi kunda janubiy mintaqalarda aholining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hunarmandchilikning quyidagi turlari keng tarqalmoqda. Bular: 1. Gilamchilik; 2.Do'ppichilik 3.Kashtachilik; 4.Zardo'zlik. 5.Ganchkorlik; 6.O'ymakorlik; 7.Temirchilik; 8.Zargarlik; 9.Kulolchilik; 10.Chinnisozlik; 11.Cholg'u hunarmandchiligi.

Gilamchilik – xalq hunarmandchiligining qadimiy turlaridan biri. Qadimda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining asosiy mashg'uloti bo'lgan. Chunki chorvadorlar jun mahsulotiga juda boy bo'lib, gilam to'qishda qo'y va tuyaning junidan foydalanishgan. O'zbekiston janubiy mintaqalarida gilamni to'qishda paxta va

jundan foydalanganlar. Paxtadan gilam to‘qish dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan hududlarida yashovchi aholi orasida mavjud bo‘lsa, chorvador aholi yashovchi joylarda jundan gilam to‘qish ustunlik qiladi. Ishni boshlash uchun oldin gilamning qolipi tanlab olinadi va tanda ipi tanlanadi. Chunki, gilamning tanda ipi qancha baquvvat bo‘lsa, gilam shuncha chiroyli va pishiq bo‘ladi¹⁰⁶.

Do‘ppichilik — turkiy tilda «tepa», «do‘nglik» degan ma‘noni anglatadi. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida do‘ppi «qalpoq» deb atalsa, laqay urug‘idagilar uni «takya», «takiya», Xorazm aholisi «taxya» deb ataydilar. Boysunda «kalapo‘sh» nomi bilan mashhur. Boshqa kiyimlardan farqli o‘laroq u uyda aziz sanalib, baland joyga saqlanadi.

Do‘ppining yaratilish tarixi uzoqqa borib taqaladi. Do‘ppiga o‘xshash nusxalar qadimgi haykalchalar, tangalar, devorlarga solingan rasmlarning parchalarida va o‘rta asarlarda chizilgan miniatyuralarda ko‘rish mumkin. O‘zbekiston janubiy mintaqalarida do‘ppi tikish bilan ko‘proq xotin-qizlar mashgul bo‘lishgan. Odatda har bir usta do‘ppining takrorlanmas, yangi nusxalarini yaratishga harakat qilgan. Shu sababli o‘zbek do‘ppilari o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Do‘ppichilikda bir-birini takrorlamaydigan atirgul, chinnigul, gulsafsar, lola, xo‘roz toji, bodom, qalampir, bodom gullari, tovus, xo‘roz, bulbul tasvirlari o‘z aksini topgan. Do‘ppi asosiga oq, qora, yashil, qizil, to‘q ko‘k mato ishlatiladi¹¹¹.

Do‘ppilar turlicha ko‘rinishda bo‘lib, erkaklar, ayollar, bolalar va yoshi kattalarga mo‘ljallangan bo‘ladi. O‘zbek do‘ppilarining ko‘proq tarqalgan shakllari to‘rtburchak aylana (ba‘zida konussimon) bo‘ladi. Do‘ppilarga asosan oq, qora yashil, qirmizi, to‘q ko‘k rangdagi matolarga turli kashta tikish usullari bilan bezak berilgan. Bular quyidagilardir: «Bigiz» – do‘ppi va boshqa kiyimlarni bigiz bilan tikadigan usul. Bigiz usuli Surxondaryoga XX asr boshlarida kirib kelgan. Bu usul bilan kiyim, kichikroq buyum va do‘ppilarni tikishda ishlatiladi. Boysunda bigiz usulining «O‘ymoqi» degan yangi turi vujudga kelgan. Bugungi kunda «o‘ymoqi bigiz» usuli bilan faqat boysunlik hunarmand Sanobar Oripova va uning shogirdlari tikishadi. «Iroqi» – do‘ppi, tasma va jiyakda ishlatiladigan kichik kashtalar; «Bosma» – igna bilan ustini bosib tayyorlaydigan usul. Bundan tashqari, bosmadan so‘zana, zardevor, oynaxalta va joynamozni bezash uchun ham ishlatiladi.

«Piltado‘zi» – bo‘rtma (rel‘efli) kashta. Uni bosh kiyim uchun ishlatishadi. Aytish kerakki, oldinlari piltado‘z Samarqandning Urgut tumani, Qashqadaryo, Surxondaryo, Shimoliy Afg‘oniston va Janubiy Tojikistonda tarqalgan edi.

Kashtachilik — kashta tikish kasbi, amaliy saʼatning qadimgi sohalaridan biri. Kashtaning paydo boʻlishi teridan qilingan kiyimlarda bogʻlam va choklarning yuzaga kelishi bilan bogʻliq. Kashta qoʻlda (igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz bilan) yoki mashinada, asosan, matoda (boʻz, satin, chit, shoyi, baxmal va boshqa) va charm (etik, mahsi, pichoq, va boshqa) tikiladi. Kashtada oʻsimliksimon naqshlar, handasiy shakllar, fazoviy jismlar, meva va hayvonlarning uslublashtirilgan tasvirlari, baytlari, keyinroq kishilarning qiyofalari, meʼmoriy obidalar ham oʻz ifodasini topgan. Kashta tikish turli choklardan matoga avvaldan andaza yordamida tushirilgan gul, tasvir, naqsh asosida, baʼzan matoga iplari sugʻurilib tayyorlangan asosda sanama usulida bajariladi. Bunda jun, ip, ipak, zigʻir tolali tabiiy va sunʼiy (sintetik) tolalardan, metallardan (tilla, kumush) tayyorlangan iplar ishlatiladi. Shuningdek, dur, nozik, piston, baʼzan qimmatbaho tosh va tangalar keng ishlatiladi. Mato, moʻyna, charmlardan quroq tikishda kashtadan foydalaniladi.

Zardoʻzlik — hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri, oltin (zar) ip bilan naqsh (kashta) tikishdir. Asosan Buxoro viloyati aholisi shugʻullangan. Zardoʻzlikda baxmal, shoyi, movut, charm va boshqa matolarga zar ip bilan kashta (gul, naqsh, tasvir) tikiladi. Kashtaga baʼzan metall, tosh, shisha munchoqlar ham ishlatiladi. Shakllarni yaratishda zardoʻzi, zamindoʻzi, guldoʻzi, birishidoʻzi,

Ganchkorlik — badiiy hunarmandchilik turi boʻlib, binolarni bezatishda, meʼmoriy detallarni ishlashda, devor va shiftlarni suvashda, bezak shakllari hamda oʻyma naqsh va tasvirlar yaratishda keng qoʻllaniladi. Qadimda Termiz, Qarshi, Shahrisabz kabi shaharlar ganchkorlikning markazi boʻlishgan. Bugungi kunda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining deyarli barcha shahar va qishloqlarida tarqalgan. Ganchkorlikda bezak ikki usulda bajariladi: oʻymakori usulida bino devori suvoq qilinib, bezatiladigan qismiga naqsh ishlanadi; qolipaki ulakchadoʻzi, izmag kabi turli usullardan foydalanishadi¹³¹. usulida tayyor bezak sirtga oʻrnatiladi. Qolipaki usuli bezakni birdaniga koʻp miqdorda tayyorlash imkonini beradi. Hozir qoliplar yordamida koʻp nusxada ganch bezaklar tayyorlash yoʻlga qoʻyilgan. Ularning yordamida uylarning derazalari, darvoza chetlari, devorning tom bilan tutashgan joylari va devor sirlari bezatilmoqda.

Oʻymakorlik - amaliy sanʼatning qadimiy va keng tarqalgan turi boʻlib, yogʻoch, ganch, metall, tosh, suyak, terrakota va boshqalarni oʻyish, yoʻnish, kesish yoʻli bilan badiiy shakl yasash sanʼati. Bu sanʼatdan buyumlar, turli asboblarni nafislashtirishda, binolarni bezashda, kichik shaklli haykaltaroshlik kompozitsiyalari yaratishda foydalaniladi. Oʻymakorlikning ishlatiladigan xom ashyosiga koʻra yogʻoch oʻymakorligi, ganch oʻymakorligi, metall oʻymakorligi

(kandakorlik), suyak o‘ymakorligi kabi turlari bor. O‘rta Osiyoda o‘ymakorlik 3 yo‘nalishda mavjud bo‘lgan: naqsh o‘ymakorligi, mavzuli (odam va hayvon tasviri ishlangan) o‘ymakorlik hamda naqsh va mavzuli o‘ymakorlik uyg‘unligidagi murakkab kompozitsiyalar.

Temirchilik – hunarmandchilikning ushbu turi qadimdan rivojlanib kelgan. Ular aholi ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan temirchilik buyumlarini yasab berishgan. Masalan, dehqonlar uchun bel, ketmon, o‘roq, panshaxa, chalg‘i, chopqi va boshqalarni mahalliy temirchilar tayyorlab berishgan. Har bir qishloqda temirchi usta bo‘lgan. Ishlab chiqarish quroli turli o‘lkalarda turlicha atalgan. Farg‘ona va Toshkentda «yondo‘kon», Buxoro va Surxondaryoda «qo‘ra», Xorazmda «dastgoh» deyilgan. Buxoro amirligi davrida temirchilikning o‘zi 19 ta hunarmandchilik tarmog‘iga bo‘lingan. Bu esa temirchi kasbining nechog‘lik darajada yuksak maqomga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 S. N. Tursunov, T. R. Pardayev, G. O‘. Ahmedova O‘zbekiston janubiy hududlarda madaniy va amaliy sa‘nat yodgorliklari tarixi .Termiz , 2017 yil
- 2 S. T. Tusunov va boshqalar. surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. Toshkent 2013
- 3 S. T. Davlatova O‘zbekistonning janubiy hududlari an‘anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida Toshkent 2018
- 4 S. Bulatov. O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati. Toshkent-1991 yil.
- 5 S. Bulatov. O‘zbekiston san‘ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
- 6 SH. L. Mamasoliyeva. Xalq hunarmandchiligi. o‘quv qo‘llanma . Samarqand – 2021 yil
- 7 Mallayev D Gilamchilik bilan bog‘liq urf-odat va rasm-rusmlar. (Surxondaryo viloyati misolida) ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11321972>

СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТИ ВА ХУНАРМАНДЧИЛИККА МУНОСАБАТИ

Маллаев Дилмурот Турсунмуродвич

ТерДУ Жаҳон тарихи кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Совет давлатининг ҳунармандчиликка муносабати ёритиб ўтилган.

Калим сўзлар: кустар, “ҳарбий коммунизм”, косибчилик саноати шўъбаси.

Annotation: The crafts of the Soviet state relationship is highlighted.

Key words: handicraft, "military communism", peasantry branch of industry.

Туркистон ўлкасининг халқ хўжалиги I жаҳон уруши ва Россиядаги 1917 йилги давлат тўнтаришидан кейин умумий вайронагарчилик ва қаҳатчиликни бошидан кечираётган эди. Большевикларнинг хусусий мулкчиликни йўқотиш, халқ хўжалигида раҳбарликни марказлаштириш ва хўжаликнинг барча соҳаларида ижтимоий-давлат мулкчилигини авж олдиришга қаратилган маъмурий-буйруқбозлик сиёсати ўлкада очарчилик ва вайронгарчиликни янада чуқурлаштирди³²⁴. Шунингдек, саноат ишлаб чиқаришининг кескин камайиб кетиши ва Россиядан саноат, озиқ-овқат маҳсулотларини олиб келишнинг тобора қисқариб бориши натижасида нарх-наво тўхтовсиз ошиб борди.

Совет ҳукумати саноатнинг бутун-бутун тармоқларини давлат тасарруфига ўтказиш бошлади. Чунончи, 1918 йилнинг биринчи ярмигача Туркистон саноатининг 330 дан ортиқ саноат корхонаси давлат мулки қилиб ўтказилди³²⁵.

Россия империяси Туркистонни босиб олгунга қадар ва 1917 йилда ҳам ўлкада 91242 нафар атрофида турли ҳунар соҳалари билан шуғулланувчи ҳунармандчилик корхоналари мавжуд бўлиб, улардан 52796 таси шаҳарларда, 38445 таси эса қишлоқларда фаолият кўрсатарди³²⁶. Вужудга келган саноат корхоналарида янгича техника ва технологиядан фойдаланишга ҳаракат қилинса-да, аммо корхоналарни реконструкция қилиш учун маблағ етишмас эди.

Қолаверса, Россиянинг ўзидаги саноат корхоналари ҳам техникавий асбоб-ускуна ва машиналар билан жиҳозланиш бўйича жаҳондаги кўп давлатлардан, хусусан, Европа мамлакатлари ҳамда Америкадан анча орқада қолганлигида эди. Маълумки, бу даврда ўлкадаги мавжуд бўлган саноқли кичик корхоналар ўз ишларини кенг йўлга қўя олмаган. Сабаб биринчидан, уларнинг фаолиятини давлат қўллаб-қувватламаган бўлса, иккинчидан, Россия империясининг ўлкага ҳали ҳам хомашё базаси сифатида қараши эди. Бундай мураккаб вазиятда совет ҳукумати ҳарбий чора-тадбирлар билан бир қаторда “ҳарбий коммунизм” деб аталган фавқулодда иқтисодий тадбирни ўтказди.

“Ҳарбий коммунизм” сиёсати ўз моҳиятига кўра фақат йирик саноатнигина эмас, балки ўрта ва майда корхоналарни ҳам давлат қўлида умумийлаштиришни тақозо этар эди. Бунда Туркистон маъмурлари учун РСФСР Халқ Комиссарлари Кенгашининг 1918 йил 28 июндаги йирик саноат ва транспортни ёппасига миллийлаштириш (национализация қилиш) тўғрисидаги декрети қулай дастур ва асос бўлиб хизмат қилди³²⁷. Ушбу декретни амалга ошириш учун 1918 йилнинг иккинчи ярмидан 1919 йилнинг биринчи ярмигача қабул қилинган ҳукумат қарорлари, хусусан, халқ хўжалиги ва маҳаллий кенгашларнинг қарорлари асосида бу ерда фабрика- завод типидagi барча йирик ва ўрта корхоналар, шунингдек, ҳунармандчилик (кустар) ва ярим ҳунармандчилик (ярим кустар) типидagi майда корхоналарнинг бир қисми деярли ҳеч қандай ҳақ тўланмасдан давлат ихтиёрига олинди. Бу ҳолат ўлкада ижтимоий-сиёсий вазиятни янада кескинлаштириб, ҳунармандлар ўртасида норозиликнинг кучайишига сабаб бўлди.

Совет ҳукуматининг иқтисодий, сиёсий ислоҳотлари жараёнида ер, йирик ва майда саноат, савдо-сотиқ ишларининг давлат монополиясига олиниши жуда катта муаммоларни келтириб чиқарди. Ишлаб чиқаришнинг пасайиб кетиши натижасида озиқ-овқат ва кундалик эҳтиёж моллари танқислиги вужудга келди. Бундай вазиятда жанубий ҳудудларда маҳаллий ҳунармандчилик маҳсулотларига талаб ошди, бу эса ўз-ўзидан ҳунармандлар сонининг ҳам кўпайишига олиб келди. Шунингдек, кўплаб саноат корхоналарининг тўхтаб қолиши оқибатида ишсизлар сонининг кескин равишда ошиши уларни ҳунармандчилик билан шуғулланишга мажбур қилди.

1917 йилда ўлкада 91242 ҳунарманд фаолият кўрсатган бўлса, 1920 йилда уларнинг сони 150000 кишини ташкил этган, шундан 61250 тўқувчи, 24000 этикдўз, 8680 кўнчи, 20150 йигирувчи, 7470 темирчи ва бошқалар бўлган³²⁸. Давлат ихтиёрига ўтказилган саноат ишлаб чиқариши бутунлай фронтни

таъминлашга йўналтирилган бир шароитда бирдан-бир “нажот” умумийлаштирилмаган косибчи-хунармандчилик устахоналари бўлган эди. Ҳақиқатдан ҳам, ўлкада товар тақчиллигидан бир қадар қутулиш йўллари кидириб, ярим хунармандчилик ва косибчилик устахоналари очилди ва уларда пойабзал, кийим-кечак, уй-рўзғор буюмлари ишлаб чиқарилди. Бироқ тез орада бу буюмлар биринчи галда Қизил армия қисмларини таъминлаш учун юборилди. Масалан, 1918 йили 1 ноябрда “Голос Самарканда” газетаси косиб ва хунармандларга расман мурожаат этиб, “армия учун кийим-кечак тайёрлаш зарур” деб маълум қилди. Марказ косиб ва хунармандлар гуруҳини жадаллик билан кооперация атрафида уюштиришга киришди. Шу боис, Туркистон Компартиясининг III съезди чақирилиб, қисқа муддат ичида эркин косиб ва хунармандларни кооперативларга бирлаштириш чоралари белгиланди³²⁹. 1918 йилда Туркистон АССР ХКК (Халқ комиссарлари кенгаши) ҳузурида Хунармандчилик бўлими ҳам таъсис этилиб, унга “пролетар оммасига хунармандчилик буюмлари ишлаб чиқаришда ижодий туйғу ва унга бўлган меҳр-муҳаббатни ривожлантириш ва оммалаштириш” вазифаси юклатилди³³⁰. Мазкур кўрсатманинг амалий ижроси сифатида шу йилнинг июль ойида Туркистон Саноати Халқ комиссарлиги ҳузурида косибчилик саноати шўъбаси ташкил этилди³³¹.

Шўъба косибларни “Совет қизил Россияси”нинг моддий ресурслар билан қўллаб-қувватлаш умумий режасига жалб қилиш ишлари билан шуғулланди. Натижада, хомашё ва тайёр маҳсулотни хусусий равишда сотишдан маҳрум этилган барча хунармандчилик тармоқлари ва косиблар бутунлай давлатга тобе бўлиб қолдилар. Улар хомашёни давлатдан оладиган ва ишлаб чиқарган маҳсулотларини унга топширадиган бўлдилар. Хунармандчилик ишлаб чиқариши аҳолининг кундалик эҳтиёжлари учун эмас, балки фронтни моддий ресурслар билан қўллаб-қувватловчи Марказий ҳарбий тайёрлов бўлимига бутунлай бўйсундирилди. Хусусан, бу даврда Туркистон ўлкаси Марказий ҳарбий тайёрлов бўлимига тахминан 3,5 минг ишчисига эга бўлган 30 дан ортиқ корхона бўйсундирилган эди³³². Жанубий ҳудудларда кенг истеъмол маҳсулотларининг бошқа турларини ишлаб чиқариш соҳасида ҳам шундай аҳволни кузатиш мумкин эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб // Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т. “Шарқ”, 2000, 102-бет
2. ЎзР МДА, 17-жамғарма, 1-рўйхат, 375-йиғма жилд, 33-варақ.; . Яна қаранг: История народного хозяйства Узбекистана. – Т., 1962, Т.1. С. 30.
3. Қиличев Р. Тоталитар бошқарув даврида халқ хунармандчилиги // Жамият ва бошқарув. №2., 2005. 84-бет.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322142>

HUNARMAND KADRLAR TAYYORLASH VA USTA-SHOGIRD MASALALARI

Mallayev Dilmurot Tursunmurodvich

TerDU Jahon tarixi kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Surxondaryo viloyati misolida Hunarmand kadrlar tayyorlash va usta-shogird masalalari yoritilib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari, Boysundagi hunarmandchilik litseyi.*

***Abstract:** On the example of Surkhondaryo region, the issues of training of artisans and master-apprentice are discussed.*

***Key words:** Laws of the Republic of Uzbekistan "On Education" and "On the National Program of Personnel Training", Vocational Lyceum in Boysun.*

So'nggi yillarda yurtimizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga keng imkoniyat yaratildi. Buning uchun har bir tuman, shahar va qishloqda ishlayotgan tajribali hunarmandlarga shogird biriktirish, hunarmandchilikka ishtiyoqi bor kishilar uchun darslar tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada mustaqillikning ilk yillarida janubiy mintaqalarda tashkil etilgan milliy hunarmandchilik litseylari muhim rol o'ynadi. Aytish joizki, 1991-1993 yillarda mamlakatimizda yuzaga kelgan og'ir iqtisodiy inqiroz mavjud SPTU (hunar-texnika bilim yurti) va texnikumlarning ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Chunki, bunday o'quv yurtlari asosan qurilish va maishiy xizmatlar ko'rsatuvchi sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashar, inqiroz sharoitida davlat miqyosidagi qurilishlar qisqarib, qurilish tashkilotlari yopilayotgan edi. Shunday vaziyatda qurilish va maishiy xizmat sohalariga kadrlar yetkazishga ixtisoslashgan o'rta maxsus bilim yurtlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash, 1993-1994 o'quv yiliga yangi o'quvchilarni qabul qilishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqargan edi. Maktab bitiruvchilari o'rtasida ko'proq bank, audit, soliq, moliya, huquq-tartibot sohalarida o'qishga bo'lgan qiziqish keskin ortdi. Qurilish, maishiy xizmat, santexnika, injeneriya singari kasblarning obro'yi tushib ketdi. Ayni o'sha

paytda milliy qadriyatlarni tiklash, an'analarimizni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar o'z natijalarini bermoqda edi. Qadimiy hunarmandchilikni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan barcha tashabbuslar aholi tomonidan qo'llab quvvatlana boshlandi. O'quv yurtlarida yuzaga kelgan og'ir vaziyatdan chiqish yo'llari o'rganilib, hunar-texnika bilim yurtlarini milliy hunarmandchilik va qurilish litseylariga ixtisoslashtirish boshlandi. Jumladan,

Boysun va Sherobodagi SPTU lar milliy hunarmandchilik, Termizdagi 2-sonli va Sariosiyodagi SPTU esa qurilish litseyiga aylantirildi. 1995-yilda Surxondaryo viloyat o'rta maxsus kasb-hunar bilim yurtlarida 25579 nafar o'quvchi bo'lgan, shundan 9384 nafari bitiruvchi bo'lgan, 9685 nafar o'quvchini qabul qilish mo'ljallangan. Bitiruvchilarning 202 nafari Sariosiyo kasbhunar litseyiga, 180 nafari Sherobodga, 121 tasi Boysun milliy hunarmandchilik kasb-hunar litseyiga to'g'ri keldi. Hunarmandchilik litseylari ochilar ekan, ularni tajribali o'qituvchilar malakali ustalar bilan ta'minlash dolzarb vazifaga aylandi. Shu bois Buxoro va Qarshishaharlarida milliy hunarmandchilikni o'qitish bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etildi. Sherobod va Boysundagi kasb-hunar litseylarining ishlab chiqarish ustalari ushbu kurslarga o'qish uchun yuborildilar. Sherobodlik Risolat Rahmatova 1994-yili zardo'zlikni o'rganish uchun Qarshiga bordi. U yerda zardo'zlik sexi tashkil qilib, ish yuritayotgan Gulchehra Pirimqulovadan bir oy ish o'rganib qaytdi. Shundan keyin Sherobod milliy kasbhunar liseyi qoshida tashkil etilgan zardo'zlik sexiga boshchilik qildi. 1995-1996 o'quv yilida liseyda zardo'zlik guruhi ochildi. Risolat Rahmatova ishlab chiqarish ustasi vazifasiga tayinlandi. Risolat Rahmatova o'zi va shogirdlari bilan biga turli tadbirlarda muvaffaqiyatli qatnashdi. Jumladan, tumanda o'tkazilgan «Tashabbus- 97» ko'rgazmasida ularning mahsulotlari 1-o'rin bilan taqdirlandi. Risolat Rahmatovanning o'zi 1996-yilda viloyat pedagogik o'qishida, 1997-yilda esa «Yil o'qituvchisi» viloyat tanlovida muvaffaqiyatli qatnashdi. Har ikki tadbirda uning bilimi va kasb mahorati ikkinchi o'ringa munosib baholandi. R.Rahmatova boshqargan zardo'zlik guruhi xomashyoni o'z kuchi bilan topadi. Ya'ni, tikkan mahsulotlarini sotib, shu pullarga kerakli xomashyolarni sotib olishadi. Bundan tashqari, liseyning hisob raqamiga belgilangan mablag'ni kirim qilib turishadi. 1996-1997 o'quv yilida zardo'zlik guruhi tomonidan g'aznaga 13 ming so'm kirim qilindi. 1997-1998 o'quv yilida ular 10 ming so'm topshirishdi. 1998 yil mart oyiga qadar ular 6 ming topishga erishishdi. Guruhda 12 nafar qiz o'qiydi. Asosan buyurtmalar bo'yicha mahsulotlar tayyorlashadi. Jumladan, do'ppilar, xalatlar, kuyovlar va to'ybolalar uchun to'nlar, paranji yopinchi'lar, kelin salomlar uchun dastgirlar, shippaklarning ust qismlari shular jumlasidandir.

Boysundagi hunarmandchilik litseyining ishlab chiqarish ustasi Sanobar Oripova 1994-yili Buxoroga bir oylik kashtachilik kursiga o'qish uchun yuborildi. Yoshligidan onasi bilan birga kashta tikkan emasmi, darrov o'zlashtirib oldi. O'qishni tugatgach, yana Boysunga qaytib keldi. Litseyda 20 nafar qizgakashtachilik bo'yicha mashg'ulotlarni boshlab yubordi. Shogirdlari orasida

bo'lg'usi ishbilarmon kashtachilar yetishib chiqdi. Ulardan Feruza Holiqova, Nilufar Jo'rayeva kabilarni keltirib o'tirishimiz mumkin. 1998-yil 27-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigan tadbirlar davlat dasturi to'g'risida»gi Qarorida yosh avlodni «Usta-shogird» usuli bilan kasb-hunar o'rgatishni kengaytirish va kam ta'minlangan oilalardan kamida 1000, bolalikdan nogironlardan kamida 500 o'smir bolani hunarga o'rgatib borish belgilandi. Bundan tashqari, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik tarmog'iga yosh bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan ayollar, hamda nogironlarni jalb etishga katta e'tibor qaratildi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qishloq yoshlarini hunarmandchilik sohasiga tayyorlash uchun alohida e'tibor qaratildi. Angor, Muzrabot, Sherobod, Uzun, Sariosiyo, Oltinsoy, Boysun tumanlarida «Ustoshogird» uslubi bo'yicha 2 ming kishiga xalq hunarmandchiligi sirlari o'rgatildi. Muzrabot, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Sho'rchi tumanlarida qishloq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlariga amaliy yordam ko'rsatildi.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida bo'lg'usi mutaxassislarni an'anaviy hunarmandchilik kasblariga o'qitish va qayta tayyorlash uchun o'quvme'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Mutaxassis o'qituvchilar tomonidan o'quv reja va dasturlari ishlab chiqildi, o'quv qo'llanmalar va elektron darsliklar yaratildi. Shahrisabz, G'uzor, Kitob, Yakkabog', Muborak va boshqa tumanlarda «Ustoshogird» usuli bo'yicha kam ta'minlangan oilalar hisobidan 1500 kishi an'anaviy hunarmandchilik kasblariga o'qitildi¹⁶¹. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 6-oktyabrda qabul qilingan «Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida»gi PF-1869-son Farmonini bajarish maqsadida 1998-yil 20-mart kuni Surxondaryo viloyat hokimining «Termiz shahrida akademik litsey va kasb-hunar kollejini tashkil qilish haqida»gi 89-son qarori chiqdi. Ushbu qarorga ko'ra, Termiz shahrida 1998-99 o'quv yilidan boshlab mavjud O'quvchilar saroyining bir qismida va agrotadbirkorlik kollejining yotoqxonasida akademik litsey hamda 2-hunar texnika bilim yurti bazasida kasb-hunar kolleji ochildi. Kasb-hunar kollejining turi 1998-

yil 2-martda Vazirlar Mahkamasining I.H.Jo‘rabekov huzurida o‘tkazilgan yig‘ilish qaroriga asosan sanoat, ta‘lim yo‘nalishi oziq-ovqat sanoati etib belgilandi. 1998-yil 1-iyulgacha akademik litsey va kasb-hunar kollejining samarali faoliyatini tashkil etish maqsadida: A) professor-o‘qituvchilar tarkibini aniqlash; B) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi bilan kelishilgan holda Nizomlarni ishlab chiqish; V)1998-1999 o‘quv yili va keyingi yillar uchun xarajatlari va shtatlari jadvalini tuzish; G) viloyatdagi barcha shahar va tumanlaridan har yili 200 tadan iqtidorli bolalarni kollej va akademik litseyga qabul qilish buyurildi. Surxondaryo viloyati hokimligining o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi boshqarmasi Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning jihozlari to‘g‘risidagi normativ hujjatlarni ko‘rib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surdi: Sanoat, transport va aloqa tashkil etiladigan kasb-hunar kollejlari sohasida o‘quv xonalari jihozlari ro‘yxatiga ko‘mir, neft va gaz sanoati bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv xonalari jihozlarini kiritish; Qishloq va suv xo‘jaligi sohasiga o‘rmon xo‘jaligi yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlanadigan mutaxassislar uchun o‘quv xonalari jihozlarini kiritish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umarov I., Rahmonov H., Xudoyberdiyev E. Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar (xatakilar urug‘i misolida). –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2014. –B. 138.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 564-fond, 1-ro‘yxat, 15-ish, 70-varaq.
3. «Surxon tongi» gazetasi, 1998 yil 1-aprel.
4. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi, 1998 -yil 15-yanvar, 2-bayonnoma. – B. 19

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322236>

INNOVATIVE PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO ENSURING FAMILY STRENGTH. INFLUENCE OF FAMILY ENVIRONMENT ON THE FORMATION OF TALENT IN SCHOOL STUDENTS.

Abdullayeva Zuhro Ismoilovna

Teacher of the Psychology Department of Termiz State University

***Annotation:** In this article, the family plays an important role of the external environment in the development of talent in schoolchildren. Family is a part of society, in which a new person is born, it is the elementary school of life for a small social group. Parents, as the child's first teacher and educator, must first be psychologically prepared, talent is a specific form of abilities that ensure successful performance.*

***Keywords.** Family, talent, children, parents, ability, external environment, heredity, school, development, upbringing, professional training of teachers.*

With the various models of giftedness currently available, most psychologists believe that internal factors such as intelligence, creativity, motivational and personality characteristics, as well as factors of the social environment, are fundamental to the development of giftedness in children.

According to the well-known Uzbek psychologist B.R. Kadirov, the family plays an important role in the development of children's abilities and talents, and in this, the proper organization of the child's activities by parents, hereditary characteristics passed from generation to generation, and the psychological composition of the family as a whole environment is important. In this regard, the scientist writes: «Family can serve not only as a natural environment for a child, so that he can develop his potential, but also explains the formation of the most delicate aspects of communicative relations and the dependence of talent on heredity». Educational conditions, characteristics of family education, cultural environment, etc. They are the most important components of the social factor of development. Experimental studies of the influence of parents on the developmental characteristics of their children are mainly related to the study of self-esteem, children's success in one or another field, and their ideas about their abilities with the social expectations of parents. From the point of view of pedagogy, the environmental variability of intelligence indicators is mainly related to the variability of the environment within the family. In relation to it, the external, cultural

environment serves as a general basis for development. Thus, the "environment within the family" has the greatest influence of all social factors. O.M. Dyachenko proposed to take into account the development of talent as an additional factor that ensures the realization of abilities in specific activities of children. The talent development model is presented by him in the form of three blocks. Thus, the developing personality is affected by external and internal factors. The purpose of identifying talent is to study the factors that cause talent, to study the psychological and personal characteristics of gifted children, and to acquire guidelines and tools for working with gifted children. Information about gifted children and their psychological characteristics, ability, talent, talent concepts is important. Factors affecting the process of teaching and learning gifted children include: 1- Environmental factors; these factors are related to the child's place of residence and growth. It is believed that everything around them can affect their learning. Environmental factors allow children to develop skills according to their habits. For example, a child raised in the city with daily access to tablets, computers, video games, and cell phones can improve their technology skills because they see it every day. A child growing up in the field will have the opportunity to improve his skills in agriculture, animal husbandry and other fields. However, this is not an indicator that one child is smarter than another, but that everyone can improve their skills based on what they see and do on a regular basis. 2. Signs of talent. Signs of giftedness are characteristics that are manifested in the real activity of a gifted child and are evaluated as a result of observing his actions. The signs of talent are related to the level of activity implementation. Before discussing the characteristics of giftedness, it is necessary to discuss the concepts of "will" and "can". Before discussing the characteristics of giftedness, it is necessary to discuss the concepts of "will" and "can". Motivation characterizes the child's attitude to one or another aspect of his activity, as well as to his own activity. The instrumental aspect of a gifted child's character is observed in the following signs. The presence of special strategies of activity, the activity of a gifted child is distinguished by its uniqueness and efficiency, accordingly, 3 main levels of activity success related to its implementation strategy are distinguished: In the conditions of rapid mastering of activity and finding a solution to the situation given to its implementation, new-success and creation of activity, application of new-methods as a result of deep mastering of science are approached with a different perspective There are different manifestations of talent according to the characteristics of the child's goal promotion, psychological opportunities for reality, and age. One of the factors preventing the manifestation of talent is the lack of necessary knowledge, skills, and abilities. If children acquire the necessary knowledge, their talent will begin to manifest. In some cases, difficulties in a child's development

mask his talent. For example, anxiety, fear, conflicts can weaken his ability. On the other hand, the manifestation of talent also depends on the family's well-being. It is clear to us that financially well-off children have wide opportunities in all aspects, therefore, the manifestation of talent is "short-handed" in some situations, while the children of low-income families who depend on them want to demonstrate their talent. The unique features of gifted children make our life colorful and useful for society. Firstly, the gifted people are sensitive to everything and have a strong sense of fairness; they will be able to change and innovate social relations. The second characteristic is the activity of knowledge and the high level of development of the intellect, which allows obtaining new information about the environment. Talent is a specific form of abilities that ensure successful performance. The mutual compatibility of abilities serves to fill the gaps in other abilities. General abilities ensure the possibility of a person, development of his activity; It reflects the character of the ability, the natural, unique aspects of the abilities, the basis of success in the activity; A gifted child is brilliant in one or another activity. Sometimes, one of the internal conditions is talent, a child distinguished by continuous success. Today, many psychologists recognize that the development of talent is the result of a complex interaction between heredity (hereditary ability) and social environment (play, study, work processes). But one cannot deny the role of psychological mechanisms of self-education of a person, which lies at the basis of the formation of this individual talent. Many psychologists consider creativity (creative potential) to be an important and independent factor of talent. There are different manifestations of talent according to the psychological capabilities of the child and the characteristics of the age period. One of the factors preventing the manifestation of talent is the lack of necessary knowledge, skills, and qualifications. If children acquire the necessary knowledge, their talent will begin to manifest. It is necessary to identify the talent of students in the period of primary school and develop it. It is necessary to create all conditions for learning. The development of a person is first of all interrelated with the family in which he is born and grows up and his environment. If in the family, the parents recognize the child's personality and uniqueness, based on the child's age characteristics, capabilities and interests, then the child will become more and more demanding and aspirational. Especially at the age of development in kindergarten and adolescence, it is important for adults to give certain initiatives to the child, treat his opinion with respect, often ask "What do you think?" His appeal to his opinion allows free thinking and expressing an independent point of view.

LIST OF REFERENCES:

1. Baratov Sh. Iqtidorli bolalar psixologiyasi. Buxoro. 2010.
2. Шарафутдинова Х.Г. Никоҳ олди омиллари ва уларнинг оила мустаҳкамлигига таъсири. // Республика илмий-амалий конференция материаллари. Термиз. 2019. Б.25-27.
3. Abdullayeva, Z. I. (2024). Iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik xususiyatlari psixokorreksiyasi. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 SPECIAL), 32-35.
4. ALIMOVA, N. (2023). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL COMPONENTS OF RESPONSIBILITY FOR CHILD EDUCATION. *WorldBulletinofSocialSciences*, 29, 41-44.
5. Alimova, N. U. (2023). PARENTAL RELATIONSHIP IN CHILD RAISING PSYCHOLOGICAL PROPERTIES. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 513-517.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322304>

O‘ZBEKISTONDA OILAVIY BOLALAR UYLARINING TASHKIL TOPISHI VA UNING AFZALLIKLARI

To‘raqulova Shaxnoza Daminovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrasini o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamizda olib borilayotgan barcha sohalar singari Mehribonlik uylarini tubdan isloh qilish jamiyatning og‘riqli jihati bo‘lgan yetim va ijtimoiy yetim bolalarni oilada tarbiyalashga qaratilgan ilmiy asoslangan fikr mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mehribonlik uyi, mehr-meruvvat, hayr-saxovat, insonparvarlik, oilalarning mustahkamligini saqlab qolish, tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashuvi, pedagogika-psixologiya, rivoyatlar, islom dini, xalq pedagogikasi, etnopsixologiya, yetimlik va ijtimoiy etimlik, ota-onalar va shu kabi tushunchalar o‘rin olgan.

Аннотация: В данной статье, как и во всех областях нашей Республики, коренная реформа детских домов является болезненным аспектом жизни общества, и освещены научно обоснованные мнения, направленные на воспитание детей-сирот и сирот в семьях.

Ключевые слова: Дом милосердия, доброта, щедрость, гуманизм, сохранение стабильности семьи, социализация детей, педагогика-психология, нарративы, исламская религия, народная педагогика, этнопсихология, сиротство и социальное сиротство, родители и такие понятия, как

Abstract: In this article, as in all areas of our Republic, the radical reform of orphanages is a painful aspect of the life of society, and scientifically based opinions aimed at raising orphans and orphans in families are highlighted.

Key words: House of Mercy, kindness, generosity, humanism, maintaining family stability, socialization of children, pedagogy-psychology, narratives, Islamic religion, folk pedagogy, ethnopsychology, orphanhood and social orphanhood, parents and concepts such as.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashning huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratildi: «...inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish hamda ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash ustuvor yo‘nalishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda...». Bu esa, oila tipidagi bolalar uyi tarbiyalanuvchilar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlarini o‘rganish hamda xulq-atvor shakllanishining mexanizmini tadqiq etishni ilmiy jihatdan o‘rganishda yetarli asos bo‘la oladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ota-ona mehridan mahrum bo‘layotgan bolalar soni kundan kunga ortib bormoqda, dunyo bo‘yicha statistik ma‘lumotlarga ko‘ra bunday bolalar soni 1 milliondan ortib ketgan. Statistik va ilmiy ma‘lumotlarga nazar tashlagan holda mushohada qilinsa, ushbu holatlarni ko‘rish mumkin. Dunyoda sodir bo‘lgan urushlar davrida qarovsiz qolgan bolalar muammosi, yetim bo‘lib qolgan bolalar tarbiyasi asosiy muammo sifatida e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masala sifatida e‘tirof etilgan.

Masalan, Amerikada keng tarqalgan tizimlardan biri sifatida “Foster oilasi” ni misol keltiradi. Amerikada yuz minglab “Foster oilasi” mavjud bo‘lib, bunday oilalar ikki kishidan – er va xotindan iborat bo‘ladi. Bunday oilalar bolalarni tarbiyalash uchun oilasiga olishadi. Foster oilalariga ota-onasi bilan kelisha olmagan, o‘z uyida yashash istagi bo‘magan bolalar olinadi. Bu bolalarning qariyb katta qismi psixologik stress holatidagi bolalar bo‘lib, ular tinch sharoitga intilishlari orqali Foster oilalariga kelib qolishadi. Foster oilalarida bunday bolalarga barcha sharoitlar yaratib beriladi va ularni kelajakda o‘z uylariga qaytarishga harakat qilinadi. Bu tizimda ishlaydigan Amerikalik psixologlar “Foster oilasi” tarbiyachilari ish faoliyatida qo‘llashi uchun bir qancha ijtimoiy psixologik yo‘l-yo‘riq va usullar ishlab chiqib, tavsiya qilishgan, o‘z navbatida tarbiyachilar esa ushbu yo‘l-yo‘riq va usullardan foydalangan holda bolalar bilan ishlaganlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 11 fevral kuni “yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining quyidagi ba‘zi bo‘limlariga to‘xtalsak o‘rinli bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda “Mehribonlik” uylari, bolalar shaharchalari va bolalar uylariga 1 ta psixolog shtat birligini tashkil qilish agar tarbiyalanuvchilari soni 200 nafardan ortiq

bo‘lgan “Mehribonlik” uylari, bolalar shaharchalari va bolalar uylarida 2 ta psixolog shtat birliklarini tashkil qilish belgilab qo‘yilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 39-moddasida shunday deyilgan: «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yuqotganda, shuningdek, boquvchisidan maxrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega». O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 64-moddasida Yuqoridagi qonunlar fikr yuritishni yanada oydinlashtiriladi. «Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan maxrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatlarni ragbatlantiradi» deyilgan.

Etimlik – insoniyat, jamiyat va uning taraqqiyotida mavjud bo‘lgan xodisa hisoblanadi.

Afsuski butun dunyoda yetim va ijtimoiy yetim bolalar mavjud:

Etimlik-sabablari turlicha bo‘lishi mumkin, etimlik turli adabiyotlarda turlicha talqil qilingan tushuncha xisoblanadi, masalan:

1. Ota-onasining vafot etganligi sababli.
2. Ota-onaning ikkisidan biri vafot etganligi sababli.
3. Ota-onalik xuquqidan maxrum etilganlik sababli.
4. Jazoni ijro etish kaloniyasida (qamoqda) saqlanayotganligi sababli.
5. Boshqa Respublikalarga (xorijga) ishlash uchun ketib qaytib kelmaganligi sababli.
6. Ijtimoiy omillar ta’sirida (avtoxalokat, yong‘in, is gazi) va boshqa sabablar.

Afsuski bunday sabablarni ko‘plab ko‘rsatishimiz mumkin, lekin eng achinarlisi shundaki ota-onasi tirik bo‘la turib etimlikni boshidan keshirayotgan bolalar butun dunyoda mavjud.

Yetim bolalarni va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar sonini ortib borishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun quyidagi holatlarga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

1. Oilaning mustahkamligi, uning moddiy va ma’naviy to‘la to‘kisligini ta’minlash.
2. Yangi hayotga qadam qo‘ygan yosh oilalarni eng kamida besh yil ota-onasi bilan yashashini ta’minlash.
3. Jamiyatda yuqori darajali-Mustahkam oilalar sonini ko‘paytirish.
4. Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohni qoralash, chunki bu xolat yaxshi natija bermasligi barchamizga ma’lum bu xolat sotsiologik, tibbiy, psixologik va boshqa tadqiqotlarda isbotlangan.
5. Ishsizlar sonini kamaytirish chunki oilaning mustahkamligi ko‘proq moddiyatga ham bog‘liq.
6. Erta nikohdan o‘tishga yo‘l qo‘ymaslik.

Har bir inson hurmat-ehtiromga loyiq. Mehr-muruvvatga tashna, moddiy-ma'naviy ko'makka muhtoj, ota-onasidan ayrilgan yetimlarga ikki karra ko'proq mehr ulashish dinimizning asosiy ko'rsatmalaridan ekanligi barchamizga ma'lum. Bejiz Sahl roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisi sharifda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam:

سَلَّمَ وَ عَلَيْهِ اللهُ صَلَّى اللهُ رَسُوْلُ قَالَ، قَالَ عَنْهُ اللهُ رَضِيَ سَهْلٌ عَنْ

شَيْئًا بَيْنَهُمَا وَفَرَجَ وَالْوَسْطَى بِالسَّبَابَةِ وَأَشَارَ « هَكَذَا الْجَنَّةُ فِي الْيَتِيمِ وَكَافِلُ أَنَا »

“Men va yetimni kafilligiga olgan kishi jannatda mana shunday bo'ladi”, dedilar va ko'rsatkich hamda o'rta barmoqlariga ishora qilib, bu barmoqlari orasini bir-biriga yaqin tutdilar” (Imom Buxoriy rivoyati).

2022 yil 1 sentyabrdan boshlab oilaviy bolalar uyini tashkil etgan fuqarolarga har oyda davlat byudjetidan 7 yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilarga bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida, 8 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilarga bazaviy hisoblash miqdorining 7 baravari miqdorida, shuningdek, oilaviy bolalar uyidagi har bir tarbiyalanuvchini parvarish qilish uchun mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 1 baravari (nogironligi bo'lgan bolalar uchun 1,5 baravari) miqdorida hamda oilaviy bolalar uyiga tarbiyaga olingan har bir nogironligi bo'lgan bolani davolash-sog'lomlashtirish uchun har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida mablag' ajratiladi. Mablag'lar har oyning 5-sanasiga qadar tutingan ota-ona nomiga ochilgan bank plastik kartasiga to'g'ridan-to'g'ri o'tkazib beriladi. Tarbiyalanuvchilarga hududda joylashgan davlat sport majmualari, ma'naviy-ma'rifiy maskanlar, to'garaklar, ot sporti seksiyalari, "Ishga marhamat" monomarkazlari va boshqa o'quv markazlaridagi to'garaklar va kurslarga bepul qatnashish huquqiga ega ekanliklari belgilab qo'yilgan,

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, insoniyat bor ekan tug'ilish va vafot etish bor, inson bolasi har doim unga ko'proq g'amxo'rlik qiladigan insonlar bilan yashash xuquqiga ega, zotan bolaning bolaligini o'g'irlashga hechkimning xaqqi yoq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. -T.: “ O‘zbekiston”. 2017. - 488 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX-sessiyasida so‘zlagan nutqi). -T.: « O‘zbekiston». 1997. -92 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. –T.: 2022.- 40 b.
4. L.T.To‘raqulov. Oila tipidagi bolalar uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari. Psi.fan.fal.dok.dess. T.; 2023 y.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322369>

SAMARQAND MARKAZIY OSIYO TURIZMINING MARKAZI SIFATIDA

Juraqulova Farangiz Turaqul qizi
TDPU tarix fakulteti 4-bosiqch talabasi

Sharipova Durdoni Kamoliddin qizi
Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** ushbu maqolada Samarqand Markaziy Osiyo turizmining markazi sifatida yuksalishi, turistik salohiyati hamda turizm sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlari haqida qisqacha ma’lumot beriladi*

***Kalit so‘zlar:** me’moriy yodgorliklar, turizm, sayyoh, turizm poytaxti, Byuporti xonim, Registon maydoni.*

Markaziy Osiyoning qoq yuragida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi o‘zining ko‘plab me’moriy yodgorliklari, ajoyib tabiat manzaralari, muhtasham saroylari, o‘tmish sivilizatsiyalari qal’alari xarobalari, eng yorqin madaniy tadbirlari, gastronomik hududlari va mashhur hunarmandchilik ustaxonalari bilan hammamizga taniqli. Birinchi tashrifdanoq yurtimiz bu yerga qayta-qayta kelishga undaydigan g‘ayrioddiy tuyg‘ularni uyg‘otadi. Yer yuzining sayqali bo‘lgan Samarqand nafaqat Markaziy Osiyoda balki, dunyoga o‘zining qadimiyligi, navqironligi bilan mashhurdir. So‘nggi yillarda Samarqand turizm markazi, poytaxti sifatida o‘zining mavqeyini oshirib kelmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan "Buyuk Ipak yo‘li" Samarqand turizm markazi sayyohlar oqimini yanada oshirmoqda. Endilikda Samarqandni O‘zbekistonning “Turizm darvozasi”ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm ximzatlari hajmi kamida 10 barobar oshirilishini¹-ta’kidladi. Turizm industriyasi millionlab odamlarning tirikchiligini ta’minlaydi, milliardlab insonlarga esa o‘z xalqi va boshqa mamlakatlar xalqlarining madaniy o‘ziga xosligini, shuningdek, tabiat boyligini qadrlash imkoniyatini beradi. O‘zbekistonda sayyohlarni jalb etish borasida xamisha ko‘hna va navqiron Samarqand shahrining ulushi va o‘rni kattadir. 2750 yillik tarixga ega Samarqand ko‘plab imperiyalarga poytaxt va ta’lim markazlariga

¹ Mirziyoyev.Sh. Turizm iqtisodiyotning drayveri. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.”O‘zbekiston” nashriyoti, T. 2022. -B.172.

rivojlangan shahar sifatida Buyuk ipak yo‘li rivojlangan davrlarda dovrug‘ qozondi. Bularning barchasi bugungi kunda Samarqandni Markaziy Osiyo turizm kabi bo‘lishida muhim omil bo‘lmoqda.

Sharq Rimi hisoblangan Samarqandda 1607 ta me‘moriy yodgorlik va ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, ularni aksariyati Butunjahon Madaniy tashkiloti YUNESKO muhofazasiga olingan. Ko‘plab tadqiqotchilar Samarqandning sayyohlik salohiyati bundan ham ko‘proq sayyohlarni jalb etish uchun yetarli deb hisoblaydi. Samarqand nafaqat me‘moriy yodgorliklari bilan balki ziyorat, gastronomik, ekoturizm kabi yo‘nalishlarda ham yetakchi hisoblanadi. Yevropalik sayyohlik etiroficha, bu sohalarni yanada jozibali qilish imkoniyatlari mavjud. Agarda, mavjud salohiyatining barchasi to‘liq ishga solinsa, Samarqandga keladigan sayyohlarning soni 2 mlndan oshishi mumkinligi barchamizga ma‘lum. Ko‘plab sayyohlarning tashrifi bu Samarqandning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi, yangi ish o‘rinlarini yaratishda imkoniyat yaratadi.

Jumladan, Respublika hududlarida va xorijiy mamlakatlarda Samarqandning turizm salohiyati hamda Samarqand xalqaro aeroporti imkoniyatlarini namoyish etuvchi “Samarqand Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi” targ‘ibot kampaniyasi yo‘lga qo‘yilishi kutilmoqda, turistlarga xizmat ko‘rsatish uchun turizm axborot markazlarining yanada rivojlantirish kabi vazifalar ham belgilab qo‘yilgan. Samarqandda joylashgan barcha turistik obyektlarning muhim jihatlaridan biri, shundaki, deyarli barchasi shahar markaziga yaqin joyda joylashgan. Bu esa tashrif buyurgan sayyohlarga qulay imkoniyatlar yaratilishiga olib kelmoqda. Samarqandda bir marotaba tashrif buyurgan sayyohlar katta tassurotlar bilan qaytishadi. Samarqand shahrida 2017-yildan boshlab, turizm sohasida jadal o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa shahar markazida bunyod etilgan “Silk road” (Buyuk ipak yo‘li) majmuasining bunyod etilishi, unda ilmiy markazlarning ham mavjudligi bevosita soha rivojlanishiga katta ta‘sir etdi. Buni turli xalqaro va sammit uchrashuvlarga mezbonlik qilayotgan Samarqandda tashkil etilayotgan ma‘rifiy, ilmiy va siyosiy tadbirlarning doimiy o‘tkazilayotganligida ham ko‘ramiz. Samarqandda sayyohlikni rivojlantirish va turistlar oqimini ko‘paytirishda tashkil etilgan yangi oliy ta‘lim muassasalari jumladan, Buyuk ipak yo‘li va madaniyat universiteti hamda Imon al-Buxoriy nomidagi ilmiy tadqiqotlar markazlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Samarqandning nufuzi Temuriylar davrida juda yuqori bo‘lgan. Buni Temurshunos olimi Fradiko Byuperti xonimning asarlari tasdiqlaydi. Bu xonim Samarqandni tarixi san‘ati madaniyatini targ‘ibotida muhim ro‘l o‘ynab kelmoqda. Qariyb yarim asr faoliyati davomida Samarqandga bir necha marotaba tashrif buyurgan turli konferensiyalarning tashabuskori bo‘lgan xonimga 2017-yildagi tashrifida

Samarqand shahri faxriy fuqoroligi uning mehnatlariga yurtimiz tarixini yoyishdagi bemisl xizmatlari uchun berilgan yuksak bahodir.

Samarqand shahri yevropaliklarni doimo hayratga solib lol qoldirib kelgan. Xususan 1880-yilda Samarqandga tashrif buyurgan yapon diplomati, Kato Kyudzo o‘zining “Самарканд глазами японца Ни Си Токужиро¹” ya’ni (Samarqand yaponiyalik Ni Si Tokujiro nigohida) nomli maqolasida ham Samarqandni yetarlicha darajada maqtagan. Xususan, o‘sha davrda ham Registon maydoni uning diqqat etiborini tortganligini o‘zining o‘quvchilariga maroq bilan so‘zlab beradi. Samarqandga tashrif buyurgan sayyohlar soni 2023-yilda 7 milliondan oshganligi ta’kidlangan edi. Bu ko‘rsatgichni 2024-yilda 10 millionga oshirish ko‘zda tutilgan²-deya ta’kidladi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raisi Aziz Abduhakimov.

Tarix shuni ko‘rsatadiki, Ipak yo‘lida joylashgan Samarqand turli dunyo sivilizatsiyalari kesishgan joy, qadimgi shahar bo‘lib, insoniyat tarixining rivojlanishi. Shuning uchun Samarqand dunyoning barcha xalqlariga tegishli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev.Sh. Turizm iqtisodiyotning drayveri. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi.”O‘zbekiston” nashriyoti, T. 2022.
2. Като Кюдзо.” Самарканд глазами японца Ни Си Токужиро”// Самарканд шахрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. Тошкент — Самарканд Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2007.
3. Ismatullayev, F., & Ahmedova, S. (2019). Some problems of the cooperation of Uzbekistan and Italy. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(1), 113-114.
4. Исматуллаев, Ф. О. (2020). Развитие международных связей Узбекистана в области туризма. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (4-8), 139-143.
5. Исматуллаев, Ф. О. (2022). ЕВРОПА ИТТИФОҚИНИНГ МАРКАЗИЙ ОСИЁ БЎЙИЧА ЯНГИ СТРАТЕГИЯСИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1).

¹ Като Кюдзо.” Самарканд глазами японца Ни Си Токужиро”// Самарканд шахрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. Тошкент — Самарканд Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти 2007.Б.384

² <https://ok.ru/sputnikzbek> .

6. ТАЙРОНОВ, Ё. (2021). “ТУРКИСТОН ВИЛОЯТИНИНГ ГАЗЕТИ” МАҲАЛЛИЙ БОЙЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ЁРИТИШДА МУҲИМ МАНБА СИФАТИДА. In *Uzbek Conference Publishing Hub* (Vol. 1, No. 01, pp. 136-139).
7. Ҳасанов, Р., & Тайронов, Ё. (2021). THE ROLE OF LOCAL ENTREPRENEURS IN THE COMPOSITION OF THE NATIONAL PRESS IN TURKESTAN AT THE BEGINNING OF THE XX CENTURY. *Herald pedagogiki. Nauka i Praktika*, 1(1).
8. qizi Juraqulova, F. T. (2024). О ‘ZBEKISTONNING JAXONGA TURIZM MAMLAKATI SIFATIDA OCHILISHI. *GOLDEN BRAIN*, 2(2), 156-161.
9. FO, I. (2024). О ‘ZBEKISTONNING TURIZM SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIGINING AYRIM JIHATLARI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 28), 731-733.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322572>

TEACHING ENGLISH THROUGH PRAGMATIC COMPETENCE

Sa'dullayeva Sabina

Abstract: *Teaching English as a second language (TESL) has evolved significantly over the years, with a growing emphasis on communicative competence. Pragmatic competence, a crucial aspect of communication, has gained attention for its role in enabling learners to use language appropriately in various social contexts. This article explores the importance of pragmatic competence in English language teaching and provides strategies for educators to integrate pragmatic instruction into their pedagogical practices.*

Keywords: *Pragmatic competence, English language teaching, communicative competence, sociolinguistics, language pragmatics.*

Introduction:

In today's interconnected world, English has become the lingua franca of global communication. As a result, the demand for English language proficiency continues to rise, prompting educators to explore innovative approaches to language teaching. One such approach that has garnered attention is teaching English through pragmatic competence. Pragmatic competence refers to the ability to use language appropriately in different social contexts, taking into account factors such as cultural norms, social roles, and situational variables. In this article, we delve into the significance of pragmatic competence in English language teaching and provide practical strategies for educators to enhance their students' pragmatic skills.

Main Body:

Pragmatic competence encompasses the ability to interpret and produce language in contextually appropriate ways. Unlike grammatical competence, which focuses on the mastery of linguistic rules, pragmatic competence deals with the nuances of language use, including speech acts, politeness strategies, and conversational implicature. For English language learners, developing pragmatic competence is essential for effective communication in real-life situations, where cultural and social factors play a significant role.

Pragmatic competence facilitates successful communication by enabling learners to understand and navigate the subtle nuances of language use. Proficiency in

pragmatic skills allows learners to express themselves appropriately in diverse social settings, thereby enhancing their communicative effectiveness. Moreover, pragmatic competence fosters intercultural understanding and empathy, as learners become sensitive to cultural differences in communicative norms and practices.

Strategies for Teaching Pragmatic Competence:

Integrating pragmatic instruction into English language teaching requires a multifaceted approach that incorporates both explicit and implicit learning strategies. Educators can employ various techniques to enhance students' pragmatic competence, including:

- **Explicit instruction:** Teachers can explicitly teach pragmatic conventions, such as speech acts (e.g., requests, apologies) and politeness strategies (e.g., indirect speech).

- **Contextualized activities:** Engaging students in role-plays, simulations, and authentic communicative tasks allows them to practice pragmatic skills in meaningful contexts.

- **Reflective practice:** Encouraging students to reflect on their own communicative experiences and cultural assumptions promotes metapragmatic awareness, enhancing their ability to adapt their language use to different contexts.

- **Corpus-based analysis:** Analyzing authentic language data from corpora enables students to identify patterns of language use and develop strategies for effective communication.

Examples

1. Making Requests:

Imagine a classroom scenario where students are learning how to make requests appropriately in English. The teacher could provide a role-play activity where students take on different social roles (e.g., customer, server) and practice making requests in various contexts (e.g., ordering food in a restaurant, asking for directions). Through this activity, students not only learn the linguistic forms for making requests but also understand the importance of politeness and cultural norms in different situations.

2. Giving and Receiving Feedback:

In a business English class, students may need to learn how to give and receive feedback professionally. The teacher could present case studies or simulations of workplace scenarios where feedback is exchanged, such as performance evaluations or project meetings. Students would practice using appropriate language and strategies for giving constructive feedback while maintaining positive interpersonal relationships.

3. Expressing Gratitude:

Expressing gratitude appropriately is an important aspect of pragmatic competence. In a language class focused on social interactions, students could explore different ways to express gratitude in English, ranging from formal expressions (e.g., "Thank you for your assistance") to informal ones (e.g., "Thanks a lot!"). Through role-plays or dialogue exercises, students learn how cultural factors influence the choice of expressions and the importance of matching the level of formality to the social context.

4. Apologizing:

Teaching learners how to apologize effectively involves understanding cultural norms and social expectations. In a language class, students could analyze real-life apologies from various English-speaking cultures, examining the language used and the underlying politeness strategies. Role-plays or scripted dialogues could then allow students to practice offering apologies in different scenarios, such as apologizing for a mistake at work or apologizing for causing inconvenience in a social setting.

5. Navigating Small Talk:

Small talk is an essential aspect of social interaction, requiring sensitivity to cultural norms and conversational conventions. In an English conversation class, students could engage in activities designed to practice small talk in different settings, such as networking events or social gatherings. Through guided discussions and feedback sessions, students learn how to initiate and sustain conversations, use appropriate topics and language, and interpret nonverbal cues.

These examples illustrate how teaching English through pragmatic competence involves creating opportunities for learners to practice language in contextually rich and culturally relevant situations. By focusing on real-life communication skills, educators can help learners develop the linguistic and socio-pragmatic competence needed to communicate effectively in diverse social contexts.

Conclusion:

In conclusion, pragmatic competence plays a vital role in English language teaching, enabling learners to use language effectively in diverse social contexts. By integrating pragmatic instruction into their pedagogical practices, educators can empower students to become competent and confident communicators. As English continues to serve as a bridge across cultures and societies, fostering pragmatic competence is essential for preparing learners to navigate the complexities of global communication.

In summary, teaching English through pragmatic competence not only enhances language proficiency but also fosters intercultural understanding and communicative effectiveness, equipping learners with the skills they need to succeed in today's interconnected world.

LIST OF USED LITERATURE:

1. Ergashevich S. S. Bio-Social Need To The Study Of Lexical Meaning //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 9. – С. 4771-4777.
2. Шодиев С. Э. Деривационные особенности фразеологических выражений //Бюллетень науки и практики. – 2019. – Т. 5. – №. 9. – С. 512-520.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322624>

O‘ZBEKISTON VA GERMANIYADA TA’LIM TURLARI VA BOSQICHLARINING O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Astonova Go‘zalxon Rahmonaliyevna

FarDU o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston va Germaniyada ta’lim turlari va bosqichlarining o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilish, ularni taqqoslash asosiy maqsad qilib olingan. Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston va Germaniya ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro farqli jihatlari misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *elementar bosqich, boshlang‘ich ta’lim, majburiy bosqich, qo‘shimcha ta’lim, real maktab.*

АННОТАЦИЯ

Основная цель данной научной статьи – проанализировать схожие и разные стороны типов и этапов образования в Узбекистане и Германии, сравнить их. В данной научной статье на примерах анализируются различия между учебными заведениями Узбекистана и Германии.

Ключевые слова: *начальная ступень, начальное образование, обязательная ступень, дополнительное образование, реальная школа.*

ANNOTATION

The main goal of this scientific article is to analyze similar and different aspects of the types and stages of education in Uzbekistan and Germany, and compare them. This scientific article analyzes the differences between educational institutions in Uzbekistan and Germany using examples.

Key words: *primary education, primary education, compulsory education, additional education, real school.*

KIRISH

Ta’lim bosqichlari har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashga moljallangan: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich, umumiy maktab ta’limi va oliy ta’lim bosqichlaridan iborat. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, umumiy maktab ta’limining

o‘zi bir nechta turlarga bo‘linishi bilan o‘zbek maktab ta’limidan farqlanishini kuzatish mumkin.

Nemis maktabgacha ta’lim muassasalari o‘zbek bog‘chalaridan farqli ravishda ta’lim vazirligi tomonidan nazorat qilinmaydi, shu sababli ular uchun tegishli dastur ishlab chiqilmagan. Bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan bevosita qarindoshlar shug‘ullanadi yoki kichkintoylarni rivojlantiruvchi to‘garaklarga yuborishadi.

Maktabgacha ta’lim “Elementar bosqich” – *Elementar stufe* yoki *Frühe Bildung (Frühkindliche Bildung)* deb ataladi. Mazkur bosqich 4 oylikdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Ular 4 oylikdan 3 yoshgacha bolalarga mo‘ljallangan *Kinderkrippe* – yasli bog‘chaga, va 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalar uchun *Kindergarten* deb ataluvchi bog‘chaga yoki *Kindertagesstätten* deb nomlangan ta’lim elementlari bo‘lgan bolalar bog‘chasiga boradilar. Ba’zi shtatlarda maktabga borishi shart bo‘lgan, lekin rivojlanishdagi kechikishlar tufayli orqada qolib ketgan bolalar uchun *Schulkindergärten, Vorklassen, Grundschulförderklassen* va boshqa muassasalar mavjud.

METODOLOGIYA

Umumiy majburiy maktab ta’limi – *Die allgemeine Schulpflicht*, odatda, barcha bolalar uchun olti yoshga to‘lgan yildan boshlanadi va to‘qqiz yillik kunduzgi ta’lim asosida davom etadi. Bolalar bog‘chasidan so‘ng bolalar nemis maktablariga boradilar va “Boshlang‘ich ta’lim” – Primarstufe bosqichiga o‘tadilar. Shu bosqichdan Germaniyada bolalarni maktabga borishni talab qiluvchi qonun amal qila boshlaydi. Shuning uchun Germaniyada maktab ta’limi majburiy va bepul. Ota-onalar va maktab qarshi bo‘lmasa, besh yoshda bolalar birinchi sinfga boradilar. Olti yoshda barcha bolalar maktabga borishi shart. Rivojlanishda kechikishlar yoki boshqa sog‘liq muammolari mavjud bo‘lganda, ularga yana bir yil uyda qolishga ruxsat beriladi. Biroq bir federativ viloyat bilan boshqasi o‘rtasida, xususiy va davlat maktablarida birinchi sinfga qabul qilish qoidalari farq qiladi. Boshlang‘ich maktab *Grundschule* deb ataladi. Unda ta’lim to‘rt yil davom etadi.

Nemis ta’lim tizimidagi bu bosqich barcha bolalar birgalikda o‘qiydigan yagona majburiy bosqichdir. Bu *Grundschule* boshlang‘ich maktabida sodir bo‘ladi. Ko‘pgina shtatlarda bolalar 4-sinfda, Berlin va Brandenburgda 6 yil o‘qiydilar. Boshlang‘ich maktabni tugatgandan so‘ng, ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishda sinfdoshlarning yo‘llari ajralib ketishi mumkin.

NATIJA

Boshlang‘ich maktabni tugatgandan so‘ng, bolalar *Hauptschule, Realschule, Gymnasium* yoki *Gesamtschule*da kabi ta’lim muassasalarida o‘qishni davom

ettiradilar. Bu maktab ta'limining *Sekundarstufe I* (o'rta) va *Sekundarstufe II* (yuqori) bo'g'inlarini tashkil etadi.

Boshlang'ich ta'limni eng sust o'zlashtirgan bolalar qo'shimcha ta'lim olish uchun *Hauptschule* (asosiy maktab)ga yuboriladi va ular besh yil davomida o'qiydilar. Uning asosiy maqsadi kasb-hunarga o'rgatish bo'lib, o'quvchilarni mehnat bozoriga kirishga tayyorlaydi. Bu yerda faqat asosiy fanlar o'rgatiladi. Yuklama haftasiga 30-33 soatni tashkil qiladi. Asosiy maktabni tugatgandan so'ng, bitiruvchi kasbiy ta'lim olishi yoki ishlay boshlashi mumkin.

MUHOKAMA

O'rtachadan yuqori natijalarga erishgan talabalar *Realschule* (real maktab) ga kiradi va olti yil davomida o'qiydi. Bunday maktablar ancha yuqori maqomga ega bo'lib, savdo, xizmat ko'rsatish va davlat xizmat ko'rsatish sohalarida ishlash imkonini beradi. Ushbu turdagi maktab kengroq umumiy o'quv dasturini taqdim etadi va talabalarni oliy kasbiy ta'limga yoki mehnat bozoriga bevosita kirishga tayyorlaydi. O'qishni yakunlash natijasida olingan yuqori ball gimnaziya, keyin esa universitetga kirishni osonlashtiradi. *Realschule* ham boshlang'ich maktabdan keyin boshlanadi va, odatda, 5-sinf dan 10-sinf gacha davom etadi.

Maktabning eng nufuzli turi –*Gymnasium* (gimnaziya), uning diplomi ko'plab universitet fakultetlariga imtihonsiz kirish imkonini beradi. Gimnaziyalar akademik ta'limga qaratilgan bo'lib, turli fanlar, asosan, gumanitar fanlarni o'qitishga ixtisoslashgan. O'n uchinchi sinf o'quvchilari allaqachon abituriyentlar, ular bevosita universitetda o'qishga tayyorlanadilar. Oxirgi sinfning yakunida talabalar asosiy maktab fanlaridan – *Abituro* lish imtihon topshirishadilar.

XULOSA

Yuqoridagi muassasalarning asosiy xususiyatlari *Gesamtschule* (birlashgan, umumlashgan maktab)da birlashtirilgan. Unda o'qish muddati olti yil, ya'ni beshinchi sinfdan o'ninchi sinfgacha. Ba'zi birlashtirilgan maktablar yuqori sinflarni taklif qiladi (o'n birinchidan o'n uchinchi sinfgacha). Ularning tashkil etilishi *Gymnasium* ning yuqori sinflarini eslatadi, lekin bu yerda boshlang'ich maktabdan tavsiyanomaga ega bo'lmagan bolalar ham o'qiyveradi. Bundan tashqari, hamma yerlarda ham bunday maktablar mavjud emas. Integratsiyalashgan maktabning yuqori sinflarini muvaffaqiyatli tugatgan taqdirda, o'quvchiga *Hochschulreife* (o'qish sertifikat) beriladi. Ushbu hujjat universitetga kirish uchun yetarli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гўзалхон Рахмоналиевна Астонова, [Германиядаги таълим боскичлари хақида айрим мулоҳазалар](#), Евразийский журнал академических исследований, 2021/12, Том 1, Номер 9, Страницы 273-277
2. Гўзалхон Рахмоналиевна Астонова, [Германия бошланғич ва ўрта таълимининг ўзига хос жиҳатлари](#), Евразийский журнал академических исследований, 2021/12, Том 1, Номер 9, Страницы 95-98
3. Astonova Guzalkhon Rakhmonalievna, [AN UNUSUAL APPROACH TO FOREIGN LANGUAGE LESSONS](#), O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 2023/3/23, Том 2, Номер 1,7 Страницы 624-628
4. [O ‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA “TA’LIM TIZIMI” KONSEPTUAL SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLAR TAHLILI](#), Go‘zalxon Astonova, 2023, Fergana state university conference, 106-106
5. [O ‘zbek va nemis umumiy o ‘rta ta ‘lim tizimiga oid leksik birliklar](#), Go‘zalxon Astonova, 2023, Fergana state university conference, 108-108
6. Tashpulatova Nafisa Baxtiyarovna (Senior English Language Instructor, University of World Economy and Diplomacy)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322667>

ASSESSMENT FOR LEARNING: DEFINITION, PURPOSE, DISTINCTIVE FEATURES

Tashpulatova Nafisa Baxtiyarovna

Senior English Language Instructor,

University of World Economy and Diplomacy

In this article, an emphasis has been put on defining formative assessment and elaborate readers' understanding of the term. The author highlights the central role of formative assessment to motivate language learners in the teaching and learning process. There is a comparison of formative and summative assessment with a clear example of personal experience. The writer explains how teachers in two distinct cultures approaches to student learning. formative assessment, test, summative assessment, motivate.

Introduction. In recent years, a great emphasis on language assessment has been the main focus of language teachers. Reasonably, it has been a primary issue for decades since its role in the teaching and learning process is central. When assessment is not properly utilized, this can lead to several issues like poor student participation, reduction in student overall performance. There is a strong relationship between assessment and teaching because each depends on another. Teachers' lack of assessment skills may cause little or no connection between assessment and teaching (Malone, 2011). We believe that language teachers need to take assessment training or participate in language assessment conferences so that they understand how teaching and learning can be made easier with the help of assessment.

Formative assessment is an ongoing data gathering process in which information will be predominantly used by teachers to make decisions on students' performance. It is usually associated with diagnostic assessment in which teachers learn about language

learners' weaknesses and strengths. The term *formative assessment* in Uzbek can be translated as *doimiy baholash* or *joriy nazorat*.

Personal experience. During *doimiy baholash*, we mean students are assessed for learning where marking is not primary focus though students are given relatively one tenth of total point for their work. For example, K.Akhmadjonov (2017) taught a problem-solution essay in the classroom and assigned students to do writing tasks at home. The following tasks were accomplished in the classroom and beyond it: First students were taught to structure essay, introduction, body paragraphs and conclusion. Many practical exercises were accomplished to understand aspects (thesis statement, topic sentences, supporting sentences, etc.) of essay. Then, students applied the knowledge to construct their own essay at home. The next lesson, students brought essays to classroom to do peer editing. All students were involved in peer editing activity. To do this, they were provided with an analytic rubric (see Table 1.) which contained assessment criteria that aligned with lesson objectives. The rubric helped students understand their weaknesses and strengths and they could also give constructive feedback to their peers in order to improve their writing. The teacher assessed students formatively for all they had done in the classroom and at home and for this, they were marked with a minimum grade compared to summative grade which accounts for maximum grading.

Comparison of formative and summative assessment. In comparison with summative assessment, formative assessment is considered a low-stake measurement of student achievement because students are more encouraged to learn and be active throughout the teaching and learning process. Summative assessment, on the other hand, is high stake test as the results taken will be necessary for different stakeholders such as administrators, teachers, parents and government. Administrators need results from final examinations in order to evaluate teaching process, students' achievements and they compare statistics with previous years. Parents are eager to know about their children's achievements and progress as well. Interestingly, students also need results to understand their weaknesses so that they can work more on themselves. Mostly importantly, government usually compare students among schools, universities and in this way, they can make further decision on teaching, teachers, curriculum and policy.

Table

Summary writing Sample Rubric (Akhmadjonov&Akmalova, 2020)

Content	Picks out the main points, does not miss key points, does not give every detail	Provides main points with few unnecessary, unimportant details	Mentions only few main points; mostly misses key points; provides detailed information	Does not mention any main points, does not describe what the text is about
Paraphrase	Uses their own words to express the ideas, uses synonyms, different sentence structure	Uses own words, synonyms, different sentences structures but with some inaccuracies	Does not use own words, copies similar sentence structures, or similar words, there is limited amount of own words	Does not attempt to use own words; uses the same words, structures from the original text
Length	A shorter version (one third) of the original text	A bit longer than one third of the original text	It is two thirds of the original text, longer than shorter	Does not attempt to write or the length is almost in the amount with the original text
Organization	Clear structure (introduction, main points and conclusion)	Partly follows the order, confuses parts of the summary	Does not attempt to organize ideas in order, does not finish with conclusion	Does not seem to follow any order; not a summary at all

Assessment and teaching depend on each other as they both are directed to lead language learners to progress and achieve expected outcomes. Teachers can ask some questions to themselves to clarify whether they are in the right path.

- How are we going to achieve our goals?
- Are our assessments properly constructed?
- How do we intend to learn about students’ needs?
- What assessments are students expecting from course objectives?
- Do assessments align with curriculum and learning objectives? (Frank, 2012).

These questions ought to be answered at the beginning of a course design as it will help instructors foresee assessment issues in their classroom.

Testing. Traditionally, testing or a test was considered the only assessment tool and in some teaching contexts, unfortunately, it is the only assessment tool. Many test developers struggle to construct reliable and valid tests. Tests used to function as

information tools that teachers used to learn about students’ achievements, weaknesses and strengths. However, later emphasis moved from testing to alternative assessment tools such as student portfolios, web-based testing (Frank, 2012), checklist, rubrics and others. Proper selection of assessment tools will definitely assist teachers to match students needs and learning strategies. In fact, students vary from being extrovert, introvert to auditory, visual, kinesthetic learners. For auditory learners, for instance, it may work listening tests, visual learners may find tests with some pictures. Fengying (2003) points out that among other factors, modification of assessment methods will motivate students. **Formative assessment practices with teachers’ approach in language classroom in two countries**

China	Uzbekistan
Very demanding language teachers. They do not praise their achievements instead they don’t give up until their students achieve the expected outcomes	Generally, depends on teachers, some demand, others not. it is typical to praise their achievements when their students win and they can be awarded with some financial benefits.
A responsible teacher who stays till night and corrects errors students have. When students’ work is covered with much red, then they are satisfied with their work	Very uncommon to see teachers late in the evening working with students and correcting errors. They usually stand till the end of the lesson, they hurry up to another work.
Students’ outcomes are compared when announced. Students who did not receive higher results, are asked to work harder.	Students usually compare their marks with their peers. Students are encouraged to work harder but it is not typical to motivate them to do so

It is clear that there is a distinct understanding between two cultures in teachers’ approach to student learning, achievement and motivation (see Table 2.). Chinese teachers tend to be more serious, demanding and achievements focused (Fengying, 2003), while Uzbek teachers would love to finish eighty minutes lesson and get on to other tasks, less motivated, and more focus on personal interests rather on students’ accomplishments. But not all teachers tend to possess the

same features, self-sacrificing, student centered and student loving Uzbek teachers are manifold as well.

Conclusion. To sum it up, assessment matters much in teaching and learning environment, since their alignment bring outcomes. The other way around, may result in issues such as student demotivation, inappropriate assessment strategies, and overall poor student performance. Formative assessment will definitely help teachers to establish their teaching environment in the way they wish to have and students will benefit from learning and being in the classroom. Thus, teachers should try to learn assessment skills, apply their knowledge in selecting best alternative assessment tools and this is likely to lead to perfections in teaching and learning.

REFERENCES:

1. Akhmadjonov , K. A. (2023). Students' performance in russian and uzbek-language instruction classes. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(16SPECIAL), 435–437. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5003>
2. Akhmadjonov K. (2017). Critical evaluation and assessment of the written task and assessment literacy. O‘zbekistonda xorijiy tillar. pp. 97 – 103.
3. Malone E.M. (2011). Assessment literacy for language educators. CALdigest, pp. 1 – 2.
4. Frank J. (2012). The roles of assessment in language teaching. *English Teaching Forum*, 3, p. 32.
5. Fengying M. (2003). Motivating students by modifying evaluation methods. *English TeachingForum*, pp. 38 – 41

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322751>

TURKIY ADABIYOTDA ILK ZOHID OBRAZI

Omanboyeva Aziza Doniyor qizi

“Ma'mun Universiteti” NTM

o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

E-mail: omanboyevaaziza1@gmail.com

Annotatsiya: *Tasavvuf ta'limotida shariat bosqichi vakili bo'lmish zohidlar badiiy adabiyotda ham ilk yaratilgan tasavvufiy obrazlardandir. Zohid komillik siridan xabar beruvchi obrazdir. Ushbu maqolada uning tasavvufiy obrazlar orasidagi roli haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Zuhd, zohid, tasavvuf, badiiy adabiyot, mumtoz davr, badiiy obraz, komillik, tariqat.*

Abstract: *Ascetics, who represent the leader of Sharia in Sufism, are one of the first subjects of Sufi literature. The ascetic is an image that tells the secret of perfection. This article talks about his role among mystical images.*

Key words: *Zuhd, zohid, tasavvuf, fiction, classical period, artistic image, komillik, tarikat*

Аннотация: *Отшельники, являющиеся представителями шариатской стадии в суфизме, относятся к числу первых мистических образов, созданных в художественной литературе. Аскет – образ, передающий тайну совершенства. В данной статье говорится о его роли среди мистических образов.*

Ключевые слова: *Аскет, аскетизм, мистика, художественная литература, классический период, художественный образ, совершенство, порядок*

Sharq mumtoz adabiyotida ma'naviy - axloqiy tendensiyaning yuqori ahamiyatga egaligi hech kimga sir emas. Chin adabiyotning maqsadi barcha davrlarda ham insonni mukammallik sari yetaklash, shaxsiyatni ma'nau yuksaltirish, komillik sifatleri ila tarbiyalash bo'lgan. Bugun mumtoz adabiyotni o'rganishga e'tibor har qachongidan ham ustunlik kasb etayotganiga qaramay, badiiy adabiyotdagi obrazlarning asl mohiyatini ochib berish, ular tashigan ma'naviy yukni zamonamiz o'quvchisiga his

qildirish mushkulliklari adabiyotshunoslarning oldida turgan muhim vazifalardan biri. Shunday obrazlardan biri mumtoz adabiyotimizdagi zohid obrazidir. Zohid obrazi haqida istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunosligida bir qator yangi va haqqoniy firka – mulohazalar ilgari surilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin, lekin bu ishlarni zohidlikning to‘liq ma‘naviy qiyofasini ochib berish uchun yetarli bo‘lgan deya olmaymiz. Shu ma‘noda o‘zbek mumtoz adabiyotida zohid obrazining maxsus o‘rganish, davriy nuqtayi nazardan zamona ijodkorlari zuhd va zohidlik masalalariga bo‘lgan qarashlarini tadqiq etish, mumtoz shoirlar asarlaridagi obrazlar tizimini chuqur tahlil etish, ularning ifodalanish tarzlari, tasvir imkoniyatlari, mohiyatiga singib ketgan ma‘rifiy, tasavvufiy qarashlarni o‘rganishda kompleks tadqiqot olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu borada zohid shaxsiyati yoki badiiy adabiyotdagi zohid obrazini tahlil va talqin qilar ekanmiz, turkiy badiiy adabiyotda ilk zohid obrazi qachon tilga olingani haqida savol tug‘ilishi tabiiy.

Ilk zuhdiy qarashlar va zohid obrazi Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (Baxtga eltuvchi bilim) asarida kelganligi adabiyot kishilari uchun ma‘lum. O‘zbek mumtoz adabiyotining eng yorqin namunalaridan hisoblanmish “Qutadg‘u bilig” asari nafaqat adabiyot balki, tarix, falsafa, din, tasavvuf tarixini o‘rganishda ham nihoyatda bebaho manba hisoblaniladi. “Qutadg‘u bilig” asarining qimmatli bo‘lgan jihati shundaki, unda zohid obrazining keng tasvir bilan ifoda qilinishidadir.

Asardagi zohid obrazini – O‘zg‘urmush tamsil etadi. Tasavvuf adabiyotining ilk bosqichi zuhd davri (VII-XI asrlar) hisoblanar ekan¹, ushbu davrlarga nisbatan yaqin yaratilgan Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari ham mavzumiz doirasidadir. “Qutadg‘u bilig” asari esa tom ma‘noda tasavvufdagi zuhd maqomini, zohid obrazini mukammal yoritishda eng maq‘bul manbaa vazifasini bajaradi. Asardagi to‘rt obraz Kuntug‘di, O‘gdulmish, Ozg‘urmish, Oyto‘ldi obrazlari ham asardagi o‘zgacha ramziyliklarni ifodalashga xizmat qiladi. Asar voqealariga diqqat qaratilsa, O‘zg‘urmishning zohidona hayot tarzini tanlaganligini uning qarindoshi O‘gdulmish elig (hukmdorga) bayon etadi. Va hukmdor ham o‘z navbatida uni ko‘rishga xohish bildirib, bir qancha maktublar bitadi, O‘zg‘urmishni saroyga chaqiradi. Ushbu o‘rinda zohidlik va zohidona hayot haqidagi yozuvchining qarashlari ham bayon qilinadi. Elig: “...toat-ibodatni nihoniy qilish kerakligi, uni xalqdan yashirmoq, toat-ibodat talay bo‘lsa ham uni oz deb hisoblash haqida fikr bildiradi.” “Hujjat ul-islom” Abu Homid G‘azzoliy “Kimyoyi saodat” asarining “Uzlat” bobida bu borada tarkidunyochilikning olti zarari va olti foydasi haqida so‘zlaydi:

¹ U. Turar. Tasavvuf tarixi. –T.: “Istiqlol”, 1999. 43-b
Boltabayev H. Islom tasavvufi manbalari. Toshkent. “O‘qituvchi”. 2005
Хаққул И. Навоийга қайтиш (3-китоб). –Т.: Тафаккур, 2016. В-342

- Dunyoni tark etish ilm olmoq va ilm o‘rgatmoqdan mahrum qiladi;
- Xalqdan manfaat olmoq va xalqqa manfaat yetkazmoqdan chetda qoladi;
- Yolg‘iz yashovchi kishi odamlardan yetadigan alam va kamsitishlardan, kulfatlarga sabr qilish azobidan chetda qoladi.
- Xilvatda vasvasa g‘olib bo‘lib dilga futur yetishi mumkin;
- Kasal ko‘rmoq, janozalarda ishtirok etmoq, insonlarni qutlamoq, jamoat namozlarida kishilar bilan namoz o‘qish va shu kabi bir qator savobli amallardan bebahra qolish mumkin;
- Xalqqa aralashmoq, ular haqqini bajo keltirmoq ham tavoze’ jumlasidandir - deydi G‘azzoliy.

Zohid – O‘zg‘urmish asardagi asosiy obrazlardan biri, dostonida nafs tarbiyasidagi solik ruhiyatini tamsil etuvchi shaxs. Albatta, zuhdiy hayot Alloh in’om etgan sabr, qanoat, rizo, tavakkulga asoslanadi va sekin-asta nafs tazkiyasiga yo‘l ochadi. O‘zg‘urmish qanoat va malomat timsolidir. Dostonida zohidlik mohiyati O‘zg‘urmish tilidan shunday izohlanadi:

Menga nom berganlar, bu zohid nomi,
Toat-ibodatning menga in’omi.
Meni nafs, havasdan tiyar bu ot, boq,
Otim-chun havaslar mendan uzoqroq¹

Zohid insonni dunyoning foniyligi va boqiy hayotga tayyorgarlikdan ogoh etadi. “Qutadg‘u bilig” asarida esa zohidlikni ixtiyor etgan O‘zg‘urmush zohidning shunday savobli va Alloh buyurgan ishlardan chetda qolishidan Elig va O‘gdulmush tomonidan ko‘p bora ogohlantiriladi. Elig derki:

Ikki turli kishi – kishi ataladi,
Biri – o‘rgatuvchi, ikkinchisi – o‘rganuvchi.
O‘rgatuvchi yoki o‘rganuvchi inson
Bu zamin-u hayotda tirik bo‘lgan kishidir,
Undan tashqarisi esa yilqi kabidir.

Shu sababdan ham Kuntug‘di O‘zg‘urmushni ilmsiz ibodatdan to‘shiga harakat qiladi va yana aytadi:

Agar shu vaqtga qadar bilmagan bo‘lsang, bilim o‘rgan.
So‘ng toat-ibodatga qo‘l tekkizgin.

Muqaddas kitobimiz Qur’oni Karimda ham ilm olishga da’vat etuvchi oyatlar bir qator: “*(Ey Muhammad) ayting: “Parvardigorim, ilmimni yanada ziyoda qil!”*”² Yoki, “*Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo‘lurmi ?!*”³. “Alloh

¹ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Akademyashr, 2015. – Б. 418

² Toha surasining 114 - oyatida

³ Zumar surasining 9-oyatida:

sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja - martabalarga ko'tarur."¹ Imom G'azzoliy ushbu oyat mazmuni yuzasidan "Ihyoyi ulumud-din" asarida Ibn Abbos (r.a)dan iqtibos keltiradi. Ibn Abbos (r.a) aytadilar: "Olimlarning darajasi ilm olmagan mo'minlarning darajasidan yetti yuz daraja yuqoridir. Har darajaning orasi besh yuz yillik yo'lga teng"². Ilmning sharafi haqida Qur'on suralaridan keyin, hadislarida ham bir qator ishoratlar mavjuddir. Diqqatga sazovar hadislardan birida: "Olimlar payg'ambarlarning vorislaridir", - deyiladi. Demak, ilm har bir muslim va muslima uchun farz ekan, Yusuf Hos Xojib ham asarida zohidlikning boshlanishidan oldin solikda zuhd uchun yetarli bo'lgan ilm bo'lishini aytib o'tadi. Imom G'azzoliy esa "... bilginki, inson farz ilm o'rganmoqdan benasib bo'lsa, go'shanishin bo'lmog'i haromdir".³ Buning boisi esa kishi komil ilm hosil qila olmas ekan ibodatda ham mukammal va g'ururdan holi bo'la olmaydi. Shu bois ham asarda: "...bilim bilan qilingan toat ibodatning najoti tumandir, bilimsiz toat-ibodat qilgan odam najot topmaydi. Bilimsizning toat- ibodat qilishidan ko'ra, uxlovchi bilimning manfaati yuqoridir,"- deya ko'p bora uqtiriladi. Dunyoni tark qilishning ikkinchi zarurati, deya qayd etilgan "xalqqa manfaat yetkazmoq va xalqdan yaxshilik ko'rmoqdan chetda qolish" ham eligning nazaridan chetda qolmaydi va O'zg'urmushga bir qator so'zlarni so'zlaydi:

Bu yoqqa kel, qishloq shaharda toat-ibodat qil,
Hamma ezguliklarga eshik ochilsin.

Hukmdor ham ilm-u aqlda yetuk bo'lganlikdan zohidni el-u yurt bilan birga bo'lishga chorlaydi, boisi elig nazdida, zohid go'shanishinlikda qiladigan ibodati ro'za tutmoq va namoz o'qimoqdir, bularning barchasi esa faqat insonning o'zigagina foyda keltirishi mumkin. Agar xalqqa yaqin kelsa, uning muammolariga to'g'ri yo'l ko'rsatsa, bundan ikki taraf ham foydalanishi mumkin. Shu sababdan ham: "Xalqqa foydang tegsin, munggiga yara Qarindoshlarga yordam ber, yaqinlik ula," - deya unga tanbeh beradi. Bulardan tashqari shohning adolati butun xalqqa bo'lsa, sen eligning yoniga kel ushbu savobli ishga bosh-qosh bo'l, zamona hukmdoriga to'g'ri yo'l ko'rsat, deya uni o'z yoniga chorlaydi.

Bu yerda talay onasizlarni ko'r, yo tul, bevalarni,
Yo ko'zsiz yo shol yoki cho'loqlarni (ularning holidan xabar ol)
Jamoat bilan fariza namozini qil!
Kambag'allar haji bo'lmish juma namozini birgalikda bajar!
Ushbu sanalganlarning barchasi toat-ibodatdir,

¹ Mujodala surasining 11-oyatida

² Ғаззолий. Ихёу улумиддин. – Т.: Тошкент ислом университети. 2014.

³ Imom G'azzoliy "Kimyoyi saodat" "Uzlat" 194-b

-deydi Kuntug‘di. Sen esa bularning barchasini qo‘yib, o‘z namozing va o‘z ro‘zang bilan mashg‘ulsan. Namoz, ro‘zang faqat o‘z manfaating uchundir, o‘z manfaatini istovchi kishi mehirsiz bo‘ladi, -deya uqtiradi:

Xoliqning sevinchini istasang
Xalqning ham sevinchini ista!

kabi bir qator tavsiyalarni beradi. Bu borada Xoja Ahmad Yassaviy hazratlari ham ushbu hikmatlarini bayon etib: G‘arib, faqir, yetimlarni qilg‘il shodmon,

Xulqlar qilib, aziz joning ayla qurbon,
Tu‘ma tobsang, joning bilon qilg‘il mehmon,
Haqdin eshitib, bu so‘zlarni aydim mano.
G‘arib, faqir, yetimlarni har kim so‘ror,
Rozi bo‘lur ul bandadin Parvardigor,
Ey bexabar, san bir sabab, O‘zi asror,
Haq Mustafo pandin eshitib, aydim mano.¹

Tarkidunyochilikning uchinchi zarari deya qayd etilgan yolg‘iz odam tanholikda yashaydi, unga o‘zgalarning odob-axloqidan, muomalasidan hech qanday ziyon-zahmat yetmaydi, insonlar tomonidan tuhmat, alam, kamsitishlar ko‘rib ularga sabr orqali yetadigan savoblardan bebahralikdir deya qaraluvchi O‘gdulmishning O‘zg‘urmushga so‘zlagan so‘zlarida esa odamlar orasida yursang, ulardan yetadigan balolarga sabr qilsang, xususan, tildan keluvchi achchiqliklarga:

Shu kishi erdiki, kishilar orasida yurib,
Tiliga ehtiyot bo‘lsa, to‘rdan joy oladi.
Odamlarning dag‘alliklariga:
O‘zi dag‘al so‘zga yumshoq javob qilsa,
Unga achchiq so‘zlasalar, u shirin so‘z qilsa...

Insonlardan yetadigan jafolarga sabr qilmoq, unga jafo qilsalar, u og‘iz ochmay vafo qilsa, ko‘nglidagi barcha o‘ch va ginalarni chiqarib tashlasa, yaqinlari qon-qarindoshlari undan ko‘ngil uzsa ham u baribir do‘st-u yorlariga adovat saqlamasa ana shu inson Tangrining mukofotiga loyiq bo‘ladi. Ushbu jummalarni xulosalab aytadigan bo‘lsak:

Agar zolim senga zulm qiladigan bo‘lsa,
Sen uni kechirgin, din yo‘li ana shudir.

Yoxud Ahmad Yassaviy aytganlaridek:

Xorliq tortqil, shum nafsingni boshi qotsun,
Qiynab tebgil, bu dunyodin yig‘lab o‘tsun,

¹ Хожа Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар куллиёти. Сулаймон Боқирғоний. Ҳикматлар (Нашрга тайёрловчилар Т.Қораев, А.Бозоров – Т.: 2009 – бет 16

Tufroq bo'lg'il, xalqlar sani bosib o'tsun,
Jonu dilda Hay zikrini ayting, do'stlar!

Shayx G'azzoliy aytadiki, ruhiyati bo'sh bo'lgan insonga yolg'izlik g'olib kelib, vasvasa g'olib bo'lishi mumkin, shuning uchun ham piri murshid tarbiyasini olmay turib chilla o'tirish, yolg'izlikdagi zohidona hayotga kirishmagan ma'qul. Asarda O'gdulmush qarindoshi O'zg'urmishga aytadiki, kishi ko'p mol topsa-yu, undan ko'nglini uza bilsa, mol-dunyo keladigan bo'lsa unga dil bog'lamasa, ketadigan paytida og'rinmasa, ming tuman orzu qilib unga erishsa, erishganlaridan g'ururlanmasa, o'z nafsini jilovlay olsa o'sha kishi zohiddir.

Yuqoridagi fikrlar va misollardan O'zg'urmushni zohidlik uchun ilmda nomukammal yoki xalq manfaatidan qochguvchi deya anglamaslik lozim. O'zg'urmush zuhdning barcha shartlari uchun javob bermoqqa munosib obrazdir. Agar xalqqa aralashmoq savobli bo'lsa uning bilan birgalikda solikka yuzlanishi mumkin bo'lgan balolarni ham sanab beradi. Yuqorida ta'kidlaganimiz "Kimyoyi saodat" asarida uzlatning oltita foydasi haqida ham yozilgan bo'lib, ular quyidagicha:

1. Avvalg'i foydasi - zikr va fikrni farog'at birla qilmoqlikdurki, ibodatning ulug'rog'i Haq subhonahu va taoloning osmon va zamindagi ajoyib va g'aroyib sun'i qudratlarini fikr qilmoq, dunyo va oxiratdagi asrorlarini tanimoqdur. Bu borada O'zg'urmishning ham tajribalari va xulosalari bor:

Nazar solib endi dinimning noqisligini ko'rdim,
Bu yerda men uchun afzallik ko'rindi.
Shu sababdan endi turib bu yerga keldim,
Toki tanholikda Xudo toat ibodatini qilsam deb,
Ko'r, bu arshdan quyi zah yerga qadar
Jumla va barcha birdek Xudoga xojatmanddir.

2. Uzlat sababidan bisyor gunohlardan xalos bo'linur va to'rt gunohdurki, xalqg'a aralashsa undan xalos bo'lolmas:

a) g'iybat qilmoq- dinni halok qilmoqdir;

Kishilardan chetlashgan bo'lsam agar,
Bekorga so'zlayotganim va g'iybat qilayotganim yo'q

b) amri ma'ruf va nahiy munkarki, agar xalqni gunohdan man' qilmasa, osiy va fosiq bo'lur. Agar man qilsa, xusumat paydo bo'lur;

Bu xalq xizmatiga butunlay eshik yopmaguncha
Yaratgan rabbga chin dildan xizmat qilib bo'lmaydi

d) riyo va nifoq odamlarg'a aralashgandan bo'lur;

Xavas va nafs bo'ynini juda qattiq sindirish kerak
So'ng o'zing toat-ibodatdan xalovat topsang bo'lad

e) ba'zi odamlarga aralashmoqdurki, u birla o'tirib hamsuhbat bo'lsa, ani sifati suhbatdoshiga o'zi bilmagan holda ta'sir qilur.

Dunyo senga o'zini juda sevdirib qo'ygani uchun ham
 Barcha ayblarini fazilat kabi ko'rmoqdasan.
 Erkli egam bu dunyoni tunash joyi-
 (ya'ni, qo'nib o'tadigan omonat joy qildi)
 Tunash joyini nega o'rzuz qilasan

3. Hech bir shahar fitna va xusumatdan xoli bo'lmas. Kishi go'shanishin bo'lsa fitna va xusumatdan xoli bo'lur.

4. Xalqning sharridan (yomonligidan) emin bo'lur va xalq orasida bo'lsa, g'iybat va badgumonlikdan va shubhali taomdan xoli bo'lmas.

Nazar solsang dunyo ko'lanka kabidir Izidan borsang qochadi,
 qochsang seni quvadi Yana bu dunyo moli dinga o'chlikdir
 O'yla dunyo dinni yeydi bunga nazar sol

5. Beshinchi foyda ulki, odamlarning tama'sidan va ham odamlar buning ta'masidan xoli bo'lurlar

Xavas va nafs bo'ynini juda qattiq sindirish kerak
 So'ng o'zing toat-ibodatdan xalovat topsang bo'ladi

6. Oltinchi foyda ulki, ahmoq va johillarni ko'rmakdan, tabiatigizga og'irlik va malollik yetadurg'on toifalarning diydoridan xalos bo'lursizlar.

Xudo yorlaqagani bu-qulini siylasa,
 Unga dunyo bermaydi, yo'lini pok qiladi.
 Shu sababdan bu dunyo quti yaxshi emaski,
 U Xudodan uzoqlashtiradi, u din ofatidir.

Ko'rinadiki, zuhd tariqatda barcha amallarning tamaliga o'xshaydi. Zero, nafs mujodalasida dunyoga muhabbat tufayli paydo bo'lgan barcha chirkinliklardan voz kechish zaruratini asosi zohidlik ekani ayon bo'ladi. Haq yo'lga kirgan solik o'zini Qur'oni karim va hadisi sharifga asoslangan zuhdu toat orqali tarbiyalaydi. Tasavvuf shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat nomli to'rt bosqichni bosib o'tadi. Zohidlar shariat bosqichi vakillari sanaladi. Ular necha yillarki, insoniyatga ibrat bo'lishdi. Va bu yo'l xususida, uning maqsad vazifalarini yorituvchi risolalar yaratildi. "Qutadg'u bilig" ham ana shu vazifani o'tovchi bebaho manbadir. Asardagi zohid - O'zg'urmish ham badiiy adabiyotda ilk yaratilgan tasavvufiy obrazlardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haqqul I. Navoiyga qaytish (2-kitob). –T.: “Fan”, 2011.
2. Haqqul I. Navoiyga qaytish (3-kitob). –T.: Tafakkur, 2016.
3. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muxabbat. MAT. 17-tom.–T.: Fan, 1998.
4. Tasavvuf atamalari izoxli lugati «Movarounnahr» - 2015. 97-b
5. Kadir Özköse Zühd ve sūfilerin zühde yükledikleri anlam., Ankara. B-12
6. I.Haqqul. Meros va mohiyat, –T.: “Ma’naviyat”, 2008. 3-b
7. Komilov N “Tasavvuf”.Toshkent.“Movarounnahr”-“O‘zbekiston”2009 27-b
8. Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – T: Adabiyot va san’at, 1991.
9. Haqqul I. Irfon va idrok. –T.: “Ma’naviyat”, 1998
- 10.A. Yassaviy. Hikmatlar. Movarounnahr-Toshkent. 2004. 30-b
- 11.Haqqul I. Tasavvuf va she’riyat. – T: Adabiyot va san’at, 1991. 28-b
- 12.A Omanboyeva. Adabiyotda zuhd maqomi va zohidlikning o‘rni va ahamiyati haqida. Educational Research in Universal Sciences 2 (4),
13. D.Allayarov Talabalarda kechadigan ruhiy tushkunlik holatini muhim jihatlarini o‘rganishning psixologik xususiyatlar “International scientific research conference” Belarus, International scientific-online conference, 2023. – B.43-44
- 14.Cebecioğlu E. Tasavvuf terimlari ve deyimleri sözlüğü. – Ankara: Rahber yayınlari, 1997. 260-b
15. Hujviriy. A. Kashf-ul ma’jub li arbob-ul qulub. Risoladan parcha/ kh- davron. Diniy adabiyotlar. Tasavvuf. Khujviriy.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322829>

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOG KADRLARNING INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Xudayberdiyeva Ozoda Jurabayevna

Namangan viloyati PYMO‘MM Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish
bo‘limi boshlig‘i

Maxmudov Doniyor Yakubovich

Namangan viloyat Pedagoglarini yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
metodik xizmat bo‘limi biologiya fani metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik faoliyatida ta’lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish to‘g‘risida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, metod, boshqarish, bilim, malakasi, axborot, strategiya, taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс становления и развития инновационной педагогической деятельности учителя на сегодняшний день, а также система повышения квалификации руководителей и педагогов, эффективная организация образовательного процесса, эффективное использование наиболее эффективных современных форм, методов и средств обучения и обучения в педагогической деятельности.

Ключевые слова: инновация, управление, знание, навыки, информация, стратегия, развитие, педагог.

Annotation: In this article, the formation and development process of a teacher’s innovative pedagogical activity in today’s world is analyzed. The system of improving the skills of leaders and pedagogical personnel, organizing effective teaching processes, and utilizing the most effective modern forms, methods, and tools of education and upbringing in pedagogical activities are discussed.

Key words: innovation, management, knowledge, skills, information, strategy, development, pedagogue.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6 noyabrdagi ”O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-son Farmonida ”Ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborni yanada oshirish, o‘quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish”masalalari, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-637-son Qonunida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga, ta’lim oluvchilarda bilim, malaka, ko‘nikmalarni, saviyani shakllantirishga va ularning qobiliyatini rivojlantirishga, o‘quv rejalarini va o‘quv dasturlarini joriy etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning innovatsion shakllari va usullari, axborot-kommunikatsiya va kredit modul tizimiga asoslangan o‘qitish texnologiyalarini keng qo‘llash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yilgan¹.

2020 yil 24 iyulda imzolangan “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni esa innovatsion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida innovatsion rivojlanishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta’minlash; ustuvor yo‘nalishlarni belgilash; zarur shartsharoitlar va infratuzilmani yaratish; innovatsion faoliyat sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish; respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish; investitsiyalarni jalb etishga ko‘maklashish; davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish; kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish; xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni belgilab berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab, AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida “ta’lim texnologiyasi” tushunchasi e’tirof etilgan vaqtida paydo bo‘ldi.

Bu esa o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining umumiy va alohida jihatlarini K.Angelovskiy, G.I.Gorskaya, V.A.Kan-Kalik, S.L.Kuzmina, V.A.Slastenin, L.M.Fridman kabi olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari ustida pedagog olimlardan N.Azizxo‘jaeva, J.G‘.Yo‘ldoshev,

¹ O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son)

B.Farberman, U.Nishonaliev, N.Sayidahmedov, M.Ochilovlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. I.SHumpater va N.Kondratevlar “Innovatsiya” tushunchasining ilk va ulkan nazariyachilari hisoblansalar, K.Angelovskiy, V.A Slastenin va V.I.Slobadchikovlar o‘z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar hamda bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar, deb tan olinadilar.

“Innovatsion faoliyat” tushunchasini tahlil qilar ekanmiz: G.A.Mkritichyanning bu haqdagi fikri diqqatga sazovar:–“Pedagogik tajriba-sinov faoliyatining 3 ta asosiy shaklini ajratish mumkin: xususiy tajriba, tajriba-sinov ishi, o‘qituvchining innovatsion faoliyati. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bugunning talablariga javob berish uchun rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi, avvalo, ta’lim tizimida yuz berayotgan muammo va jarayonlarga mos, asoslangan va yetarli darajada ishonchli metodologik bazani tanlashi maqsadga muvofiq.

Muntazam kasbiy mahorati, bilimi, ko‘nikmalarini yangilab borish, yuqori samarali yangi axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish;

Malaka oshirish tizimining asosiy konseptual rivojlanishi yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish usullari bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish zarurati mavjud.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonini ilg‘or xorij tajribasi (Singapur, Germaniya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Yaponiya) asosida takomillashtirish, kasbiy faoliyatda zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarning hayot davomida egallanishini qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

XXI asr ko‘nikmalari hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlarida ta’lim maqsadlari sifatida mustahkam o‘rnashgan, ammo ularning o‘qitish va baholash amaliyotida amalda qo‘llanilishi ortda qolmoqda. To‘g‘ri javob berishdan ko‘ra, qanday qilib javob olishni birinchi o‘ringa qo‘yadigan ushbu o‘quv maqsadlari ta’lim tizimlari oldiga yangi muammolarni qo‘ymoqda va bunga yangi yechimlar izlanmoqda.

Bu esa pedagogik mahoratini takomallashtirish uchun o'qituvchi jahon va milliy miqyosdagi zamonaviy o'qitish metodlari haqida xabardor bo'lishi hamda o'z ustida ishlashi darkor. Darhaqiqat, o'qituvchilik kasbida chuqur bilimdonlik, zukkolik o'z kasb mahoratini muntazam shakllantirib borishga ishtiyoq bo'lmas ekan, u yaxshi ustoz-o'qituvchi bo'la olmaydi. Hozirgi zamon o'qituvchisi o'z mutaxassisligiga oid bilimlar bilan birga, pedagogik va psixologik bilimlarni, hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarini egallagan, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda o'qituvchilardan quyidagi burch va mas'uliyatlar talab qilinadi;

- o'qituvchi tabiatan bolalarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak;

- jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim;

- zamonaviy ilm-fan, texnika va axborot-kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lishi;

- o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi;

- pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi;

- kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi;

- pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi shart.

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. SHu sababli "novatsiyava", "innovatsiya" tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi. I.P.Podlasiy pedagogik tizimda innovatsion o'zgarishlarning yo'nalishlarini o'rganish asosida quyidagilarni belgilab beradi: - Pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi.

- O‘quv jarayonining o‘zgarishi;
- Pedagogik nazariyaning o‘zgarishi;
- O‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi;
- O‘quvchi faoliyatining yangilanishi;
- Pedagogik texnologiyaning o‘zgarishi;
- Mazmunning yangilanishi;
- SHakl, usul va ta’lim vositalarining o‘zgarishi;
- Boshqaruvning o‘zgarishi;
- Maqsad va natijaning o‘zgarishi.

Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham muallif tomonidan qayd etilgan.

Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo‘ldi. Innovatsion faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir.¹

“Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir”, - deb ta’kidlaydi V.I.Slobadchikov.

Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimi bo‘lib, u ma’lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo‘lishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

Ta’lim jaryonlarini rivojlantirish bilan birgalikda xozirgi kun talablari oldida turgan dolzarb masala – kelgusidagi kasb egalarini, shu jumladan, bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash, intellektual jihatdan rivojlantirishda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat barkamol shaxsgina o‘zining intellektual, ma’naviy imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu ma’noda mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, bo‘lajak mutaxassislarning innovatsion faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, uning istiqbol strategiyasini aniqlash imkonini beradi.

¹ Jumaniyozova Muhayyo Tojievna O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2023

XULOSALAR.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ta'limning globallasuvi sharoitida o'qituvchilar faoliyatini zamon talablariga moslashtirish, ular o'rtasida raqobatga asoslangan mehnat muhitini vujudga keltirish uchun o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash dolzarb hisoblanadi va ta'lim islohotlari muvaffaqiyatini ochuvchi kalit vazifasini bajaradi.

O'quv faoliyatida foydalaniladigan o'quv-metodik manbalar, o'qituvchilar uchun chop etilgan qo'llanmalar mazmuniga innovatsiya, innovatsion faoliyatni tashkil etishga oid bilimlarni, innovatsion ta'lim elementlarini singdirish lozim.

Malaka oshirishning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash maqsadida o'qituvchilarning maktab sharoitida, o'z ustida mustaqil malaka oshirishlarini ta'minlash uchun mustaqil malaka oshirish dasturi va loyihasini to'la amaliyotga tatbiq etish hamda bu dasturlarning bajarilishiga erishish lozim.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son)
2. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021. -464 b.
3. Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari. Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2023
4. Umumiy pedagogika. R. A. Mavlonova, N .H .Rahmonqulova, v.b - T.: "Fan va texnologiya", 2018, 528 bet.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11322888>

HARBIY PEDAGOGLARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Usmanov Xakimjon Xusanovich

Podpolkovnik, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Akademiyasi tinglovchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning o'quv jarayonida kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun real hayotda va kasbiy amaliyotda asosiy kompetentligini qo'llash qobiliyatiga ega bo'ladigan oliy harbiy ta'lim myassasalari professor-o'qituvchilari tarkibini va ularning malakasini oshirish imkoniyatlaridan keng foydalanish to'g'risida so'z boradi. Shuningdek, o'quv jarayonida kompetentli yondashuv, harbiy xizmatchilarning kasbiy va boshqa shaxsiy sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar, ularning intellektual salohiyati va jangovar qobiliyatlarini oshirish imkonini haqida ham fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** harbiy metodlar, kompetentli yondashuv, pedagogik vazifa, kasbiy faoliyat modeli, pedagogik qobiliyat, harbiy san'at, kompetentlik turlari*

Bugungi kunda Dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida harbiy pedagog kadrlarning innovatsion va menejerlik salohiyatini oshirishga qaratilgan turli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Harbiy pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, harbiy pedagoglarning kasbiy kompetentligini ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z harbiy pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning kreativ texnologiyalarini ishlab chiqish, onlayn o'quv dasturlari yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Mamlakatimizda harbiy ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish, harbiy pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

So'nggi yillarda harbiy pedagoglarning kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev "Biz yashayotgan bugungi zamon hech qachon bir joyda to'xtab turmasligini barchamiz o'zimizga doimo yaxshi tasavvur qilganmiz va tasavvur

qilamiz. Hozirgi kunda jahon miqyosida vaziyat qanday tez o'zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol tobora keskin tus olayotgani, turli qarama-qarshiliklar, mojaro va qon to'kishlar kuchayib, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi ortib borayotgani, yaqin yon-atrofimizda davom etayotgan harbiy to'qnashuvlar bizda chuqur tashvish va xavotir tuyg'usini uyg'otmasdan qolmaydi, albatta. Yuzaga kelayotgan ana shunday murakkab va oqibatini oldindan aytib bo'lmaydigan vaziyat barchamizdan yuqori darajadagi ogohlikni saqlash va doimiy tayyorgarlik holatida bo'lishni, milliy armiyamizni yanada isloh etishga qaratilgan e'tiborni kuchaytirishni, uni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlash, qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi samarasini oshirishni, bir so'z bilan aytganda, Qurolli Kuchlarimizning salohiyati va jangovar qobiliyatini har tomonlama mustahkamlashni talab etadi" deya ta'kidlagan. Qurolli Kuchlarimiz oldida eng mas'uliyatli vazifa, ya'ni, eng ulug' ne'mat – Vatan mustaqilligi, uning tinchligini xalqaro terrorizm va ekstremizm balosidan himoya qilish vazifasi turibdi.

Shu nuqtai nazardan, davlat barqarorligiga qarshi qaratilgan tahdidlarning mavjudligini inobatga olsak, harbiy xizmatchi ularning salbiy mohiyatini tushunib yetadigan, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, o'z burchi va qasamyodiga sodiq qoladigan, xizmat manfaatini shaxsiy manfaatdan doimo ustun qo'yib, zimmasidagi vazifani bajaradigan kompetent shaxs bo'lishi lozim. Bu borada harbiy xizmatchilardan doimo o'z ustilarida tinmay ishlashlari, jismoniy, ruhiy va kasbiy jihatdan tayyorgarliklari yuqori darajada bo'lishiga erishishlari talab etiladi. Bu esa o'z navbatida Qurolli Kuchlarimiz safida harbiy xizmat o'tayotgan har bir harbiy xizmatchida, ayniqsa ofitserlar va serjantlarda kasbiy kompetentlikni tarbiyalash masalasi dolzarb ekanligiga urg'u beradi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligi o'z faoliyatlarining barcha yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Shu bois, bugungi kunda ofitserlar va serjantlarda kasbiy kompetentlikni tarbiyalashning barcha komponentlari, tamoyillari, mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi. Zero, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash deganda, avvalam bor chuqur bilim va yuksak intellektual salohiyat, o'z harbiy burchini bajarishda qat'iy iroda va puxta tayyorgarlik sifatlarini shakllantirish nazarda tutiladi. Shu o'rinda o'zi kompetentlik nima? Harbiy xizmatchi uni o'zida qanday shakllantiradi? Degan savol vujudga kelishi tabiiy.

Kompetentlik – shaxsning myayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, malaka va ko'nikmalari hamda shakllangan shaxsiy xislatlarini mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bilim, ko'nikma, malaka tushunchalaridan ko'ra kengroq

ma'noni anglatadi. Chunki, ular shaxsning fikrlash qobiliyati, xarakteri, ziyrakligi, dunyoqarashi, umuman irodaviy sifatlarini qamrab oladi.

Bugungi kunda kompetentlik tushunchalari va ularning tarkibiga kiruvchi muhim komponentlar mazmunini aniqlash, shuningdek, ularni faoliyatning turli sohalarda shakllantirish hamda rivojlantirish myammolari bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu ularni tasniflashni yuzaga keltiradi.

Jumladan, quyidagi kompetentlik turlari mavjud:

- o'zini tutish (individyal) kompetentligi;
- texnik (professional) kompetentlik;
- umumiy kompetentlik;
- maxsus kompetentlik;
- boshlang'ich kompetentlik;
- ijrochilik kompetentligi;
- differensial kompetentlik

Kompetentlikni bilim, ko'nikma va malakalarga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Kompetentlik bilim, ko'nikma va malaka tushunchalariga nisbatan kengroq ma'noga ega. Kompetentlik ta'lim natijasi sifatida ularni o'z ichiga oladi, lekin kompetentlikni bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi sifatida tushunmaslik kerak. Kompetentlik harbiy xizmatchilarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishi bilan ifodalanadi.

Hozirgi vaqtda ofitserlar va serjantlarning eng muhim vazifalaridan biri askarlar va kursantlarning kasbiy kompetentliklarini barqarorlashtirish, rivojlantirish va bosqichma-bosqich shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Jumladan, harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash pedagogik ko'nikmalar orqali ham namoyon bo'lishi mumkin, hususan, harbiy xizmatchilarning pedagogik ko'nikmasi, pedagogik fikrlashi va ularni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq jihatlarning mosligini anglatadi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, harbiy xizmatchilarning ta'limi jarayoni ta'lim beruvchi (komandir, boshliq, o'qituvchi, instruktor)ning o'qitish, saboq berish va ta'lim oluvchilarning o'qish, o'rganish bo'yicha maqsadli, tizimli va hamkorlikdagi faoliyatidir. Bu jarayonda ta'lim beruvchi rahbar funksiyasini bajaradi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, barchamizga ma'lum harbiy xizmatchilar jangovor, vatanparvar ruhda tarbiyalanishi bilan birgalikda yuqorida ko'rib chiqqanimiz o'zida bir qancha kasbga oid va shuningdek, mutlaqo vazifasiga oid bo'lmagan masalarni ham hal qila olish, ularga to'g'ri yechim topish qobiliyatiga ham ega bo'lishi darkor. Quyida harbiy

xizmatchilar kasbiy faoliyati davomida quyidagilarni uddalay olishlari lozim bo‘gan ishlar haqida tanishib chiqamiz:

o‘z professional, nazariy va amaliy bilimlarini uzluksiz oshirib borishi, o‘zining dunyoqarashi, bilim va tajribasini doimiy ravishda kengaytirish, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga intilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi axborotlarni olish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish;

xizmat burchini bajarishga vijdonan yondashish, vatanga sidqidildan xizmat qilish, moddiy va ma‘naviy boyliklarimizni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

yuksak kasbiy malaka va ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lish, sezgirlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, hamda bilish bilan bog‘liq intellektual salohiyatni rivojlantirish;

har tomonlama keng bilim va yuksak professional mahoratga ega harbiy xizmatchi bo‘lish, favqulodda va keskin sharoitlarda o‘zi mustaqil ravishda nostandart qarorlar qabul qila olish;

harbiy san‘atni o‘rganish, o‘z kasbiy bilimdonliklarini doimiy tarzda oshirib borish, ya‘ni mustaqil tarzda harbiy qurilish, harbiy taktika va strategiyaga, harbiy boshqaruv va kasb odobiga oid ilmiy adabiyot va ommaviy nashrlardan foydalanish;

xizmat munosabatlarida hushmyomalalikka amal qilib, Umumharbiy nizomlar doirasida harbiy burch va majburiyatlarni bajarish, jamoat joylarida o‘zini munosib tutish, shaxsiy xulq-atvorni nazorat qilib borish;

xorijiy tillarni o‘zlashtirish, xorijiy tilda turli janrdagi (teleko‘rsatuv, radio eshittirish, e‘lonlar, yangiliklar va h.k.) audio va video matnlarni eshitib, asosiy ma‘nosini tushunib muhokama qila olish, har qanday og‘zaki nutqni tinglab tushunish;

ruhan va jismonan tetik, bardam, hushyor, doimo ogoh bo‘lish, irodasini chiniqtirib borish, og‘ir damlarda sabr-bardoshli bo‘lish, xizmat va kasb sirlarini saqlash;

kasbiy faoliyatda juda ko‘p uchraydigan nostandart vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga, shuningdek, butun kasbiy faoliyat jarayon va hodisalarini tahlil qilishga imkon beruvchi fikr doiralarini kengaytirish.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi

xususiyat sifatida qo'llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim **E.F.Zeyer** kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatleri bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi. Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o'zini-o'zi anglash, o'z kuchiga ishonish, o'zga insonlar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni to'g'ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi.

Umuman olganda, kasbiy kompetentlikni shakllanishini kuzatish, nafaqat kasbiy kompetentlikning shakllanish darajalari to'g'risida ma'lumot berish bilan birga, tashkiliy-didaktik modelni amalga oshirishning har bir bosqichidagi qiyinchiliklar mohiyatini aniqlashga, andragogik ta'lim dasturining o'quv mazmunini tuzatishga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida harbiy pedagogning ta'lim ehtiyojlarini rag'batlantiruvchi refleksiya uchun asos bo'ladi. "Kasbiy kompetentlik" tushunchasini ta'riflash bizga shu haqida xulosa chiqarish imkonini beradiki, bunga ko'ra u ta'lim oluvchi shaxsining kasbiy tarbiyalanishi va kasbiy kompetentligining shakllanishining asosi hisoblanadi, chunki u kasbiy fikrlashning rivojlanishiga yordam beradi va samarali kasbiy faoliyatning sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020- yil 23- sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 5- iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori Toshkent.-2018.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 4- avgustdagi PQ-3898-son//Qarori "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish" Toshkent.-2018.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktabrdagi PQ-5847-sonli\Qarori “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” Toshkent.-2019.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 27- fevraldagi PQ-4623-sonli\Qarori “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” Toshkent.-2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 2- martdagi PF-5953-sonli “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi\Farmoni. Toshkent.-2020.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 23- fevraldagi 140-sonli\Qarori “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Toshkent.-2018.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11323017>

**KAFEDRA ISH FAOLIYATINI BOSHQARISHDA KAFEDRA
PROFESSOR-O‘QITUVCHILARINI TA‘LIM BERISH SIFATINI
BAHOLASHDA VA ULARNING REYTINGINI SHAKLLANTIRISH
UCHUN TELEGRAM BOT BILAN INTEGRATSIYALASHGAN
AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH**

Abdurazzoqov Qosimjon Botirjon o‘g‘li
O‘zMU magistranti

Annotatsiya: В данной статье рассказывается о разработке информационной системы, интегрированной с системой Telegram-бот HEMIS для объективной оценки учебных процессов профессорско-преподавательского состава в трудовой деятельности кафедры. Представлены личные комментарии автора об удобстве Telegram-бота и его важности для облегчения работы отдела. Приведенные примеры поясняются фактами.

Kalit so‘zlar: bot, messenjer, murojaat, katalog, resurs, avtomatlashtirish.

Abstract: This article talks about the development of an information system integrated with the Telegram bot HEMIS system for the objective evaluation of the teaching processes of professors in the work activity of the department. The author’s personal comments about the convenience of the Telegram bot and its importance in facilitating the work of the department are presented. The given examples are explained with evidence.

Keywords: bot, messenger, referral, directory, resource, automation.

Аннотация: В данной статье говорится о разработке информационной системы, интегрированной с телеграмм-ботом, для объективной оценки учебных процессов профессоров и преподавателей в трудовой деятельности кафедры. Представлены личные комментарии автора об удобстве Telegram-бота и его важности для облегчения работы отдела. Приведенные примеры поясняются фактами.

Ключевые слова: бот, мессенджер, реферал, каталог, ресурс, автоматизация.

Telegram Bot - mashhur Telegram xabar almashish platformasida foydalanuvchilar bilan muloqot qilish uchun mo'ljallangan chatbot turi. Bu inson suhbatini simulyatsiya qilish va foydalanuvchi so'rovlariga avtomatlashtirilgan javoblarni taqdim etish uchun mo'ljallangan kompyuter dasturi. Telegram botlaridan kafedra faoliyatiga turli yo'llar bilan yordam berish uchun foydalanish mumkin. Misol uchun, ular savollarga javob berish va qo'llab-quvvatlash kabi professor-o'qituvchilar va murojaatchilarga xizmat ko'rsatish uchun ishlatilishi mumkin. Ular, shuningdek kafedradagi o'qituvchilarni dars o'tish jarayonini holisona baholab, talabalar orqali o'qituvchilar darsga qande tayorgarlik ko'rishi dars o'tish jarayoni haqidagi so'rovni tasdiqlaydi yoki faoliyat yangilanishlari kabi bildirishnomalarni yuborish uchun ham ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, ular faoliyat tavsifi yoki topshiriq haqidagi ma'lumot kabi ma'lumotlarni taqdim etish uchun ishlatilishi mumkin.

- Ish taqsimotini osonlashtirish
- to'lovlarni qabul qilish
- savollarga javob berish
- mijozlar bilan aloqa tezligi
- shikoyat va takliflarni qabul qilish
- xizmat turingiz yoki mahsulotingiz haqida avtomatik ma'lumot

Telegram bot biznes va ta'lim maqsadlarida foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Ushbu texnologiya ta'lim muassasalari va korxonalariga o'z faoliyatini soddalashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga yordam beradigan qator imtiyozlarni taqdim etadi. Telegram botdan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u faoliyatni tizimlashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ko'plab vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin. Telegram botdan foydalangan holda, ta'lim muassasalari va korxonalar mijozlar so'rovlariga tezda javob berishlari, mahsulot ma'lumotlarini taqdim etishlari va hatto buyurtmalarni qayta ishlashlari mumkin. Bu mijozlarga xizmat ko'rsatish vazifalariga sarflangan vaqtni qisqartirishga yordam beradi, faoliyatning boshqa sohalari uchun resurslarni bo'shatadi.

Telegram bot ta'limda faoliyat turlarini soddalashtirish, boshqaruvni osonlashtirish va samarali ish faoliyatini ta'minlab berishda qator qulaylik hamda qator imkoniyatlar yaratadi. Ular quyidagilar:

1. Vaqtni va ortiqcha harajatlarni tejash

Bot siz uchun barcha muntazam ishlarni bajaradi va xodimlarning murojaatlari va ish faoliyatini osonlashtiradi. Natijada siz so'rovlarni tez va oson qabul qilasiz. Bundan tashqari kafedra professor-o'qituvchilarining dars yuklamalarini taqsimlashda, soatlari bo'lishda ham telegra botdan foydalanish mumkin.

2. Messenjerlar auditoriyasini oshirish

Messenjerlar orqali kafedraga kelib tushuvchi so'rovlarga javob berish qulaylashadi, robotning o'zi barcha savollarga javob beradi. Natijada ish samaradorligi yanada ortadi.

3. Oddiy foydalanish imkoniyati

Kafedra a'zolari uchun Bot mutlaqo tushunarli, boshqarish oson va funktsionaldir. Foydalanuvchi o'zi qidirayotgan narsani darhol topadi. Ya'ni botda berilgan bandlar foydalanuvchi professor o'qituvchiga maksimal darajada qulaylik yaratadi. Uni ortiqcha yugur-yugurlardan xalos etadi.

4. Telegram bot kafedra mudiri va professor-o'qituvchilar uchun har tomonlama qulaylik yaratib beradi.

- Chat botlar
- Kataloglar
- Ta'lim uchun botlar
- Ma'lumot yig'uvchi bot
- O'quv markazlari uchun
- Faoliyatni avtomatlashtirish
- Kafedralar uchun saqlash tizimi
- Talabalar uchun online tashxis qo'yish uchun botlar.

Misol qilib oladigon bo'lsak kafedra mudiri uning qo'l ostidagi o'qituvchilarning darslarni qay tarzda o'tishi haqida malumotlar olishi ularni boshqarishni osonlashtiradi. Botda dars jadvallari reyting natijalar haqida malumotlar olish mumkin. Talabalarga so'rovlar kelib o'qituvchilarni dars o'tish jarayonlarini baholagandan so'ng o'qituvchilarni reytinglari universitet, fakultet miqyosida aniqlanib boriladi. bu telegram botning afzaliklari talabalarning bilim konikmalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kim David. Fundamentals of Information Systems Security. -USA, 2014. - p.544.
2. Mark Stump. Information Security: principles and practice. -2 nd ed. -USA, 2011. -p.608.
3. Акбаров Д.Е. Ахборот хавфсизлигини таъминлашнинг криптографик усуллари ва уларнинг қўлланилиши. -Т.: Ўзбекистон маркаси, 2009. -432 б.
4. Пардаев А.Х. ва бошқалар. Ахборот хавфсизлиги: муаммо ва ечимлар. - Т.:Ёзувчи, 2004.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11323055>

XALQ HUNARMANDCHILIGIDA GILAMDO‘ZLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Mallayev Dilmurot Tursunmurodvich

TerDU Jahon tarixi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Gilamchilikning an’anaviy xususiyatlari, Gilamchilikning asosiy xomashyosi haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Merinos juni, Tuya juni, Paxta tolasi, Kanop tolasi, Ipak tolasi*

Abstract: *Traditional features of carpet making, information about the main raw materials of carpet making.*

Key words: *Merino wool, Camel wool, Cotton fiber, Hemp fiber, Silk fiber*

San’at inson mehnati, aql-idroki, shuuri bilan yaratilib, har bir san’at asarida shaxsning o‘ziga xos iste’dodi namoyon bo‘ladi. U keng ma’noda badiiy qadriyatlar, ularni yaratish va iste’mol jarayonlarini ham qamrab oladi va hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanib kelgan. Gilamdo‘zlik va kigizdo‘zlik xalq hunarmandchiligining qadim turlaridan hisoblanib, yarim ko‘chmanchi (chorvachilik) tarzda hayot kechiruvchi qabilalarning asosiy mashg‘uloti bo‘lgan. Gilamni qo‘lda to‘qish murakkab jarayon sanaladi, tajribali usta gilam to‘qishni yoshlikdan o‘rgana borib, 16-17 yilda haqiqiy usta bo‘lib yetishgan. 7-9 yoshdagi qizlar dastlab charxda ip yigirishni o‘rganib, 11-14 yoshida gilam to‘qishni boshlashgan va bu yoshda hali bo‘yoq ishlarida qatnashmagan. Bu hunar turi bilan asosan ayollar shug‘ullangan.

O‘zbekistonda ham gilamdo‘zlik va kigizdo‘zlik yarim ko‘chmanchi (chorvadorlik) tarzda hayot kechiruvchi yung mahsulot (asosan qo‘y va tuya)lariga juda boy mahalliy aholining asosiy mashg‘uloti bo‘lgan. XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoda shu jumladan, O‘zbekiston hududida gilam to‘qish san’ati juda rivojlangan. XIV asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda gilam to‘qish san’ati yanada rivojlanib, turli xorijiy mamlakatlardan kelgan ustalar gilam to‘qish ustaxonalarida ishlaganlar. Bu davrda X-XIII asrlarda shakllangan naqsh uslubi yanada taraqqiy etgan. Mo‘g‘ullardan oldingi davrlarda turkiy qabilasi bo‘lmish o‘g‘uzlarning gilamchilik buyumlari dong chiqargan. Temuriylar davrida eroniy va turkiy an’anaga uyg‘unlashtirilgan

gilamdoʻzlik hamda XVI asrdan boshlab Movarounnahrda dashti qipchoq oʻzbek qabilalarining gilamdoʻzlik buyumlari keng tarqalgan. Jun va paxta xomashyosidan toʻqilgan shohona gilamlar XVIII XIX asrlarda oddiy xalq orasida ham keng tarqalgan. XVIII asrdagi murakkab tarixiy sharoitlarda amaliy sanʼat juda sekin rivojlandi, biroq u oʻzining asosiy hayotiylik mazmunini va ipak matolar ishlab chiqarish, gilamchilik, zargarlik, kulolchilik, charm, tosh, yogʻoch hamda metallga badiiy ishlov berish kabi barcha turlarini saqlab qoldi.

Qadimgi anʼanaviy xususiyatlar ham saqlandi. Andijon, Samarqand, Buxoro, Margʻilon, Xiva, Toshkent toʻqimachilik markazlarida gulsiz va murakkab gulli ip, jun matolar, gilamlar tayyorlangan. XIX asrning oxirigacha gilam toʻqish sanʼatida oʻsimliklardan tayyorlangan boʻyoqlar ishlatilgan, keyin esa anilin boʻyoqlaridan foydalanila boshlandi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida xalq amaliy sanʼati taraqqiyoti juda murakkab kechdi. Unda yangi uslubiy belgilar yangi obrazlar yechimlari kuzatildi. Bu davrda tukli gilam buyumlar va anʼanaviy handasiy gulli paloslar ishlab chiqarildi. Ilk bor portretli gilamni usta Gʻ.Abdullayev yaratdi. XX asrning 60-70-yillari oxirida gilamchilik va palos toʻqish, kigizchilik rivojlandi. Oʻzbekistonning turli tumanlarida gilamchilik korxonalarini tuzildi, avvallari xonadonlarda ishlab chiqarish bilan chegaralangan gilamchilikning mahalliy anʼanalari va toʻquvchilarning mahorati keng omma mulkiga aylandi. Samarqand viloyatida uzun tukli ajoyib julxirslar tayyorlandi. Ularning guli va ranglari qizil, jigar rangdan quyruq va toʻyingan toʻq qizil ranglargacha cheksiz turlandi, turli xil handasiy gulli (arabi, gajari, terma va boshqa) paloslar yorqin kontrast ranglarni uygʻunlashtirib toʻqildi. Gilam ustida ishlagan rassomlar XIX asrning birinchi yarmida yuksalgan Xorazm amaliy bezagi va mahobatli sanʼati anʼanalariga tayandilar. Xorazmda gilam toʻqish bilan turkman va qoraqalpoqlar shugʻullangan.

Gilamchilikning asosiy xomashyosi tabiiy jun, ipak va paxta tolasi hisoblanadi. Jun tolalarining eng afzali tolasi ipakka oʻxshash, yupqa, uzun va elastik boʻlgan angor, merinos, tuya junlari va moxer junlaridir. Merinos juni – merinos qoʻyining ingichka mayin juni. Avstraliya merinos qoʻylarining juni bunday junlarning eng yaxshisi hisoblanadi. Merinos juni ingichka, mayin, tivit tolali, uzunligi 6-8 sm boʻladi.

Tuya junining yumshoq yoki dagʻal boʻlishi uning yoshiga bogʻliq. Junning och jigarrangdan toʻq jigarrangacha boʻlgan tabiiy chiroyli rangi bu junni boʻyamasdan ishlatish imkonini beradi.

Paxta tolasi toʻqimachilikning muhim xomashyosi hisoblanadi. Gilamchilikda paxta tolasi tukli gilamlarda asos ipi (erish) vazifasini bajaradi. Markaziy Osiyoda qattiq tuksiz gilamlarni toʻqishda paxta tolasidan keng foydalanilgan. Qimmatbaho gilamlar toʻqishda paxta tolasidan juda kam foydalanilgan.

Kanop tolasi – kanop o‘simligi poyasidan olinadigan uzun tola. Ingichka, mayin va pishiq, nam tortish xususiyati yuqori. Kanop o‘simligi O‘zbekistonda ham ekilgani uchun mahalliy xomashyo hisoblanadi. Undan asosan, qoplik gazlama, o‘rov materiallari, brezent, kanop ip (arqon), gilam to‘qishda ishlatiladigan arqoq ipi olinadi.

Ipak tolasi – qimmatbaho to‘qimachilik xomashyosi. Ipakdan dekorativ xususiyatlari, yaltiroqligi va oppoq tusligi uchun ham foydalaniladi. Hech bir jun turi ipak tolasi kabi yaltiroqlik xususiyatiga ega emas (hatto angor echkilari, ingliz uzun junli qo‘ylari, yosh qorako‘l qo‘zi juni ham). Ipak tolalar (shoyi) serosin bilan pillani ushlab turish uchun ipak qurti ajratuvchi protein yelim qoplanganligi uchun shoyi ipakdan ko‘ra otning yoliga o‘xshaydi. Shoyini yelimplash va yuvish uning rangini ochadi hamda yumshoqroq, yaltiroq holga keltiradi.

Shoyini yelimplash uchun cho‘lda uchrovchi qirq bo‘g‘im o‘simligini yondirib, ishqor deb nomlanuvchi kuli olinadi. Ushbu kulni issiq suvga aralashtiriladi va ishqor suvda chayiladi. Shundan so‘ng qirg‘ichdan o‘tkazilgan xo‘jalik sovuni aralashtirilgan bochkada qaynab turgan suvga solinadi va yuviladi. Shoyi bo‘yalgunga qadar yana bir jarayon mavjud, bu ham bo‘lsa singdirishdir (mordanting). Mordant (singdirish) so‘zi lotincha «tishlash» so‘zidan olingan bo‘lib, bu jarayon ranglarga shoyi ichiga kirib yaxshi joylashishga yordam beradi. Ushbu jarayonda mineral tuz achchiqtoshdan foydalaniladi. Shoyi o‘ramlari issiq achchiqtoshli suvga solinadi va bir kecha shu ishqor suvda qoldiriladi. To‘qish uchun dastlab jun, ipak va paxta tolalaridan ip yigiriladi. Iplarni asosan qo‘lda, urchuq vositasida, sanoatda esa maxsus ip yigirish stanogida yigiriladi. Yigirish – jun, ipak, paxta va kimyoviy tolalardan har xil yo‘g‘onlikka hamda turli fizikaviy xossalarga ega bo‘lgan iplar tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Qo‘lda yigirish so‘nggi neolit davridan ma‘lum. Paxta tolasidan ip yigirish dastlab Hindistonda boshlab bergan. Markaziy Osiyoda paxtadan ip yigirib gazlama to‘qish milod boshidayoq rasm bo‘lgan. Qo‘lda yigirishning eng oddiy usuli barmoqlar yordamida tolalardan pilik tayyorlab, uni osilgan holatda ushlab, kaftlar orasida asta-sekin ingichkalashtirishdan iborat bo‘lgan. Keyinchalik dugli urchuq paydo bo‘ldi va ip tayyorlash ancha osonlashdi. O‘zbekistonda qadimgi urchuq ancha takomillashtirilib, g‘ildirakli charx yasaldi. Bunday charxning g‘ildiragi qo‘lda aylantirilardi, shunda uning urchug‘i chilvir orqali uyoqdan-buyoqqa burilardi. Bora-bora charx ham takomillashtirildi. Urchuq yoki charxda ip yigirish uchun tolalar oldin yog‘och taroqlarda tarab tekislab olinadi. Yigirish uchun tayyorlab olingan tolalardan piliklar tayyorlanib, ulardan yo‘g‘onligi deyarli bir xil iplar eshiladi. Qo‘lda yigirish usuli ayrim hududlarda hozir ham qo‘llanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 S. N. Tursunov, T. R. Pardayev, G. O'. Ahmedova O'zbekiston janubiy hududlarda madaniy va amaliy sa'nat yodgorliklari tarixi . Termiz , 2017 yil
- 2 S. T. Tusunov va boshqalar . surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi . Toshkent 2013
- 3 S. T. Davlatova O'zbekistonning janubiy hududlari an'anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida Toshkent 2018
- 4 S. Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
- 5 S. Bulatov. O'zbekiston san'ati tarixi. Toshkent 1991 yil.
- 6 SH. L . Mamasoliyeva . Xalq hunarmandchiligi . o'quv qo'llanma . Samarqand – 2021 yil
- 7 Mallayev D Gilamchilik bilan bog'liq urf-odat va rasm-rusmlar. (Surxondaryo viloyati misolida) ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11323098>

XORIJIIY MANSABDOR SHAXSLARNING PORAXO‘RLIGIGA QARSHI KURASHISHNING XALQARO HUQUQIY ASOSLARI

Berdiyev Shuhrat Axror o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish

Akademiyasi magistratura tinglovchisi,

e-mail: berdiyevshuhrat63@gmail.com

***Annotatsiya.** Bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda korrupsiyaga o‘zini turli shakllari bilan jamiyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qilib kelmoqda. Bozor iqtisodiyotning rivojlanishi, mamlakatlar tashqi savdo aloqalarining yaxshilanishi va xalqaro bozorda yirik korxonalarining vujudga kelishi bilan birga korrupsiyaviy jinoyatlarning bir shakli sifatida xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarining ko‘lami ham kengayib bormoqda. Bu esa dunyo davlatlarini ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish va qarshi kurashish uchun o‘zaro hamkorlikni yaxshilashga va yagona amaliyotni joriy etishga undamoqda. Maqolada bugungi kunga qadar xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini oldi olish va qarshi kurashish uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar, normalar va tavsiyalar ilmiy jihatdan qiyosiy huquqiy tahlil qilingan bo‘lib, ushbu yuzasidan mulohaza va xulosalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** xorijiy mansabdor shaxs, poraxo‘rlik, korrupsiya, xalqaro normalar, tavsiyalar, xalqaro savdo aloqalari.*

***Аннотация.** В современном развивающемся мире коррупция сама по себе препятствует развитию общества в его различных формах. С развитием рыночной экономики, улучшением внешнеторговых связей стран и появлением на международном рынке крупных предприятий расширяются масштабы взяточничества иностранных должностных лиц как формы коррупционных преступлений. Это побуждает страны мира улучшать взаимодействие и внедрять единую практику для предотвращения и противодействия этим типам преступлений. В статье проведен научно-сравнительный правовой анализ международных стандартов, норм и рекомендаций, разработанных международными организациями по предупреждению и противодействию коррупционным преступлениям иностранных должностных лиц на сегодняшний день, даны суждения и выводы по этому поводу.*

***Ключевые слова:** иностранный чиновник, взяточничество, коррупция, международные нормы, рекомендации, международные торговые отношения.*

Abstract. *In today's developing world, corruption manifests itself in various forms and hinders the development of society. Along with the development of the market economy, the improvement of foreign trade relations of countries and the emergence of large enterprises in the international market, the scale of bribery of foreign officials as a form of corruption crimes is also expanding. This encourages the countries of the world to improve cooperation and introduce uniform practices to prevent and combat this type of crime. In the article, the international standards, norms and recommendations developed by international organizations to prevent and combat the crimes of bribery of foreign officials have been scientifically compared and legal analysis has been made.*

Key words: *foreign official, bribery, corruption, international norms, recommendations, international trade relations.*

Kirish

Korrupsiyaning har qanday ko‘rinishi jamiyat va davlat rivojlanishining asosiy to‘siqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 12-dekabr kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutqida “Korrupsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to‘sqinlik qiladigan xatarli tahdiddir va u barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi rejalarimizga ham jiddiy putur yetkazadi” deb ta’kidlab o‘tdilar.¹ Haqiqatdan ham davlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy topishi, bozor iqtisodiyotning rivojlanishi va mahalliy va dunyo bozorida sog‘lom raqobat muhiting ta’minlanishi dunyo davlatlaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi qay daraja yo‘lga qo‘yilganligi bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, bugungi davrga kelib barcha davlatlari xalqaro bozorda, savda aloqalarida .xususan, xalqaro moliya-tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy mansabdor shaxlarga pora berishga qarshi kurashishning samarali mexanizmni yo‘lga qo‘yishning ahamiyatini tushunmoqda. Chunonchi, aynan shu turdagi jinoyatlarning oqabatlari sababli mamlakatlarning ichki iqtisodiyotiga, xalqaro maydondagi mavqeyiga katta ziyon yetmoqda va sog‘lom raqobatning buzlishiga sabab bo‘lmoqda . Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining statistik ma’lumotlariga ko‘ra 1999-2014-yillar oralig‘ida jami **427 nafar** xorijiy mansabdorlarning poraxo‘rligi jinoyatlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi nutqi. 2023
[Электрон манба]. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6934>

sodir etilganligi aniqlangan¹. Shuningdek Jahon Bankining axborotiga ko‘ra dunyo bo‘yicha har yili 1 trillion AQSh dollaridan ortiq miqdordagi pullar aynan xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlari uchun sarflanishi ma‘lum qilingan.² Bugungi kundagi jahon xalqaro standartlari shuni ko‘rsatdigi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro huquqiy normalarini amalga oshirish – korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim tarkibiy qismi va samarali usuli hisoblanadi. Ba’zi tahlillarga ko‘ra bugungi dunyo davlatlari xalqaro normalarini amalga oshirishdagi turfa xilliklar sabab huquqiy amaliyotni qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.³ Bu esa ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashning samarasiz bo‘lib qolishiga sabab bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunga qadar xalqaro moliya-tijorat bitimlarida xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish va oldini olish uchun bir nechta xalqaro huquqiy hujjatlar ushlab chiqilgan bo‘lib, ushbu xalqaro hujjatlar orqali barcha davlatlar uchun yagona bo‘lgan xalqaro standartlarni belgilab berilgan. Bu esa ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilish va oldi olishda samarali vositalardan biri hisoblandi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va Yevroqa Kengashi, FATF kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olish va ularga qarshi samarali qarshi kurashish yuzasidan xalqaro huquqiy hujjatlar, tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, dunyo bozorida yetakchi kuchga ega bo‘lgan davlatlar tomidan ushbu xalqaro normalar va tavsiyalarga amal qilinib kelmoqda. Masalan 2023 yil holatiga ko‘ra dunyo bozorida export hajmi eng yuqori bo‘lgan davlat – Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Germaniya davlatlarida xalqaro savdo aloqalarida xorijiy mansabdor shaxslarning korrupsiyaviy jinoyatlarini aniqlash va oldi olish uchun mexanizmlar ishlab chiqilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Material va metodlar

Xalqaro moliya-tijorat bitimlarida xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro huquqiy hujjatlar ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolda bugungi kunda xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlar, ularning o‘ziga xos jihatlari, afzalliklari, shuningdek implementatsiya qilish bilan ba’zi muammolar tadqiq

¹ OECD Foreign Bribery Report :AN ANALYSIS OF THE CRIME OF BRIBERY OF FOREIGN PUBLIC OFFICIALS, 2014 [Электрон манба]. URL: <https://www.oecd.org/corruption/oecd-foreign-bribery-report-9789264226616-en.htm>

² World Bank, 'Anti-Corruption' 2016 [Электрон манба]. URL: <https://www.transparency.org/en/press/world-bank-move-to-reduce-private-sector-bribery-welcomed-by-transparency-i>

³Филатова В. В. Международные стандарты по противодействию коррупции // Право и современные государства. 2015. № 3. С. 55-59.

qilindi. Shuningdek har bir xalqaro huquqiy hujjatning qoidalari batafsil tahlil qilinib, ularning mazmun mohiyati ochib berildi. Tadqiq etilayotgan mavzuni maqolada yoritishda davomida bir qancha nazariy metodlar, jumladan, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, induksiya va deduksiya, hamda statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Bugungi kunga qadar dunyo davlatlari tomonidan qabul qilingan xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo'rlik jinoyatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan eng asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar quyidagilardan iborat bo'lib, har biri hujjat o'zining talablari, qoidalari va ko'lami bilan bir biridan farqlanadi.

1.BMTning “Korrupsiyaga qarshi Konvensiya”sida(Bosh Assambleya tomonida 2003 yil 31 oktabrda qabul qilingan). Ushbu Konvensiya korrupsiyaning tur xil shakllari bilan kurashishga va oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni belgilab beruvchi normalar mavjud. Xususan, xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo'rlik jinoyatlariga qarshi kurashish va oldini olish bo'yicha ham xalqaro standartlar keltirib o'tilgan. Ushbu Konvensiyaga ko'ra “xorijiy ommaviy mansabdor shaxs” - xorijiy davlatning qonunchilik, ijroiya, ma'muriy yoki sud organida biron lavozimni egallab turgan har qanday tayinlanadigan yoki saylanadigan shaxs va xorijiy davlat uchun, shu jumladan ommaviy muassasa yoki ommaviy korxon uchun biron ommaviy vazifani bajaradigan shaxs, “ommaviy xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsi” deganda esa xalqaro davlat xizmatchisi yoki bunday tashkilot tomonidan uning nomidan ish yuritish vakolati berilgan har qanday shaxs nazarda tutiladi.¹ Konvensiyasning 16-moddasida “xorijiy ommaviy mansabdor shaxslarga va ommaviy tashkilotlarning mansabdor shaxslariga pora berish” jinoyatining xususiyatlari va unga jinoiy javobgarlik belgilashning o'zi xos jihatlari keltirilgan. Unga ko'ra “1.Har bir ishtirokchi Davlat xorijiy ommaviy mansabdor shaxsga yoki ommaviy xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsiga shaxsan yoki vositachilar orqali mansabdor shaxsning o'zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxsga xalqaro ishlarni yuritish yuzasidan tijorat yoki boshqa noqonuniy afzallikka ega bo'lish uchun o'z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida biron afzallikni va'da qilish, taklif etish yoki taqdim etish, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'rishi;

2. Har bir ishtirokchi Davlat xorijiy ommaviy mansabdor shaxsga yoki ommaviy xalqaro tashkilotning mansabdor shaxsiga shaxsan yoki vositachilar orqali mansabdor

¹ Конвенция ООН против коррупции, 2003

shaxsning o‘zi uchun yoxud boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun, ushbu mansabdor shaxs tomonidan o‘z lavozim vazifalarini bajarish vaqtida biron harakatni amalga oshirishi yoki harakat qilmasligi maqsadida biron afzallikni talab qilish yoki qabul qilish, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e’tirof etish uchun talab qilinishi mumkin bo‘lgan qonuniy va boshqa choralarni ko‘rish imkoniyatini ko‘rib chiqishi” belgilangan.¹

Ushbu normalardan shuni anglashimiz mumkinki, BTMning ushbu Konvensiyasi quyidagi bir qator masalalarni tartibga soluvchi dasturiy amallardan biri hisoblanadi:

1) Xorijiy davlat mansabdor shaxslari va ommaviy xalqaro tashkilotlarining mansabdor shaxslarga nisbatan aktiv poraxo‘rlik holatlarini jinoiy javobgarlikka tortish bilan bog‘liq majburiyatini belgilaydi;

2) Xorijiy davlat mansabdor shaxslarining passiv poraxo‘rliqi uchun jinoiy javobgarlik belgilash bilan bog‘liq tavsiylar beradi;

Yuqoridagi ikki xolatdan shuni anglashimiz mumkinki Konvensiyaning xorijiy mansabdor shaxslarning aktiv poraxo‘rliqi uchun jinoiy javobgarlik belgilash majburiy qilib belgilandan bo‘lsa, passiv poraxo‘rlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash qoidasi tavsiyaviy xususiyatga ega ekanligi anglashiladi. Ya’ni Konvensiya uni qabul qilgan davlatlardan xorijiy mansabdor shaxslarga pora berganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashni talab qilsa, xorijiy mansabdor shaxs pora talab qilganligi yoki taklif qilingan porani qabul qilganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashni ishtirokchi davlatning o‘z imkoniyatiga havola qiladi.

2. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining “Xalqaro moliya-tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy mansabdor shaxslarga kurashish Konvensiyasi”. Ushbu Konvensiya 1997 yil 17-dekabr kuni 34 ta davlat ishtirokida imzolangan bo‘lib, 1999-yil 15-fevral sanasidan kuchga kirishligi belgilangan. Bugungi kunga kelib jami 48 ta davlat ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan bo‘lib, shulardan 8 tasi (Argentina, Braziliya, Bulgariya, Xarvatiya, Peru, Ruminya, Rossiya va Janubiy Afrika) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo bo‘lmagan davlatlar hisoblanadi. Ushbu Konvensiya aynan maxsus xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini tartibga solish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, jami 17 ta moddadan iborat. Konvensiyaning bugungi kundagi ahamiyati juda yuqori bo‘lib, ko‘plab olimlar o‘z maqolalarida va ilmiy tadqiqotlarida bu haqida o‘z fikrlarini berib borishgan. Xususan, Anna Karishkinaning fikricha “ IHTTning hujjatlari, xususan, “Xalqaro moliya-tijorat bitimlarida xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish Konvensiyasi” xalqaro korrupsiyaga qarshi standartlar

¹ Конвенция ООН против коррупции, 2003 [Электрон манба]. URL: <https://lex.uz/acts/-1461329>

orasida muhim ahamiyat kasb etadi.”¹ Bundan tashqari tadqiqotchi Cepoyc A.B. ham o‘z ilmiy tadqiqotlarida ushbu Konvensiyaning bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z yuritadi.² Konvensiya boshqa xalqaro korrupsiyaga qarshi xalqaro huquqiy hujjatlardan farqli ravishda faqat “aktiv poraxo‘rlik “ holatlarini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Konvensiyaning 1-moddalari qoidalariga ko‘ra har bir ishtirokchi davlat o‘z ichki qonunchiligidan kelib chiqqan holda xorijiy mansabdor shaxslarga pora berganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash talabini qo‘yadi.³ Shuningdek Konvensiyada pora “taklif qilish” va “va’da berganlik” uchun ham javobgarlik belgilash kerakligi belgilangan. Konvensiyani qabul qilgan xorijiy davlatlarlar, xususan, Fransiya, Latviya, Litva, Rossiya davlatlari tajribasi o‘rganilganda ushbu davlatlarda xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rligi uchun jinoiy javobgarlik belgilanganligi o‘rganildi. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasidan boshqa yuqori ko‘rsatilgan davlatlarda pora taklif qilganlik va va’da berish harakatlari ham jinoyat sifatida belgilangan. Shuningdek Konvensiyaning sharhida, ishtirokchi tomonlarning huquq tizimida yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik qo‘llanilmasa, tomonlardan bunday jinoiy javobgarlik belgilash talab etilmasligi belgilab belgilangan⁴. “Yuridik shaxslarning javobgarligi” tushunchasi barcha korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlarni belgilab bergan konvensiyalarda joy olgan bo‘lib, xususan BMT ning “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”ning 26-moddasida yuridik shaxslarning javobgarlik masalasi belgilab berilgan⁵. Bundan tashqari Yevropa Kengashining “Korrupsiyaga uchun jinoiy javobgarlik Konvensiyasi” ning 18-moddasida ham yuridik shaxslarning javobgarligi belgilangan. Ushbu xalqaro sharnomalar yuridik shaxslarning javobgarlik masalasi muhim ekanligini ko‘rsatadi. Konvensiya yuqoridagi xalqaro hujjatlardan farqli ravishda ishtirokchi davlatlar huquqiy tizimiga ko‘ra xorijiy mansabdor shaxslarga pora berganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik qo‘llash mumkin bo‘lmasa, ularga nisbatan moliyaviy jazolar qo‘llash mumkin ekanligi belgilaydi. Bundan tashqari Konvensiyada yurisdiksiyani belgilashda ikki xil usuldan (hududiylik va fuqarolik) foydalanish mumkinligi ham ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bu ishtirokchi davlatlarga jinoyatlarga tez va samaralari kurashish imkonini beradi. Konvensiyada xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarda pul yuvish holatlari, soliq va moliyaviy hisobotlar tizimi tartibga solish,

¹ Каширкина А. А. Антикоррупционные стандарты ОЭСР: понятие и направления имплементации // Журнал российского права. 2013. С. 76-88.

² Сероус А.В.” Уголовная ответственность за подкуп иностранных должностных лиц и должностных лиц публичных международных организаций” // ДИССЕРТАЦИЯ на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2019. С. 22-23

³ OECD Anti-bribery Convention, Article 1. 1997

⁴ Commentaries on the Convention on Combating Bribery of Foreign Public Officials in International Business Transactions

⁵ UNCAC

ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish uchun o‘zaro huquqiy yordam masalari ham belgilab berilgan.

3. Yevropa Ittifoqining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasi”. Ushbu xalqaro hujjat ham xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan qoidalarni o‘z ichiga olgan xalqaro huquqiy shartnomalardan biri hisoblanadi. Konvensiyaning 5-moddasiga ko‘ra “ Har bir tomon boshqa davlatning mansabdor shaxslariga nisbatan ushbu Konvensiyaning 2 va 3-moddalarida ko‘rsatilgan harakatlarni sodir etganlik uchun o‘z ichki qonunchiligiga muvofiq jinoiy huquqbuzarlik deb topish uchun zarur bo‘lgan barcha qonuniy choralarni ko‘radi.”¹ Konvensiyaning ushbu moddasi Yevroqa Ittifoqi 1997-yildagi Konvensiyasidan farqli ravishda har qanday xorijiy davlatlar mansabdor shaxslarining poraxo‘rlik holatlarini kriminalizatsiya qilgan. Shuningdek, bu Konvensiya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining poraxo‘rlikka qarshi Konvensiyasidan ikki jihati bilan farqlanadi. Birinchidan, ushbu Konvensiya faol va nafaol poraxo‘rlik holatlarini ham huquqiy jihatdan tartibga solishi bo‘lsa, ikkinchidan Konvensiyaning 5-moddasida xorijiy davlat mansabdor shaxsining poraxo‘rliigi bilan bog‘liq cheklovlar uchramaydi. Bundan tashqari Konvensiyaning 6-moddasida (Chet el davlat kengashlari a‘zolariga pora berish) “ Har bir tomon har qanday boshqa davlatda qonun chiqaruvchi yoki ma‘muriy vakolatni amalga oshiradigan har qanday davlat kengashi a‘zosi bo‘lgan har qanday shaxsga nisbatan Konvensiyaning 2 va 3-moddalarida nazarda tutilgan harakatni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish uchun zarur bo‘lgan qonuniy va boshqa choralarni ko‘radi.”² deb belgilangan. Ushbu modda orqali xorijiy davlat kengashi a‘zolarining faol va nafaol poraxo‘rlik holatlarini jinoiy javobgarlikka tortish zarur ekanligi belgilab berilgan. Shuningdek 9-moddaga ko‘ra “ Har bir tomon xodimlar to‘g‘risidagi nizomga asosan har qanday mansabdor shaxs yoki xalqaro yoki millatlararo davlat tashkilotning shartnoma asosidagi ishchisi yoki tomonlarning ushbu vakolatlarni bajaradigan mansabdor shaxlari yoki agentlari tomonidan amalga oshirilgan Konvensiyaning 2 va 3-moddasida ko‘rsatilgan harakatni o‘z ichki qonunchiligiga muvofiq jinoiy huquqbuzarlik deb topish uchun zarur bo‘lgan choralarni ko‘radi.”³ Ushbu moddaning Konvensiyaning 5 va 6-moddalarida asosiy farqi shundan iboratki, unda subyekt sifatida “xodimlar to‘g‘risidagi nizomga asosan har qanday mansabdor shaxs yoki xalqaro yoki millatlararo davlat tashkilotning shartnoma asosidagi ishchisi yoki tomonlarning ushbu vakolatlarni bajaradigan mansabdor shaxlari yoki agentlari” nazarda tutilgan. Ushbu Konvensiyada keltirilgan moddalarning mazmunidan shuni

¹ Criminal Law Convention on Corruption, Article 5 ,Strasbourg, 27.01.1999 (<https://rm.coe.int/168007f3f5>)

² Criminal Law Convention on Corruption, Article 6

³ Article 9

anglash mumkinki, Konvensiyaning “xorijiy davlat mansabdor shaxlari va xalqaro davlat tashkiloti mansabdor shaxslarining poraxo‘rligi”ga qarshi kurashishning xalqaro standartlarini mustahkamlashdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Konvensiya xorijiy davlat mansabdor shaxslari va xalqaro davlat tashkiloti mansabdor shaxslariga pora berish bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi harakatlar doirasini belgilaydi:

- a) xorijiy davlat amaldorlariga pora berish;
- b) xorijiy davlat kengashlari a‘zolariga pora berish;
- v) xalqaro tashkilotlar mansabdor shaxslariga pora berish;
- d) xalqaro parlament assambleyalari a‘zolariga pora berish.
- e) sudyalarda va xalqaro sudlar mansabdor shaxslariga pora berish.

2. “Xorijiy davlat mansabdor shaxslari va xalqaro davlat tashkilot mansabdor shaxslarining” faol va nafaol poraxo‘rligi uchun javobgarlik masalalari.

3. Ushbu Konvensiya uni ratifikatsiya qilgan har bir davlatning milliy jinoyat qonunchiligi doirasida ko‘rib chiqilayotgan qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilash majburiyatini belgilaydi. Bundan tashqari, Konvensiya javobgarlikni belgilash majburiyatidan tashqari, ko‘rib chiqilayotgan harakatlar uchun yuridik javobgarlik masalalarini ham belgilaydi.

Xulosalar.

Xulosa sifatida shuni ta‘kidlash mumkinki, bugungi kunda yuqorida tadqiq etilgan xalqaro shartnomalarning har biri xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlarini oldini olish va qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, umumiy va farqli jihatlari bor ekanligi bilan izohlanadi. Yuqoridagi ma‘lumotlardan shuni anglash mumkinki IHTTning “Xalqaro moliya-tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy mansabdor shaxslarga kurashish Konvensiyasi” boshqa Konvensiyalardan quyidagi asosiy jihatlari bilan ajralib turadi:

- faqat xorijiy mansabdor shaxslarning aktiv poraxo‘rligi uchun jinoiy javobgarlik belgilash majburiyati mavjudligi;
- yuridik shaxslarning ushbu turdagi jinoyatni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilashning ixtiyoriyligi;
- Konvensiya qoidalarini joriy qilishda har bir davlat milliy qonunchiligidan kelib chiqish imkoniyati;
- majburiy va tavsiyaviy karakterga ega bo‘lgan qoidlarning mavjudligi;
- Konvensiyaning tor doirani qamrab olganligi va hajman kichikligi.

Ushbu jihatlarda Konvensiyani qabul qilgan davlatga uni qoidalarini tez va samarali o‘z qonunchiliga joriy qilish imkoni beradi. Shu sababdan ham ushbu Konvensiyani xorijiy mansabdor shaxslarning poraxo‘rlik jinoyatlariga qarshi kurashish uchun mo‘ljallangan xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. OECD Foreign Bribery Report :AN ANALYSIS OF THE CRIME OF BRIBERY OF FOREIGN PUBLIC OFFICIALS, 2014
 URL: <https://www.oecd.org/corruption/oecd-foreign-bribery-report-9789264226616-en.htm>
2. World Bank, ‘Anti-Corruption’ 2016
 URL: <https://www.transparency.org/en/press/world-bank-move-to-reduce-private-sector-bribery-welcomed-by-transparency-i>
3. Филатова В. В. Международные стандарты по противодействию коррупции // Право и современные государства. 2015. № 3. С. 55-59.
4. Конвенция ООН против коррупции, 2003
5. Каширкина А. А. Антикоррупционные стандарты ОЭСР: понятие и направления имплементации // Журнал российского права. 2013. С. 76-88.
6. Сероус А.В.” Уголовная ответственность за подкуп иностранных должностных лиц и должностных лиц публичных международных организаций” // ДИССЕРТАЦИЯ на соискание ученой степени кандидата юридических наук. 2019. С. 22-23
7. OECD Anti-bribery Convention, Article 1. 1997
8. Commentaries on the Convention on Combating Bribery of Foreign Public Officials in International Business Transactions
9. UNCAC. 2003
10. Criminal Law Convention on Corruption, Article 5 ,Strasbourg, 27.01.1999 (<https://rm.coe.int/168007f3f5>)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11323142>

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE SOCIAL PERCEPTION OF WORKS OF ART BY TEENAGERS

Zokirova Sarvinoz O'tkir qizi

Master's student of International Nordic University,
department of pedagogy and psychology

ABSTRACT: *In this article, the nature of relationships related to teenagers, art and psychology is theoretically analyzed through the literature of foreign countries and nationals, and the negative changes that occur in the psychology of teenagers and their causes are studied. Attention was paid to the influence and connection aspects of psychology, including the psychology of adolescents.*

KEY WORDS: *adolescents, visual arts, psychology, immunity, morality, individual, illusion, motivation, optimism, psychodiagnostics, reproductive, reflection, temperament.*

As we all know, this studied topic is considered one of the important and urgent issues not only in Uzbekistan, but also in the whole world. Because, on the one hand, it affects the teaching and organizational system of schools and other educational institutions, on the other hand, it is closely related to the lifestyle and future of growing young people.

Now let's turn our attention directly to the object of the research. In particular, everyone has heard the word teenager and has a preliminary understanding of who they are. However, when asked, many of them said that they did not have any information about the age range included, and who exactly belongs to this category.

Adolescents are individuals in the transition stage between childhood and adulthood. Unique to humans, they go through a period called adolescence, which is characterized by various changes and dangers. At this stage, adolescents experience physical, psychological and social changes. They strive for autonomy, engage in risky behaviors, and undergo cognitive development. Adolescents are influenced by their social environment, including their peers and technological advances such as smartphones.

Statistically, one in seven 10-19-year-olds worldwide suffers from a mental illness, accounting for 13% of the global burden of disease in this age group. Depression, anxiety, and conduct disorders are among the leading causes of illness and disability among adolescents. Suicide is the fourth leading cause of death among 15-29 year olds. Neglecting mental health issues in teens can have consequences well into adulthood, damaging both physical and mental health and limiting their chances of living a happy adult life.

The World Health Organization defines mental health as "a state of well-being in which people recognize their own abilities, cope with the normal stresses of life, work effectively and efficiently, and contribute to their communities." Applying such adult-based definitions to adolescents and identifying mental health problems in youth can be difficult given the significant changes in behavior, thinking skills, and personality that occur during adolescence. The effects of changing youth subcultures on behaviors and priorities can also make it difficult to identify adolescent mental health and mental health problems. Although mental disorders reflect psychiatric disorders, adolescents can be affected by a wider range of mental health problems. Among them are various difficulties and burdens that hinder the development of the adolescent and negatively affect the quality of emotional, social and professional life.

Adolescence is a critical period for the development of social and emotional habits that are important for mental well-being. Among them, establishing a healthy sleep regime; exercise regularly; problem solving and interpersonal development; and learning to manage emotions. A protective and supportive environment in the family, school, and community is important.

Psychologist L.S. Vygotsky called the psychology of adolescence "crisis in mental development". Adolescent crisis-adolescent experiences are a permanent change and violation of its structure and content. He called the age of 13 the breaking point of the crisis. After the crisis, new psychological structures are formed, which are called subjectively more difficult by parents and teachers. The incompatibility of the needs and capabilities of teenagers creates conflicts between teenagers and their parents, teachers and other mentors. Vygotsky did not limit himself to the crisis in mental development, but distinguished two phases, i.e. negative and positive, depending on the change of interests during adolescence. The negative phase is associated with the fading of previous interests and the emergence of new initial sexual interests. In this case, the following negative behaviors are manifested; decrease in work ability, mastery, rudeness and high excitability of a teenager, his dissatisfaction

with himself and anxiety, etc. The positive phase is characterized by the emergence of broad, deep new interests¹.

Many factors affect mental health. The more risk factors adolescents are exposed to, the greater the impact on their mental health. Factors that may contribute to stress during adolescence include exposure to adversity, peer pressure to fit in, and identity learning. Media influence and gender norms can increase the gap between a teenager's lived reality and their visions or aspirations for the future. Other important factors include the quality of their home life and peer relationships. Violence, harsh parenting, and severe socioeconomic problems are recognized worldwide as threats to adolescent mental health.

Conduct disorders are more common in younger teens than in older teens. Attention deficit hyperactivity disorder (ADHD), characterized by difficulty concentrating, overactivity, and inattention, occurs in 3.1% of 10-14-year-olds and 2.4% of 15-19-year-olds. Behavioral disorders can affect the education of adolescents and lead to criminal behavior.

Suicide is the second leading cause of death of young people aged 15-24, 13.9 people commit suicide per day in this population; The rate of suicide attempts is 100-200 times higher than completed ones. Also, those with symptoms of anxiety or mood disorders should be especially cautious about the possibility of depression and suicidal ideation. Adolescents at risk include low school grades, chronic distress, family dysfunction, problems with sexual orientation, gender identity, physical or sexual violence, alcohol or drug abuse, family includes those with a history of suicide or a previous suicide attempt.

Over the past 20 to 30 years, mental illness and mental health problems among teenagers have increased significantly. The increase is driven by social changes, including the breakdown of families, rising youth unemployment, and increased educational and occupational pressures. The prevalence of mental disorders among 11- to 15-year-olds in the UK is 11%, with conduct problems more common in boys and depression and anxiety more common in girls².

At this point, we would like to quote Abdulla Avlani's opinion about education: "Education is Pedagogy, that is, the science of child education. For the health and happiness of the child, it is to raise him well, to keep his body clean, to correct his profession from a young age, to teach him good manners, and to protect him from bad manners³.

¹ Madgafurova Dilfuza Ahunovna, Important aspects of the psychological characteristics of adolescence NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 – 4230 VOLUME 7, ISSUE 2, Feb. -2021

² <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC556080/>

³ Abdulla Avloniy..Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 6et.

Therefore, certain moral qualities offered in the context of spiritual education occupy one of the main places in the correct formation of young people's sense of confidence in the future and their development. Since the problem of forming the spiritual education of a growing person is multifaceted, this concept is studied by various branches of psychology, such as psychology of religion, pedagogical psychology, psychology of youth, and differential psychology.

Arts education can serve as a powerful preventive tool to mitigate the potential negative consequences of mental health among adolescents. Consistent engagement with the arts can improve academic performance, relationships, and the overall well-being of young individuals, all the more impactful during such a vulnerable time.

Research consistently shows that arts education has a positive impact on academic performance among teenagers. It has been determined that art students outperform their peers in almost all indicators.

In addition, low-income students, who often face additional barriers, benefit most from the arts because it narrows the achievement gap. This suggests that art education can be an effective tool for improving cognitive skills, critical thinking, problem solving, and general academic engagement among adolescents.

Doing art is related to the development of positive relationships between adolescents and adults. Through collaborative projects, group performances, and shared experiences, teens involved in arts programs develop social skills, solidarity, and teamwork. Art provides a platform for self-expression that allows young people to effectively express their thoughts and feelings. Arts education can serve as a protective factor - a method of building resilience - for at-risk adolescents who face a variety of challenges.

The arts also create a supportive environment that helps prevent the ill effects of mental health by fostering a sense of belonging and community.

Art education plays a decisive role in the formation of self-awareness and emotional well-being of adolescents. Olivia Cosio, an education researcher and arts advocate, says:

"Adolescence is characterized by identity development, and while it may seem like a personal journey of self-discovery, teens actually learn who they are from how others treat them. We also know that students who have historically been marginalized can face individualized violence and discrimination both in and out of school. Art acts as a buffer against self-doubt, allowing students to reflect and define themselves rather than offering a single right or wrong answer. Art, allows them to feel successful in different ways".

By engaging in artistic activities, young people develop a sense of self-awareness, explore their talents and interests. The process of artistic creation allows teenagers to express their feelings, thoughts and experiences, helps self-reflection and personal growth. Creative arts interventions, including music and visual arts, have been shown to be effective for adolescents. According to researcher Shirley Riley, "Teenagers are especially interested in creating symbols and graphic images. Therefore, they should be more involved in using art as a language than in verbal questioning."

This, combined with self-exploration, positive feedback and recognition from teachers and peers, can increase self-esteem and self-confidence. These factors contribute to improved mental health outcomes and act as protective factors against the development of psychological distress.

Teens, especially those from low-income families, can benefit greatly from arts education. Studies show that engaging in arts education increases the likelihood of engaging in civic activities such as higher education, volunteering, and voting. Art education enriches young people's worldview by introducing them to a variety of artistic expressions, cultures, and perspectives, and instills a lasting fascination for creative pursuits.

In addition, arts education provides a platform for adolescents to explore potential career paths and develop practical skills in creative fields. By fostering creativity, encouraging innovation, and encouraging critical thinking, arts education equips young individuals with the tools they need to navigate an ever-changing world.

Admittedly, there is still progress to be made in aligning the arts with other important components of the education curriculum.

Arts education is a powerful preventive tool that can significantly contribute to positive mental health outcomes among adolescents. Supporting students through the arts and the arts is not a distraction from student health and achievement—they are an important solution.

Through its impact on academic performance, relationships, self-awareness, and long-term opportunities, arts education provides a holistic approach to enhancing the well-being of young people. Arts engagement has a positive impact on at-risk youth.

Art, in its various forms, can be a powerful tool for improving the mental well-being of adolescents. Engaging in artistic activities through the visual arts, music, dance, or theater can help teens express themselves, reduce stress, and develop a sense of accomplishment. This article examines the benefits of the arts for the mental health of adolescents and provides insight into how they can incorporate them into their lives.

Art gives teenagers a creative outlet to express their feelings, thoughts and experiences. Through art, music, or dance, teens can communicate complex feelings that may be difficult to express verbally, helping them process and overcome difficult feelings. This form of expression allows them to explore their inner world and find ways to convey feelings that sometimes cannot be expressed in words.

Engaging in artistic activities can also help you relax and reduce stress. The act of creating art can be meditative and therapeutic, helping teens release tension. This can be especially helpful for teens dealing with academic pressures or social problems. Art can serve as a form of mindfulness, allowing teens to focus on the present moment and channel their energy into positive and productive activities.

Art can increase self-esteem and confidence in teenagers. Creating something meaningful and seeing the tangible results of their efforts can instill a sense of accomplishment and pride in teens. This sense of accomplishment can spill over into other areas of their lives, giving them the confidence to overcome challenges and pursue their goals with determination.

Art activities often involve collaboration and social interaction, which help teens connect with others. By joining a group, attending theater productions, or taking art classes, teens can build friendships and support networks that contribute to their mental well-being. The arts provide a common ground for teens to connect with others with similar interests and values, and can foster a sense of belonging and acceptance.

There are several ways to incorporate art into the lives of teenagers. Encouraging creative hobbies such as painting, drawing, playing a musical instrument or writing gives them a meaningful opportunity to express themselves. Supporting arts-related education in schools can help teenagers develop their artistic skills, while also benefiting their mental health. Creating spaces in homes or communities where teens can engage in artistic activities can encourage regular art and provide a sense of ownership of their creative pursuits.

Based on the above information, art gives teenagers a creative opportunity to express their feelings and reduce stress. Engaging in artistic activities can boost self-esteem, develop social connections, and improve cognitive skills. Incorporating artistic expression into teens' lives supports their mental well-being and overall happiness. Art can be a valuable tool for adolescents to improve their mental well-being, express themselves, reduce stress, and offer a creative outlet for social connection. By incorporating artistic activities into their lives, we can help teenagers develop a deeper self-awareness, strengthen their mental health, and cultivate a sense of contentment and joy. The arts allow teens to explore their creativity, express their feelings, and connect meaningfully with others, providing them with a holistic approach to mental well-

being. By incorporating arts programs into the curriculum, policymakers, educators, and parents can create an environment that supports the emotional and psychological growth of adolescents, setting them on the path to a healthy and fulfilling future and can help support their well-being.

References:

1. Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. "Xalq so'zi", 2017-yil 4-avgust;
2. Abdulla Avloniy.. Turkiy guliston yoxud axloq - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. - 96 bet. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 30.04.2023. Олий Мажлис Ахборотномаси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023-й., 03/23/837/0241-сон;
3. Madgafurova Dilfuza Ahunovna, Important aspects of the psychological characteristics of adolescence NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 – 4230 VOLUME 7, ISSUE 2, Feb. -2021
4. [Institute of health Metrics and Evaluation. Global Health Data Exchange \(GHDx\)](#)
5. American Association of Suicidology. U.S.A. suicide: 2015 official final data. Available at: <http://www.suicidology.org/Portals/14/docs/Resources/FactSheets/2015/2015datapgsv1.pdf?ver=2017-01-02-220151-870>. Retrieved January 30, 2017. Washington, DC: AAS; 2016.
6. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC556080/>
7. <https://www.psychologytoday.com/intl>
8. <https://www.newportacademy.com/>
9. <https://pacificteentreatment.com/>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11323192>

FINLANDIYA TA'LIM ISTIQBOLINING MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Turonov Dostonbek Murodqobulovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

dostonbekturonov.edu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sifatli ta'lim berish va uning alohida bajarilishi natijasida xalqaro e'tirofga sazovor Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatlariga sabab bo'lgan usullar va yo'nalishlar tahlil qilingan va ta'lim tizimimiz sifatini oshirish uchun qay jabhalarga nisbatan isloh qila olishimiz namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifatida, mustaqillik, o'qituvchilar malakasi va ta'limi, teng nufuzli maktablar, bepul xizmat, "ijobiy ajratish" metodi, til o'rganish ixtiyoriyligi, fanlar taqsimoti, kasb-hunar kollejlari.

СЕКРЕТЫ УСПЕХА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЕРСПЕКТИВ ФИНЛЯНДИИ

Аннотация: В данной статье рассказывается о качественном образовании и его особенностях. В результате ее реализации были проанализированы методы и тенденции, которые привели к успеху международно признанной финской системы образования, а также представлены примеры того, как мы можем улучшить качество нашей системы образования.

Ключевые слова: как воспитание, самостоятельность, компетентность учителя и образование, школы равного престижа, бесплатное обслуживание, «метод позитивной сегрегации», факультативное изучение языка, распределение предметов, профессиональные колледжи.

SUCCESS SECRETS OF FINLAND'S EDUCATIONAL PROSPECTS

Abstract: This article provides high-quality education and its special as a result of its implementation, the methods and directions that led to the success of the internationally recognized Finnish education system were analyzed and what aspects we can reform in order to improve the quality of our education system examples are given.

Key words: as education, independence, teacher qualification and education. equally prestigious schools, free service. "Positive separation method, language learning voluntary, distribution of subjects, vocational colleges.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarorida keltirilgan:

Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda Finlandiyaning ta’lim sohasidagi ijobiy tajribasini O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga hamda Dasturga joriy qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin. Ushbu bandlarga muvofiq ta’lim tizimini o‘rganish, kadrlar malakasini oshirish va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash tizimini o‘rganish, Finlandiyaning o‘qitish tizimidagi bir qancha yutuqlari va afzalliklarini tahlil qilgan holda milliy o‘qitish tizimiga asos tariqasida qayta takomillashtirish kabi asosiy masalalar ko‘rib chiqilgan [1].

Finlandiya o‘quvchilari bir necha yillar mobaynida PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha 149 ta davlat orasida yetakchi o‘rinlarni egallab kelyapti. Bunday natija har soniyada taraqqiy etib kelayotgan davrda ta’lim sifati samaradorligi davlatning yuksak marralarga erishish yo‘lida muvaffaqiyat kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Prezidentimizning “Davlatning vazifasi insonlarni baxtli-saodatli qilishdir. Bu maqsadga esa ilm va yaxshi axloq yordamida erishiladi” degan ta’kidi ostida ta’lim sifatimizni takomillashtirish maqsadida qilishimiz zarur bo‘lgan say-harakatlar qanchalik muhim ekanini anglashimiz mumkin [2]. Shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida biz ham Finlandiya tajribasini ta’lim sifatini yanada oshirish maqsadida faoliyat jarayonidagi ta’lim muassasalarimizga isloh qila boshladik.

Asosiy qism. Fin ta’limi bolalarni jamiyatning yuqori axloqli a’zolari bo‘lib yetishishiga, hayot uchun kerakli bilim va mahoratlarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi hisoblanadi. Imtihonlarda qanday qilib yaxshi baho olish emas, asosan yangi narsalarni qanday qilib o‘rganish kerakligini o‘rgatadi. Finlar uchun xalqaro talabalarni baholash dasturi natijalariga qiziqish juda ham kam bo‘lganligi sababli 2000-yilda PISA xalqaro baholash dasturi o‘tkazilgunicha ular o‘zlarining bu darajada qobiliyatli ekanliklarini o‘zlari ham bilishmagan. Fin ta’lim uchun raqam bilan o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar umuman muhim emas, asosiysi insoniy jihatlar sanaladi. Sodda qilib aytganda, olim bo‘lish uchun emas, odam bo‘lish uchun harakat qilinadi. Davlatning asosiy o‘quv rejasiga asoslanib, har bir maktab o‘zining o‘quv rejasini ishlab chiqadi. Finlandiyada ta’lim tizimi shunday shakllanganiki, har bir o‘quvchi o‘zining hayotiga va ta’limiga bog‘liq masalalarga ta’sir ko‘rsata oladi, ya’ni oldindan belgilab qo‘yilgan bir qolibga majburlanmaydi. Ular yoshlikdan mustaqil bo‘lib kamol topishiga sharoit yaratiladi. Mana shu jihati bilan Finlandiya ta’limi boshqa davlatlarnikidan farq qiladi.

O‘qituvchilar juda erkin bo‘lib, vaqtlarining kam qismini sinf xonalarida o‘tkazishadilar. Bundan tashqari ular vaqtlarini yangi dasturlar ishlab chiqarishga va

bolalarning o'zlashtirishini tekshirishga sarflaydilar. Agar biror bir metodika foyda bermasa, boshqa o'qituvchilar bilan jamoa tarzida o'zaro maslahatlashib yangi usullarni sinab ko'rishga haqqi bor. Bundan tashqari ular bolaning o'zlashtirishiga qarab dastur o'zgartirish yoki bolaning o'zlashtirishini tekshirish yo'llarini o'zgartirishga haqlidirlar. Albatta, bunday erkinlik ota-onalarni xavotirga solishi mumkin, lekin Finlandiyada o'qituvchilar allaqachon xalqning ishonchiga kirib bo'lganlar. Maktab o'qituvchilarning 85 foizi ish davomida malaka oshirish kurslari va har xil yangi mavzularda darslar oladilar [3]. Shuning uchun ham bu davlatda o'qituvchi ta'limi juda rivojlanganligi va ta'lim sifatida yuqoriligi sababli ko'plab mamlakatlar fin ta'lim tizimiga katta qiziqish bildirmoqda.

Mamlakatda o'qituvchilarning yagona ro'yxati bo'lib har bir maktab mana shu ro'yxatdan o'qituvchi tanlaydi. Bu nima degani? Bola qayerda yashashidan qat'iy nazar, u chekka qishloqda bo'lsin yoki shaharda bo'lsin oladigan ta'lim sifatida bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Bu jihatdan ham Finlandiya yuqori ko'rsatkichlarga ega, ya'ni eng kuchli o'quvchi bilan o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilarning orasidagi farqi juda ham kam. 6 yoshli o'quvchilarning 97 foizi maktabga boradilar va maktab bir yilda 190 kundan iborat [4]. Maktablarda ovqat, tibbiy xizmat va agar bola uzoqda yashasa taksi xizmati ham bepul beriladi va albatta, buning uchun belgilangan minimum masofa mavjud. Bolaning maktabda qanaqa ovqat yeyishi ota-ona tomonidan belgilanadi. Maktabda tayyorlanadigan bu ovqatlar go'shtli, go'shtsiz, laktozsiz, glyutensiz bo'lishi mumkin. Masalan, biror o'quvchida laktozga qarshi allergiya bo'lsa, mana shu bola uchun alohida laktozsiz ovqat tayyorlanishi e'tiborga molikdir. Shu bilan birgalikda maktablarda xalqaro taomlar haftaliklari ham bo'lib turadi va bunda turli mamlakatlarning milliy taomlaridan tayyorlaniladi. Bu milliy taomlar aynan bir mamlakat mutaxasis oshpazi tomonida tayyorlanmasada, boshqa mamlakatlar qadriyatlarini, an'analarining ulug'lanishidan va bunga katta qiziqish borligidan dalolat beradi

Maktablarda bolalar doimiy ravishda pediatr va tish doktorlari nazoratida bo'ladi. O'quvchilar uchun davonalish va muolaja har doim bepul. Yana shunisi ham ahamiyatliki, maktablar uchun umumiy forma yo'q, chunki bu fin xalqi uchun o'quvchining erkinligini cheklash hisoblanadi. Barcha maktablarda o'quvchilar poyabzalsiz yurishadi va bu orqali o'quvchilarning dars jarayonlarida erkinligi ta'minlanadi. Ota-ona uchun hech qanday xarajat yo'q, faqatgina yilda bir marta sinf bilan rasmga tushganda mana shu rasmni sotib olishlari mumkin, maktabda o'quvchilarning tahsil olishi uchun qolgan narsalarning barchasi maktab tomonidan beriladi.

O'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilarga alohida e'tibor beriladi. Buning sababi nafaqat maktablarda, balki oddiy hayotda ham barcha teng bo'lishi lozim. Maktablarda "ijobiy ajratish" metodi mavjud bo'lib, unda qiyin o'zlashtiradigan, alohida e'tibor talab qiladigan yoki fin tilini bilmaydigan o'quvchilarga yordam ko'rsatiladi va buning uchun alohida davlat tomonidan mablag' ajratiladi. Misol tariqasida mana shu muammo yechimi uchun davlat tomonidan 1 yilda 47 ming yevro ajratilgan [3].

1-sinfda oddiy darslardan tashqari san'at, din va tikuvchilik mashg'ulotlari ham olib boriladi. Tikish darslarida o'g'il bolalar ham qiz bolalar ham birday yangi bilimlarni o'zlashtirsa, keyingi yuqori sinfga o'tganida olib boriladigan duradgorlik darslarida ham o'g'il va qiz bolalar birdek bu hunarning saboqlarini o'rganadilar. Din darslarida asosiy dinlardan biri tanlanadi yoki axloq darsi tanlanadi. Ingliz tili 3-sinfdan, shved tili 4-sinfdan, 5-sinfdan biologiya, kimyo, fizika, geografiya va tarix fanlari o'tila boshlaydi. Agar chet ellik o'quvchilar o'z ona tilini o'tilishini xohlasalar buni maktab mamuriyatidan talab qilishlari mumkin va maktab bu darsni tashkillashtirishi zarur hisoblanadi. Buning uchun belgilangan minimum raqam mavjud bo'lib, bu darslar uchun kamida 3 o'quvchi bo'lishi kerak [3].

6-sinfda birinchi umumiy imtihon bo'ladi va bu imtihon ixtiyoriy. 9-sinfdan keyin o'qish majburiy emas, lekin bitiruvchilarning 90 foizi o'sha yilning o'zida umumiy ta'limda yoki kasb-hunar kollejlarda o'qishni davom ettiradi. Qolgan 10 foizi esa bir yoki ikki yil dam olganidan keyin, agar xohlasalar o'qishni davom ettirishlari mumkin. 9-sinfdan keyingi ta'lim va kasb-hunar kollejlari 3 yillik bo'lib, umumiy ta'limda bolalarga yanada ko'proq erkinlik beriladi, endilikda o'quvchilar o'zlarining dars jadvallarini tanlashlari mumkin bo'ladi. Kasb-hunar yo'nalishi ko'proq ishlashga qaratilgan bo'lib, ustoz va shogird metodiga asoslangan 9-sinf bitiruvchilarining 40 foizi mana shu yo'nalishda davom ettiradilar [4]. Fin ta'limining ajoyib bir xususiyati borki, bola qaysi yo'nalishda bo'lishidan qat'iy nazar, qaysi bosqichda bo'lishidan qat'iy nazar o'zining yo'nalishini o'zgartirib, professorlikkacha borishi ham mumkin.

Xulosa. Yuqorida sanab o'tgan tamoyillar Finlandiya ta'lim tizimida ijobiy natija ko'rsatayotganligi finliklarning yuksak dunyoqarashga ega ekanligining yaqqol timsolidir. O'zbekistonda Finlyandiya ta'lim tizimini tatbiq etish va undan samarali natija olish uchun, avvalo, xalqimizning dunyoqarashini yanada rivojlantirishimiz, to'g'ri fikrlash qobiliyatini oshirishimiz kerak. Ana shundagina O'zbekistonning ta'lim sohasiga sarflaydigan investitsiyalari o'zining ijobiy samarasini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://abt.uz/blog/prezident-xalq-ta-limi-tizimidagi-muammolarvakamchiliklarni-ma-lum-qildi?ysclid=ldcwdyyo3z362322428>
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi –Toshkent: “ O‘zbekiston”. 2021. 237-b.
3. Finlandiya maktablari haqida
<https://youtube.com/watch?v=IV9qIviarUQ&si=qt0VRrSU5ltCKtHb>
4. Ilkka Taypale. Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi – Toshkent: “Sharq”. 2019. 336-b.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11323247>

O‘QUVCHILARNI MA’NAVİY TARBIYALASHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT TADBIRLARINING O‘RNI

Quvondiqov A.T,

JizDPU Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi.

Tajiboyev. J.F,

JizDPU jismoniy madaniyat fakulteti 1-bosqich talabasi.

Hotamov I.K,

JizDPU jismoniy madaniyat fakulteti 1-bosqich talabasi

Xursanboyeva. Z.K,

JizDPU jismoniy madaniyat fakulteti xotin qizlar sporti
yo‘nalishi 1- bosqich talabasi.

***Annotatsiya:** Yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta‘siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish, jismoniy madaaniyat va sport tadbirlari orqali ma‘naviy tarbiyasini kamol toptirishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida so‘z bormoqda.*

***Kalit so‘zlar:** Ma‘naviy tarbiya, jismoniy madaniyat, sport, tadbir, intizom, munosabat, ta‘lim, tarbiya, maktab, jamoa.*

Aholining ijtimoiy-madaniy turmush sharoitini yaxshilash va ularni salomatligini muhofaza qilishda ayniqsa yosh va o‘quvchi qizlar-o‘g‘illarning jismoniy madaniyat sohasidagi komillikni o‘stirish, ularning o‘zaro mehribonligi, do‘stligini tarbiyalashda milliy qadriyatlar, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar qatorida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o‘z o‘rniga egadir.

O‘quvchi-yoshlarning ma‘naviy-ma‘rifiy qiyofalarini kengaytirishda faqat ta‘lim tarbiya berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki oila, mahalla va ommaviy - madaniy hamda sog‘lomlashtirish jismoniy tarbiya, sport, sayohat, xalq milliy o‘yinlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada o‘quvchi - yoshlar, ayniqsa mahalliy millat qizlarining zamonaviy kiyinishi, bayramlar, to‘ylar, turli marosimlar, ko‘chalarda

Yurish – turishlarida ularni shaharlik yoki qishloqlik deb ajratish qiyin. Kurash, sharqona yakka bellashuvlar, badiiy gimnastika, tennis, futbol, voleybol, yengil atletika, shaxmat va boshqa sport turlari bo'yicha qizlarning astoydil shug'ullanishlari mustaqillik tuxfa etgan ne'mat va milliy taraqqiyot na'munalaridan biridir. Shu tufayli o'quvchi qiz va o'g'il bolalar birgalikda sport bilan shug'ullanishlari, jismoniy tarbiya darslarida o'zro musobaqalashishlari shakllanib, ravnaq topmoqda. Bu o'z navbatida buyuk kelajak avlodlarni jismoniy madaniyat komilligini tarbiyalashning dastlabki mahsulidir.

Shunday bo'lsada, aholi o'rtasida, ayniqsa qishloq joylarida qizlarning sport bilan shug'ullanishlariga e'tirozlar kam emas. Buning negizida eski urf-odatlar ariqdan sakrama, o'g'il bolalar bilan o'ynama va h.k. hali uzoq davom etuvchi salbiy tarbiya jarayonlari mavjudligini inkor etish qiyin. O'g'il va qiz bolalarning jahon madaniyatiga qo'shiqlar, musiqalar, raqslar, kiyinishlar va h.k. tez kirib borayotganligini to'xtatib bo'lmaydi. Qiz bolalarning sportga berilishi, bevosita shug'ullanishi va xalqaro sport maydonlariga chiqishni orzu qilishlari tabiiydir.

yosh bolalar va o'quvchi o'g'il hamda qizlarning Jismoniy madaniyat va sportga e'tiqodi, jismoniy madaniyat tushunchasini aniqlash maqsadida Jizzax viloyati jizzax shahrining ba'zi hududlarida suhbatlar, savol-javoblar, muloqotlar (sotsiologik tadqiqotlar) o'tkazildi. Ularning ba'zi bir natijalari va xulosalarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan holda quyidagilarni bayon etishga to'g'ri keladi, ya'ni:

1. Zamonaviy yetuk sportchilar va afsonaviy pahlavonlarimiz Paxlovon Maxmud, To'maris, Alpomish hamda Barchinoylarga taqlid qilish:

- bog'cha bolalari: katta bo'lsam Baxodirdirdek bokschi bo'laman (45%),

Shomurodovdek futbolchi bo'laman (65%),

Sobirovdek kurashchi bo'laman (55%),

To'marisdek fikr qilishga urinaman(45%).

- boshlang'ich sinf bolalari, o'g'il bolalar:

Karate sport turini yaxshi ko'raman (45%),

O'zbek kurashi menga yoqadi (40%),

Futbol eng yaxshi o'yin, futbolchi bo'laman (60%),

Chavandoz-polvon bo'laman (30%) va h.k.

- qiz bolalar:

Kurashlarning barcha turlari qiziqarli (55%),

Tennis o'ynash menga ko'proq ma'qul (45%),

O'g'il bolalar bilan futbol o'ynishni yaxshi ko'raman (35%),

O'g'il bolalar bilan harakatli o'yinlarni o'ynash, sayohatlarga chiqish juda qiziqarli bo'ladi (45%) va h.k.

Yuqoridagi mulohazalardan ma'lumki, yosh bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilari kelajakda yetuk sportchi bo'lishni orzu qilishadi va ular o'g'il bolalar bilan birgalikda o'ynash, musobaqalalashish, kuch sinashishga ham tayyor ekanligini izhor etishadi. Bu o'z navbatida yurtimiz sport yulduzlari hamda afsonaviy pahlavonlarga o'zlarini qiyoslashdan darak beradi.

2. Sportdagi faoliyatlar va jismoniy madaniyat tushunchalarining o'zaro birligi hamda uyg'unligi:

5-7 sinf o'quvchilari, o'g'il bolalar:

- yugurish, sakrash va sport o'yinlarida qizlar bilan bahslashish qiziqarli o'tadi (50%),

- ba'zi qizlar birgalikda o'ynashni yoqtirmaydi (45%),

- voleybol, basketbol, futbol va qo'l to'pini qizlar bilan aralash o'ynatishda yaxshi bo'lar edi (35%).

Qiz bolalar:

- o'g'il bolalar qo'pol o'ynashadi, qizlarga tegajoqlik qilishadi, shu sababdan ular bilan o'ynashga qizqmaymiz (65%),

- o'g'il bolalarning sporti bilan qizlar ham shug'ullansa bo'ladi (30%),

- ixtiyor o'zimda bo'lsa futbol o'ynagan bo'lar edim (25%).

- jismoniy madaniyat tushunchasi bizga o'rgatilmaydi, faqat jismoniy tarbiya deyishadi (65%),

- ota-onalar va boshqa kishilar "fizkultura" iborasini bilishadi, uning ma'nosi va tarjimasini jismoniy tarbiya deyishadi (60%).

Ma'lum bo'ladiki o'rta yoshdagi o'quvchi o'g'il va qiz bolalarning Jismoniy madaniyat va sport ga munosabatlari, ayniqsa birgalikda shug'ullanishlariga bo'lgan ehtiyojlari ma'lum darajada sezilmoqda. Lekin o'qituvchilarning ularni barcha mashg'ulotlarda ajratib qo'yishi va ota-onalarning bu sohadagi salbiy sa'y-harakatlari qizlarda nafrat uyg'otishi ham borligi seziladi.

Yuqori sinf (8-9) o'quvchi o'g'il va qizlari o'zlarining harakatlari va imkoniyatlarini sezgan holda mohir sportchilarga havas qilishi hamda Alpomish va Barchinoylardek har tomonlama barkamol bo'lishga istagi yuqori doirada ekanligini ham isbot qilmoqdalar. Qizlarning "Alpomish va Barchinoy birgalikda tarbiya olishgan, kurash, o'q otish, poyga kabi o'yinlarni birgalikda bajarishganku?" degan mulohazalari bilan o'zlarining kuchlari yetadigan mashqlar va o'yinlarni o'g'il bolalar bilan birgalikda bajarishga tayyor ekanliklarini ham izhor etishmoqda. Jismoniy madaniyat tushunchasini ular har tomonlama barkamol avlod va sportda yuqori natijalarga erishish kabi faoliyatlar bilan bog'lashmoqda. Bunda ma'lum bo'ladiki, yuqori sinf o'quvchilari, ayniqsa mahalliy millat qizlari o'zlarining madaniyatga

Tashkent University of Information technologies named after Muhammad al – Khwarizmi/ Foreign languages department, Tashkent, Uzbekistan

***Annotation.** The article discusses various methods for evaluating the performance of ESL students in both higher and secondary education systems. Assessment plays a vital role in the teaching process as it helps us understand the progress of our students, evaluate the effectiveness of our teaching strategies, and identify any challenges that may need to be addressed in future lessons. The article highlights three types of assessment: assessment as learning, assessment of learning, and assessment for learning.*

***Key words:** assessment, learning process, portfolio, student-teacher conferences, content-based measures.*

Assessment is indeed crucial for understanding students' progress, evaluating teaching strategies, and identifying areas for improvement. It's important to remember that assessments should be tailored to individual students and their unique needs.

Assessment as learning is a student-centered approach that empowers multilingual students by allowing them to actively participate in the assessment process. This strategy promotes students' voices, agency, and identities in the classroom. Multilingual students can engage in assessment as learning in person or virtually by interacting with their peers in their language(s) of choice to: discuss problems of common concern and help design classroom assignments, evaluate oneself and one's peers, seek knowledge in their own ways, pick your preferred means of information intake and expression (e.g., verbal, written, graphic, visual).

By incorporating assessment as learning into the educational process, teachers can create a more inclusive and supportive learning environment that values the diverse linguistic backgrounds of their students. This approach not only helps students better understand their own progress but also fosters a sense of ownership and empowerment in their learning journey.

Discussions between the teacher and the student could lead to the formulation of learning objectives that are acceptable to both parties. Both are well-versed in the academic material and language proficiency criteria that students at each grade level should have mastered by now [Cheng, L. Y. 2006]. During formative assessment, students who speak a language other than English with their teachers use those languages to: implement a criterion-referenced feedback strategy that involves co-creating success criteria and types of acceptable evidence for their work.

Differentiated lessons in both subject matter and language provide immediate responses to student progress or difficulties.

Classroom assessment is shaped by teachers, either independently or as a team at the department or grade level, with student feedback. It's a snapshot of what pupils have learned and accomplished by the end of a specific learning unit. Learning assessment is centered on teacher collaboration with the backing of school or district administrators to determine student improvement over time and is used to:

support students in the creation of portfolios or capstone projects by correlating assessment data with learning objectives recording students' levels of compliance with unit learning standards [Brindley, G. 1998].

When teachers aim to provide their students with as much linguistic and cultural diversity as possible, a comprehensive system that includes assessment as, for, and of learning is essential.

Teachers of multilingual students must evaluate their performance on both linguistic and content-based measures. Academic-language development is not always something that needs to be assessed, therefore teachers must be deliberate about what they examine.

Due of the various criteria that make up a rubric, they can be a useful tool for evaluating pupils' progress. Multilingual students can benefit from the usage of rubrics because they can be used to objectively evaluate students' performance on a variety of assignments and projects. This criterion allows educators to focus solely on the rubric's stated criteria while evaluating students' progress. A rubric can help teachers determine whether or not their students have truly grasped a concept, as opposed to a more subjective approach like a multiple-choice test. Teachers can use the grading scale on a rubric to provide students constructive criticism that will encourage them to reflect on their work, ask questions, get more information, and ultimately produce better results. Students can use the rubric to self-evaluate their work before submitting it for grading, which is another way in which rubrics promote student agency in the learning process. [Assessment Reform Group. 2002]

The teacher can see evidence of the student's effort and learning over a longer time period than with an end-of-unit evaluation, making portfolios a wonderful option for assessing bilingual students. The instructor can then determine whether or not the students "got it" right away and whether or not they were able to "keep it" beyond the end of the course. Multiple examples of student work or evidence of mastery of a concept or standard should be included in a portfolio. Work samples from students could be anything from a writing prompt to a project to a multiple-choice exam. This means that portfolios provide a more accurate depiction of a student's learning process.

Student-teacher conferences are another useful tool for evaluating ELLs. Students benefit from one-on-one conferences because they can demonstrate their knowledge and understanding without the pressure of an exam. The teacher can more easily confine the discussion to the topic at hand during a conference, whether it be subject matter, academic language development, or something else entirely. Each conference may be tailored to the individual needs of each student, giving educators the information they need to better prepare their lessons [Benson, R., & Brack, C. 2010].

All necessary screening and assessment must be made available in both of their languages. The bilingual mind also differs in operation from that of two monolingual minds. Studies have shown that the most effective screening and evaluation methods would be those tailored to the unique needs of bilingual thinkers, capturing their knowledge and skills in both languages. There is a lack of high-quality resources like this, and not enough of them in the necessary languages. Multilingual children's performance on kindergarten entrance tests and other district-mandated monolingual testing is often subpar. The most effective strategy involves tracking a child's progress over time on a number of different measures of their abilities and knowledge. Assessment, in the early years, is not a score but a folder, as we like to put it. Teachers can use the scores and other data in the folder to track a student's development and identify areas where they're struggling.

Portfolio-based assessment is the solution advocated by most specialists. Teachers can collect genuine evidence of students' knowledge and communication skills through portfolios, rather than relying on a single test score or snapshot. Some curricular frameworks include portfolio assessment software, while others sell it separately. Data entry options, prompts, and benchmarks may all be part of such systems.

It is crucial that educators have access to mobile devices throughout the school day in order to record student conversations and behavior [Cassady, J. C., & Gridley, B. E. 2005]. For students learning more than one language, this is a crucial skill since

it allows teachers to better understand what their students are saying when they are speaking a language that is not their native tongue. Because they may be the only adults with whom some bilingual children interact in their home language, it is crucial that bilingual teacher aides be well-prepared to take part in the assessment process.

The input of family members is a valuable resource that should not be overlooked. While it's unlikely that a seventh-grade teacher would inquire about their child's progress in algebra at home, many kindergartners and preschoolers demonstrate language and learning gains at home that might not be apparent in the classroom. In the classroom, young children don't always do what's expected of them. A child's family can help a teacher scaffold their education by providing cultural context and knowledge about the child's interests. Young children will be able to more precisely demonstrate their knowledge and abilities, as well as their readiness for the next step, through the use of several assessments across a variety of activities and times of day.

REFERENCES:

1. Talbot, J., & Lilley, A. (2014). Approaches to supervising work-based learning students' workplace research. *Higher Education, Skills and Work-based Learning*, 4 (1), 44-65. doi:10.1108/HESWBL-08-2012-0032
2. S. Hadjerrouit, "Using wikis to evaluate students' contributions to collaborative writing in teacher education," in *Computer Supported Education Anonymous Springer*, 2014, pp. 3-18.
3. H. Omar, M. A. Embi, and M. M. Yunus, "ESL learners' interaction in an online discussion via Facebook," *Asian Social Science*, vol. 8, p. 67, 2012.
4. S. Hamid, J. Waycott, S. Kurnia, and S. Chang, "Understanding students' perceptions of the benefits of online social networking use for teaching and learning," *The Internet and Higher Education*, vol. 26, pp. 1-9, 2015.
5. R. Shih, "Can Web 2.0 technology assist college students in learning English writing? Integrating Facebook and peer assessment with blended learning," *Australasian Journal of Educational Technology*, vol. 27, 2011.
6. Turdieva, R. S., & Razzakova, G. R. (2023). Strategies for assessing the effectiveness of an online education program. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 413, p. 03003). EDP Sciences.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11407372>

UDK: 0000000

“CASE-STUDY” TEXNOLOGIYASI ASOSIDA NOTIQLIK KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Rakhimova Maftuna Avazovna

1 kurs magistranti

Rakhimovamaftuna81@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada “Keys-study” texnologiyasi asosida notiqlik ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi haqida dolzarb muammo va yechimlar ishlab chiqilgan. Case-Study – talabalarda tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun biznes, fan yoki kundalik hayotdagi real yoki xayoliy vaziyatlarni tahlil qiladigan o‘qitish usuldan iborat.*

***Kalit so‘zlar:** metodologiya, malaka oshirish, tezkor malaka, Case-Study texnologiyasi, ta’lim jarayoni, tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish, guruh muhokamasi, natijalar tahlili, fikr-mulohaza.*

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ РЕЧНЫХ НАВЫКОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ «CASE-STUDY»

***Аннотация:** В данной статье разрабатываются актуальные проблемы и пути решения методики развития навыков публичных выступлений на основе технологии «Case-study». Case-Study — это метод обучения, который анализирует реальные или воображаемые ситуации в бизнесе, науке или повседневной жизни с целью развития у учащихся навыков критического мышления и принятия решений.*

***Ключевые слова:** методика, обучение, быстрая квалификация, технология Case-Study, учебный процесс, критическое мышление, принятие решений, групповое обсуждение, анализ результатов, обратная связь.*

METHODOLOGY OF SPEAKING SKILLS DEVELOPMENT BASED ON "CASE-STUDY" TECHNOLOGY

Abstract: *In this article, current problems and solutions about the methodology of developing public speaking skills are developed based on the "Case-study" technology. Case-Study is a teaching method that analyzes real or imagined situations in business, science, or everyday life to develop critical thinking and decision-making skills in students.*

Key words: *methodology, training, quick qualification, Case-Study technology, educational process, critical thinking, decision-making, group discussion, analysis of results, feedback.*

KIRISH. "Keys-stadi" texnologiyasi asosida nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi talabalarda tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beruvchi samarali o'qitish vositasidir. Ushbu o'qitish usuli o'nlab yillar davomida shakllangan o'ziga xos tarix va evolyutsiyaga ega. "Keys-stadi" texnologiyasiga asoslangan nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodologiyasi bir necha sabablarga ko'ra ta'lim va kasbiy tayyorgarlikda juda dolzarbdir. Keys tadqiqotlari o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash imkonini beruvchi real ssenariylarni taqdim etadi. Nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quvchilar ushbu holatlar kontekstida o'z fikrlari, g'oyalari va echimlarini ifoda etishni mashq qilishlari mumkin. Muloqot ko'nikmalarini muhokama qilish va taqdim etish orqali o'quvchilar og'zaki ifoda, faol tinglash va og'zaki bo'lmagan muloqotni o'z ichiga olgan muloqot qobiliyatlarini oshiradilar. Ular o'z fikrlarini turli auditoriyalarga aniq va ishonchli tarzda etkazishni o'rganadilar.

Keys tadqiqotlari o'rganish uchun boy **kontekstni** ta'minlaydi, bu esa o'quvchilarga nazariy tushunchalarning real hayotda qanday qo'llanilishini tushunishga imkon beradi. Ushbu kontekstli tushunish nutq qobiliyatlari tushunchalarini tushunish va saqlashni chuqurlashtiradi.

Ko'pgina amaliy tadqiqotlar murakkab muammolar yoki qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu o'quvchilardan ijodiy echimlarni ishlab chiqishni va ularni samarali taqdim etishni talab qiladi. Ushbu holatlar bilan shug'ullanish o'quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi va ularni shaxsiy yoki professional hayotlarida duch kelishi mumkin bo'lgan shunga o'xshash qiyinchiliklarga tayyorlaydi.

Keyslarni muhokama qilish ko'pincha guruh ishini, hamkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Talabalar munozaralarda ishtirok etadilar, o'z nuqtai nazarlarini himoya qiladilar va turli nuqtai nazarlardan o'rganadilar, muloqot qobiliyatlarini boyitadilar.

Umuman olganda, keys-stadi texnologiyasiga asoslangan nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodologiyasi muloqot qobiliyatlarini oshirish, o'quvchilarni turli akademik, kasbiy va shaxsiy kontekstlarda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun dinamik va samarali yondashuvni taklif etadi.

"Og'zaki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda amaliy ta'limning samaradorligi: adabiyotlarni ko'rib chiqish"(2018) tadqiqot ishida og'zaki muloqot ko'nikmalarini oshirishda vaziyatga asoslangan ta'lim samaradorligi bo'yicha adabiyotlarni keng qamrovli ko'rib chiqdi. Unda turli ta'lim sharoitlarida qo'llaniladigan turli keys-stadi metodologiyalari ko'rib chiqildi va ularning o'quvchilarning nutq qobiliyatiga ta'siri tahlil qilindi. "Keyslarni tahlil qilish orqali nutq mahoratini oshirish: qiyosiy tadqiqot" (2015) tadqiqot ishida an'anaviy nutq ko'nikmalarini o'rgatish samaradorligini keys-stadiga asoslangan yondashuv bilan taqqosladi. U ikkita guruh o'quvchilarning so'zlashuv malakasini baholadi - biri an'anaviy ta'limga, ikkinchisi esa amaliy tahlilga duchor bo'ldi va ularning nutq qobiliyatlarini rivojlantirishdagi farqlarni baholadi. "Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda amaliy tadqiqotlarning rolini o'rganish" nomli tadqiqot ishida amaliy tadqiqotlar aloqa kompetensiyasini rivojlantirishga qanday hissa qo'shishini o'rganib chiqdi. Unda keys-stadi asosidagi nutq faoliyati bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarning tajribalari tahlil qilindi va ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar o'rganildi.

Ushbu tadqiqot ishlari keys-stadi texnologiyasi asosida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodologiyasi bilan bog'liq samaradorlik, imtiyozlar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar haqida qimmatli tushunchalar beradi. Ular til o'rganish va muloqot qobiliyatlarini oshirishga innovatsion yondashuvlar bo'yicha bilimlar to'plamiga hissa qo'shadilar.

Ta'limda keys usulini qo'llash g'oyasi birinchi marta XX asr boshlarida Garvard biznes maktabi tomonidan taklif qilingan. Asosiy g'oya talabalarni haqiqiy biznes vaziyatlarni tahlil qilish va to'liq bo'lmagan ma'lumotlar asosida qaror qabul qilishga o'rgatish edi. Bu yondashuv talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va real vaqtda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini berdi.

"Keys-stadi" texnologiyasi dastlab 1870 yilda AQShning Garvard universitetining huquq maktabida ta'lim jarayonida qo'llanilgan. Ushbu texnologiya Garvard universitetining biznes maktabida 1920 yilda qo'llanila boshlangan. Keyslarning ilk to'plami 1925 yilda biznes haqidagi Garvard universiteti hisobotlari asosida chop etilgan. Hozirda texnologiya xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyot, biznes sohalarida ham keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda mazkur texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'lidagi harakatlar mustaqillik yillarida faollashdi[1].

Vaqt o'tishi bilan Case-Study metodologiyasi biznes ta'limidan tashqariga tarqaldi va bilimning turli sohalarida, jumladan, ta'lim, tibbiyot, huquq va boshqalarda qo'llanila boshlandi. Ushbu metodologiyani qo'llashning har bir sohasi holatlarni tanlash va tahlil qilishda o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqdi, bu esa usulning yanada rivojlanishiga yordam berdi.

Ta'lim sohasida "Keys-stadi" metodikasi talabalarda tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish qobiliyati tufayli keng tarqaldi. U oliy ta'lim darajasida ham, maktab o'qitishda ham qo'llaniladi, talabalarda tahlil qilish, sintez qilish va argumentatsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[2].

Keys-Study tilni rivojlantirish metodologiyasi samarali o'qitish vositasi bo'lib, uning ildizlari Garvard biznes maktabidagi dastlabki tadqiqotlarga asoslangan. Uning rivojlanishi va ta'limning turli sohalarida qo'llanilishi uning talabalarda tanqidiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati va samaradorligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Keys-stadi texnologiyasi bilimning turli sohalarida, jumladan biznes, ta'lim, tibbiyot, huquq va boshqa sohalarida keng qo'llaniladigan o'qitish va tadqiqot usulidir. Asosiy g'oya - real hayotda yuzaga keladigan yoki ta'lim maqsadlarida yaratilishi mumkin bo'lgan aniq vaziyatlarni (holatlarni) tahlil qilish hisoblanadi[3].

Keys-study texnologiyasida odatda qaror qabul qilishni yoki muammoni hal qilishni talab qiladigan vaziyatlar taqdim etiladi. Bu holatlar real voqealarga asoslangan bo'lishi mumkin yoki ular xayoliy, ammo realistik bo'lishi mumkin. Talabalar vaziyatlarni tahlil qiladilar, asosiy muammolarni aniqlaydilar, faktlarni tahlil qiladilar va mavjud ma'lumotlarga asoslanib qaror qabul qiladilar.

Ta'limda keys-stadi texnologiyasidan foydalanish talabalarga quyidagilarga imkon beradi:

- ma'lumotni tahlil qilish, vaziyatning muhim tomonlarini aniqlash va asosli qarorlar qabul qilish.
- o'quv materialini hayotda yoki real vaziyatlarda qo'llash.
- vaziyatlarni guruhda muhokama qiling, o'z fikringizni bildiring va qarorlaringizni asoslang.
- kelajakdagi kasbida duch kelishi mumkin bo'lgan amaliy muammolarni hal qilishda tajriba orttirish[4].

Keys-stadi texnologiyasi ham ta'lim kurslarida, ham korporativ treningda qo'llanilishi mumkin. Bu sizga o'quvchilarning tushunishi va amaliy ko'nikmalarini oshiradigan interfaol va immersiv ta'lim stsenariylarini yaratishga imkon beradi.

“Keys-stadi” texnologiyasi asosida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi adabiyot va metodika tahlili ta’limda keys metodini qo‘llash va rivojlantirish bilan bog‘liq o‘quv ishlarini ham, amaliy o‘quv qo‘llanmalarini ham o‘rganishni nazarda tutadi. Pedagogika va ta’lim sohasida olib borilgan tadqiqotlar ko‘pincha turli yosh guruhlari va ta’lim darajasidagi o‘quvchilarda nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda keys usulining samaradorligini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Keys uslubining tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga, ma’lumotlarni tahlil qilish va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlangan ishlar. “Keys-stadi” texnologiyasi asosida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi ham o‘quv, ham amaliy materiallarni har tomonlama tahlil qilishni, shuningdek, ushbu yondashuvni o‘quv amaliyotiga muvaffaqiyatli joriy etish uchun maxsus uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishni talab qiladi.

NATIJARAR.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda o‘quvchilarni o‘qitish va rivojlantirish uchun turli xil turdagi o‘quv holatlari (holatlar) mavjud. Bu holatlar odatda tegishli sohadagi o‘qituvchilar yoki mutaxassislar tomonidan tuziladi va tahlil va qaror qabul qilishni talab qiladigan mavhum yoki xayoliy vaziyatlarni ifodalaydi. Ulardan ko‘pincha oliy o‘quv yurtlarida talabalarni tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirish uchun foydalaniladi. Bu holatlar haqiqiy hayotdagi professional vaziyatlarga asoslanadi va odatda talabalarni haqiqiy ish sharoitlariga tayyorlash uchun ishlatiladi. Bularga biznes, tibbiyot, huquq, ta’lim va boshqa kasbiy sohalaridagi holatlar kiradi. Klinik holatlar ko‘pincha tibbiy ta’limda talabalarga turli kasalliklarni tashxislash va davolashni o‘rgatish uchun ishlatiladi. Ular haqiqiy klinik holatlarga asoslangan bo‘lishi mumkin va talabalarga klinik fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tarixiy holatlar tarixiy voqealar yoki belgilar tahlili bo‘lib, tarixni o‘rganish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ishlatiladi. Ular talabalarga tarixiy voqealarning sabab va oqibatlarini tushunishga, olgan bilimlarini zamonaviy muammolarni tahlil qilishda qo‘llashga yordam beradi. Ijtimoiy holatlar ijtimoiy muammolar va qashshoqlik, tengsizlik, irqchilik va boshqalar kabi muammolarga qaratilgan. Ular talabalarga hayotning ijtimoiy jihatlarini tushunishga yordam beradi va ijtimoiy tahlil va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu va boshqa turdagi o‘quv holatlari o‘quvchilarni bilimning turli sohalarida o‘qitish va rivojlantirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Ular talabalarga olgan bilimlarini amalda qo‘llash, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish hamda real hayot yoki real vaziyatlarda o‘rganish imkonini beradi.

Keys-stadi texnologiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat

T/r	Vazifalari
1	Tahlil ko'nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
2	Nazariya va amaliyot birligini ta'minlash
3	Muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
4	Qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish
5	Noaniqliklar mavjud bo'lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko'nikmalarini shakllantirish

Ta'limda qo'llaniladigan "Keys-stadi"ning tayyor variantlari ham mavjud bo'lib, ularni sotib olish mumkin. Biroq, eng samarali yo'l har bir fan bo'yicha keyslarning mustaqil yaratilishiga erishishdir. Birgina Garvard universitetida yiliga 700 ta keys ishlab chiqiladi. Ularning narxi 10 \$. Ammo ba'zi keyslarning narxi 500 ta 1000 \$ gacha. London biznes maktabi va boshqa biznes maktablar o'zlarida 340 nafarga yaqin ishtirokchilarni birlashtirgan holda keyslarni yaratish bilan shug'ullanadi. Texnologiya talabalarda predmetni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni, amaliy ko'nikmalarni, vaziyatni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilishga nisbatan ijodiy yondashish malakalarini rivojlantiradi, turli muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish asosida ular tomonidan bilimlarning faol o'zlashtirilishi uchun imkoniyat yaratadi[5].

MUHOKAMA.

"Keys-stadi" yordamida talabalar quyidagi ko'nikma, malakalar ga ega bo'ladi:

1. Tahliliy ko'nikmalar (ma'lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma'lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).

2. Amaliy ko'nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo'llay bilish).

3. Ijodiy ko'nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

4. Muloqot ko'nikmalari (unga ko'ra talaba bahs-munozara olib borish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishonitirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko'nikmalarini o'zlashtira bilishi zarur).

5. Ijtimoiy ko'nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida talabalar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda

o'zgalarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildirish olish va o'zini boshqara olishi lozim).

6. O'z-o'zini tahlil (bahs-munozara jarayonida o'zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo'lishi muhim) Har o'qituvchi keys-stadiga asoslangan o'quv topshiriqlarining puxta asoslanishiga erisha olishi lozim.

Keys topshiriqlarining amaliy-didaktik xarakterga ega bo'lishi uchun ularni ishlab chiqishda quyidagilarga e'tiborni qaratish talab etiladi: O'quv keyslarining muhim xarakterli jihatlari talabalarga muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan talabalar e'tiboriga adabiyotlar ro'yxatining taqdim etilishi, ularga metodik ko'rsatma, yo'riqnomalarning berilishi va albatta, o'qituvchi tomonidan muammoning yechimi bo'yicha o'z variantining taqdim etilishi sanaladi. Adabiyotlar ro'yxati o'rganilayotgan muammoga bevosita taalluqli bo'lishi zarur.

Keyslarni yechishga doir metodik ko'rsatma, yo'riqnomalar taxminan shunday bo'lishi mumkin:

1. Keys (muammo) bilan tanishing.
2. Muammoning dolzarbligini baholang.
3. Muammoning dolzarbligini dalillar yordamida izohlang.
4. Keys (muammo)ni samarali yechish yo'llarini aniqlang.
5. Keys (muammo)ning samarali yechimini belgilovchi metod va texnologiyalarni tanlang.
6. Keys (muammo)ning samarali yechimini kafolatlovchi faraz (ilmiy faraz)larni shaklantiring.

Xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida keyslar amaliy va ilmiy tadqiqotlarini tashkil etish maqsadida qo'llanilishi sababli ular odatda murakkab tarkibiy tuzilma hamda o'rtacha (Yevropa), katta (AQSh) hajmga ega bo'ladi. Ko'p holatlarda keyslar birgina mashg'ulot jarayonida hal qilinmay, balki butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida yechiladi. Ularning bu boradagi tajribalaridan bitiruv malakaviy ishlari (bakalavriat), magistrlik dissertasiyalari (magistratura), bitiruv loyiha ishlari (malaka oshirish kurslari)da foydalanish maqsadga muvofiq. O'quv materialining xarakteridan kelib chiqqan holda oddiy, murakkab tarkibiy tuzilishga ega bo'lmagan, ya'ni mini testlardan ham foydalanish amaliy qiymatga egaligi ta'lim amaliyotida o'z tasdig'ini topgan. Aytib o'tilganidek, xorijiy mamlakatlar katta hajmli, murakkab ilmiy-tadqiqot xarakteriga ega keyslar ko'p qo'llaniladi va ularni hal etish butun bir semestr, hatto o'quv yili davomida amalga oshiriladi[6].

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, “Keys-stadi” texnologiyasi asosida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish metodologiyasining ahamiyatini ta’kidlab, asosiy xulosalarni umumlashtirish zarur: “Keys-stadi” texnologiyasi asosida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi ta’limning turli sohalarida faol qo‘llaniladigan o‘qitishning samarali usuli hisoblanadi. Bu usul talabalarda real yoki real vaziyatlarni tahlil qilish orqali tanqidiy fikrlash, tahliliy qobiliyat va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Til ko‘nikmalarini rivojlantirishda “Keys-stadi” dan foydalanishning afzalliklari nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, guruh muhokamasi va bahslarini rag‘batlantirish, interaktiv va qiziqarli o‘quv muhitini yaratish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Qolaversa, bu o‘qitish usuli mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishga undaydi, talabalarda jamoa bo‘lib ishlash va murosa topish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shunday qilib, “Keys-stadi” texnologiyasi asosida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi talabalarni har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiluvchi, ularni muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat va faol fuqarolik hayotiga tayyorlovchi muhim ta’lim vositasidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - T., 2005 y.
2. Tolipov O ., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari.- T .: 2005 u.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar - T., 2003 y. 199
4. N .N . A zizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘ armasi nashriyoti Toshkent 2006
5. Sh.S.Shodmonova va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar.-T: “Fan va texnologiya”, Tosshkent 2011
6. D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma.– Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11407383>

ICHIMLIK SUVI TAQCHILLIGI – ASR MUAMMOSI!

To‘rayev Ulug‘bek Murtazoyevich,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, assistent
u.m.turaev7@mail.ru

Bahodirxo‘jayeva Rufayda Adham qizi
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, talaba

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dunyodagi eng qadrli ne‘mat ichimlik suvi va uning taqchilligi haqida mulohazalar keltirilgan. Shuningdek kanalizatsiya tizimlari, ularning holati, foydalanish samaradorligi bo‘yicha fikrlar bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar:** ichimlik suvi, muzliklar, zaxiralar, iqlim o‘zgarishi, suvni tejash, platforma, taqchillik, dizenfeksiya.*

KIRISH

Suv - bu bebaho boylik, tiriklik manbai. Bu noyob ne‘mat nafaqat insoniyatning yashash tarzi, balki butun mavjudot olamining butun borliqning eng birinchi galdagi zaruriyatidir. Biz deyarli barcha hayotiy ehtiyojlarimizni qondirishni suvsiz tasavvur eta olmaymiz. Yerdagi suvning jami zaxirasi 1385984610 km³ ni tashkil qiladi. Shundan 71 foizini daryo va okean suvlari ishg‘ol qilgan bo‘lsa-da, undagi chuchuk suv miqdori atigi 2,5 foizni tashkil etadi. Chuchuk suvning 70 foizi muz qoplamalarida, 30 foizi esa tuproqdagi nam yoki olish qiyin bo‘lgan yerosti qatlamlarida joylashgan. Yer yuzida mavjud bo‘lgan chuchuk suv zahiralarning bir foizidan insoniyat foydalanishi qayd etilgan. Buning sababi chuchuk suvning hududlar kesimida notekis tarqalganligidir [5]. XXI asrning oxiriga kelib eng qimmatbaho resursga aylanishi bashorat qilingan suvning o‘rnini bosuvchi hech qanday resurs mavjud emas. Maltus nazariyasiga ko‘ra, demografik o‘shish- geometrik progressiya asosida, tabiiy resurslar esa arifmetik progressiyaga binoan ko‘payadi. Bugun chuchuk suv muammosi eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib turgan bir paytda bu nazariya tabiiy resurslar taqchilligi kuzatilayotgani bilan o‘z isbotini topgan. Darhaqiqat, chuchuk suv zaxiralari yildan- yilga kamayib borayotgani, aholining jadal o‘shishi oqibatida iste‘mol suviga bo‘lgan talabi kun sayin oshayotgani tufayli suv tanqisligi yuzaga kelmoqda. Ma‘lumki

2,3 milliard odam suv ta'sirini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi, ulardan 733 millioni suv ta'sirining yuqori va keskin darajasi bo'lgan mamlakatlarda yashaydi. 3 milliard odam sifatsiz suvga tayanadi, ya'ni ular katta xavf ostida, chunki daryolar, ko'llar va yerosti suvlarining holati noma'lum [11].

ASOSIY QISM

Ichimlik suvi aholining hayot sifatini va salomatligini ta'minlashda muhim manba. Shu bois hozirgi vaqtda butun dunyo mamlakatlari ushbu masalaga alohida e'tibor qaratib, ko'plab loyihalarni amalga oshirmoqda. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, suv sifatini yaxshilash va muammoli hududlarga toza ichimlik suvini yetkazish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1960-yildan buyon suvga bo'lgan talab 2 baravarga oshgan. Bunga aholi sonining ortishi, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik, suv toshqinlarining chastotasi va intensivligi oshishi, qishloq xo'jaligi, sanoat va shaharlarning tez sur'atlarda rivojlanishi ta'sir ko'rsatadi. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar Jamg'armasi (UNICEF) va Jahon Banki hamkorligida tayyorlangan hisobotda aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha zarur bo'lgan ustuvor chora-tadbirlar bo'yicha hukumatlarga tavsiyalar berilgan [3]. "Ichimlik suvidan keng foydalanishni ta'minlash ko'plab, asosan, bolalarning hayotini saqlab qoldi. Ammo iqlim o'zgarishi bu yutuqlarga putur yetkazmoqda", deydi JSST ning atrof-muhit, iqlim o'zgarishi va salomatlik departamenti direktori doktor Mariya Neyra. Dunyoning har bir mamlakati o'z aholisining toza ichimlik suvidan ishonchli foydalanishini ta'minlash borasidagi amaliy ishlarni, sa'y-harakatlarni kuchaytirishi kerak. Chunki toza va sifatli suvdan foydalanish har bir insonning huquqidir.[5] Suv ta'minoti va unga talabning o'zgarishi muqarrar bo'lsa-da, bu o'zgarish butun dunyo bo'ylab qanday taqsimlanishi to'liq ma'lum emas. Chunki iqlim o'zgarishi ba'zi hududlarni quruqroq, ba'zilarini esa namli qilishi kutilmoqda. 2040 - yilda eng ko'p suv tanqisligiga uchrashi taxmin qilinayotgan 33 ta davlat orasida, Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan bizning mamlakatimiz O'zbekiston ham bor. Bu holatning oldini olish uchun O'zbekistonda hukumat tomonidan aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha ham ko'p ishlar qilinmoqda. Suv resurslaridan mukammal foydalanishga alohida e'tibor qaratilib, bu borada ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ayniqsa, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "suv resurslaridan foydalanishni ta'minlash" sohasida dolzarb vazifalar belgilangan [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2023-yil 19-25-sentyabr kunlari Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 78-sessiyasida so'zga chiqib: "Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar

platformasini yaratish jarayonida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti suv mexanizmlarini" ishga solib, eng ilg'or texnologiyalarni jalb etish va tatbiq qilish tarafdorimiz", deb ta'kidladilar [10]. Bir necha yillar oldingi taxminlar ya'ni davlat va xalqlar o'rtasida katta- katta nizolar, kelishmovchiliklar, urushlar aynan ichimlik suvi uchun kelib chiqishi bugungi hayotimizda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ichimlik suvi dolzarb muammoga aylanayotgan mamlakatlardan yana 14 tasi Yaqin Sharqda joylashgan, ulardan 9 tasida: Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn, Quvayt, Falastin, Qatar, Isroil, Saudiya Arabistoni, Ummon va Livanda tanqislik yuzaga kelishi kutilmoqda. Suriyadagi qurg'oqchilik va suv tanqisligi mamlakatda 2011-yilgi fuqarolar urushini qo'zg'atgan tartibsizliklarga bevosita aloqador. Suv resurslarining kamayishi va surunkali noto'g'ri boshqaruv 1,5 million odamni o'z yerlarini tark etib, boshqa shaharlarga ko'chib o'tishga va Suriyadagi umumiy beqarorlikni kuchaytirishga majbur qildi. Olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda milliardlab odamlar suv taqchilligiga yuz tutmoqda. 1,2 milliarddan ziyod odam suv zaxiralari kam bo'lgan joylarda, masalan, cho'llarda yashaydi. Yana 1,6 milliard odam iqtisodiy jihatdan suv taqchilligiga uchragan [9]. Bundan kelib chiqadiki, aholi ko'paygan sari, muammolar ko'lami ham kattalashib, ko'payib boraveradi. Bu esa hukumatlarni yanada xushyor torttirib, jiddiy choralar ko'rishga undaydi. BMT uzoq vaqtdan beri insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun suv ta'minotining yetarli emasligi, inson, savdo va qishloq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirish uchun dunyoning suv resurslariga bo'lgan talabi ortib borayotganligi sababli yuzaga kelgan global inqirozni hal qilishga urinib kelmoqda [7].

2010 - yil iyul oyida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan insonning suv va kanalizatsiyadan foydalanishga bo'lgan huquqi tan olingani muhim qadam bo'ldi. Assambleya har bir insonning shaxsiy va maishiy ehtiyojlari uchun, ya'ni kuniga bir kishi uchun 50 dan 100 litrgacha suvga ega bo'lish huquqini tan oldi. Suv xavfsiz, maqbul va arzon bo'lishi kerakligi belgilandi. Barqaror rivojlanish maqsadi (SDG) 6 "barcha uchun suv va kanalizatsiya mavjudligi va barqaror boshqaruvini ta'minlash" g'oyasini o'z ichiga oladi Maqsadlar suv aylanishi va sanitariya tizimlarining barcha jihatlarini qamrab oladi va ularga erishish boshqa bir qator SDGlar, xususan, sog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisod va atrof-muhit bo'yicha taraqqiyotga hissa qo'shish uchun mo'ljallangan. Bilganimizdek, ko'p joylarda markazlashtirilgan kanalizatsiya tizimlari holati mutlaqo qoniqarsiz, chunki aholi zich yashaydigan shahar va tuman markazlarida, ko'plab hududlarda oqova suvlar tozalanmasdan suv manbalariga tashlab yuboriladi. Notoza suv va yomon sanitariya sharoitlari bolalar o'limining asosiy sababidir. Bolalardagi diareya suv ta'minotining yetarli emasligi, sanitariya sharoitlarining qoniqarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi, yuqumli kasallik

qo'zg'atuvchilari bilan ifloslangan suv va noto'g'ri gigiyena qoidalari bilan chambarchas bog'liq [3]. Suvsiz inson yashay olmagani qadar, u inson uchun xavf manbai ham hisoblanadi. Ifloslangan va tozalanmagan suvda turli zararli va jiddiy kasalliklarga olib keladigan moddalar mavjud. Ko'plab tropik kasalliklar ham suv orqali tarqaladi. 2019-yilda diareyaning turli shakllari tufayli dunyoda bir yarim milliondan ortiq odam halok bo'ldi, har yili uch milliongacha odamga yuquvchi xavfli kasallik bo'lgan vabo epidemiyasi 69 davlatda qayd etildi. Diareya 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limining to'rtinchi sababidir. Toza ichimlik suvi muammosini hal etish maqsadida insoniyat ilm- fan yutuqlari asosida turli izlanishlar olib bormoqda [4]. Sifatli va toza ichimlik suvi bilan bog'liq muammolar bizning respublikamiz O'zbekistonni ham chetlab o'tmagan. Yurtimizda ichimlik suvi ta'minoti tizimini takomillashtirish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, suv orqali tarqaladigan yuqumli kasalliklardan asrash va suvning kimyoviy tarkibini o'zgarishi oqibatida vujudga keladigan zaharlanishlarni oldini olish katta ahamiyatga ega hamda ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Suv sifatini yaxshilash, belgilangan standartlar asosida aholiga yetkazib berish suv iste'mol qilish tufayli kelib chiquvchi kasalliklarning oldini olish imkonini beradi. Davlatimizda ichimlik suvining kimyoviy, bakteriologik va organoleptik tarkibi va xususiyatlariga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar O'zDaVSt 950/2000 "Ichimlik suvi" va 28-74-82 "Markazlashgan xo'jalik ichimlik suvi ta'minoti manbalari" deb nomlanuvchi me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va oqova quvur tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu qaror 2017-2021-yillarda mamlakatimizda ichimlik suvi ta'minoti va oqova quvur xizmatlari ko'rsatish samaradorligini oshirish, iste'molchilarning barcha hududlarda sifatli ichimlik suvidan foydalanishni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekistonda davlat suv ta'minoti korxonalarining asosiy vazifalaridan biri, aholini epidemiologik jihatdan xavfsiz, kimyoviy tarkibida zararsiz va qulay organoleptik xususiyatlarga ega sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashdan iborat. Suvning sifat ko'rsatkichlari davlat standarti O'zDSt 951:2011 "Markazlashtirilgan xo'jalik- ichimlik suvi bilan ta'minlash manbalari, gigiyenik, texnikaviy talablar va tanlash qoidalari" talablariga javob berishi shart. Tanlangan manbalardagi suvning sifati O'zbekiston Respublikasi davlat standartining ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasiga to'g'ri keladigan bo'lishi kerak. Ushbu tadqiqotlar har kuni aholi salomatligi uchun suvning xavfsizligini tasdiqlash va turli yuqumli kasalliklarning mavjud emasligini kafolatlash uchun laboratoriyalarda o'tkaziladi. Shu bilan birga, laboratoriyalarda suv tarkibini o'lchashning standart usullari va ushbu sohadagi sanitariya qoidalariga amal qilinadi [6]. Ma'lumotlarga

ko'ra, toza ichimlik suvi va kanalizatsiyadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda sezilarli yutuqlarga erishilayotganiga qaramay, milliardlab odamlar, asosan, qishloq joylarda ushbu xizmatlardan mahrumdir. Dunyo miqyosida har uch nafar fuqarodan biri toza ichimlik suviga muhtoj, har besh kishidan ikkitasida sovun va suv bilan qo'l yuvish vositalari yo'q, 673 milliondan ziyod odam ochiq defekatsiya amaliyotini davom ettirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Suv konferensiyasi" (1977), "Xalqaro ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya o'n yilligi"(1981-1990), "Suv va atrof- muhit bo'yicha xalqaro konferensiya" (1992)- bularning barchasi ana shu hayotiy manba- suv bilan bog'liq masalalarga qaratilgan. 2005-2015-yillardagi "Hayot uchun suv" xalqaro harakat o'n yilligi rivojlanayotgan mamlakatlardagi 1,3 milliardga yaqin odamga xavfsiz ichimlik suvidan foydalanishga yordam berdi va Mingyillik Rivojlanish Maqsadlariga erishishga qaratilgan sa'y-harakatlarning bir qismi sifatida sanitariya bo'yicha yutuqlarga erishdi [8].

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari, hukumatlar tomonidan ichimlik suvi va undan foydalanish bilan bog'liq muammolarga qator yondashuv va yechimlar kiritilmoqda. BMT ekspertlari butun dunyo bo'ylab ichimlik suvi sifatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar to'plamini ishlab chiqdi. Bunda asosiysi shundan iboratki, suv ta'minoti tizimini yaratishga strategik sarmoyalar kiritish zarurligi, bu nafaqat moliyalashtirishni ko'paytirishni, balki iqlim o'zgarishi sharoitida ayniqsa muhim bo'lgan davlatlararo muvofiqlashtirish va tartibga solishni kengaytirishni ham talab qiladi. Undan tashqari suv, salomatlik va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik to'liq ko'rsatilgan. Tavsiyalarga quyidagilar kiradi: normativ- huquqiy bazani yaratish va xizmatlar sifati standartlarini belgilash, suv ta'minoti sohasini moliyalashtirishni ko'paytirish, korxonalar faoliyati samaradorligi va unumdorligini oshirish, suvni tozalash va yetkazib berish sohasida malakali ishchi kuchini yaratish. Butun dunyoda suv ta'minoti sifatini oshirishning muhim omili, BMT ekspertlarining fikricha, mamlakatlar ayniqsa, ichimlik suvi bilan bog'liq shu kabi muammolar yuzaga kelgan mamlakatlar o'rtasida bu boradagi ma'lumotlar va tajribalarni to'plash va almashish bo'ladi. BMTning uchta tegishli agentligi ekspertlari tomonidan tayyorlangan hujjatda turli mamlakatlarning qishloq joylarida ham, shaharlarda ham aholini toza va xavfsiz ichimlik suvi bilan ta'minlash muammosi qanday hal qilinayotgani misollari keltirilgan. Shu bilan birga muammolarni turli darajada hal etish ya'ni, mahalliy darajada suvni jamlash, ishlatilgan suvni tozalab, qayta foydalanishga ko'proq mablag' ajratish, qishloq xo'jaligi va sanoatda suv qayta ishlatilishi mumkinligi, milliy darajada hukumatlar suv taqsimotiga oid puxta dasturlar ishlab chiqishi lozimligi kabi vazifalar belgilangan. Qo'shimcha tarzda aytish mumkinki, daryo va ko'l kabi suv manbalari bir mamlakat hududida boshlanib, boshqasida davom etishi mumkin. Bunday hollarda

davlatlar mintaqaviy shartnoma tuzib, suvni adolatli taqsimlashi kerak. Aks holda mintaqaviy tinchlikka xavf tug'iladi [11]. JSST va UNICEF tomonidan e'lon qilingan hisobotga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha 2 milliard odamning toza ichimlik suvi, 3,6 milliard kishining sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyati cheklangan. Shu ikki omil yiliga 1,4 millionga yaqin insonning o'limiga sabab bo'lmoqda. Hatto millionlab bolalar va kattalar sovun kabi oddiy gigiyena vositasidan foydalanish ko'nikmasiga ega emas. Qator sog'liqni saqlash muassasalarida suv, dezinfeksiya vositalari va spirtli eritmalar yo'q. Qolaversa, mutaxassislar kanalizatsiya tarmoqlari yetishmasligi halokatli oqibatlarga sabab bo'lishidan ogohlantirmoqda. Shu bois qo'shma hisobotda hukumatlarga suv va kanalizatsiya uchun davlat xarajatlarini oshirish hamda bu sohada innovatsion yechimlarni joriy etish tavsiya etilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, suvsizlik bu - asrning global muammosi ekan, bunga barcha dunyo davlatlari birgalikda kurashishi, bir-biriga yordam berishi, aholi esa suvdan foydalanish madaniyatini his qilgan holda amal qilishlari kerak. Chunki bir yerda suv bilan bog'liq muammo kattalashgani sari u yerda hayot umidi so'nib boraveradi. Suvga ehtiyoji bor jamiki jonzotlar esa suvli mamlakatlarga qarab ko'cha boshlaydi. Va bu o'sha davlatning ham muammosiga aylanadi. Tabiatga bo'lgan qaltis munosabatimizning salbiy ta'siri o'laroq, sayyoramizning barcha kengliklarida iqlim o'zgarishlari ro'y berayotganini sezishimiz mumkin. Holbuki, ona- tabiatga bo'lgan har qanday nomutanosib xatti- harakatlar iqlim o'zgarishiga haqiqatdan ham nojo'ya ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Shuning uchun ham ekologik muvozanat yildan yilga yomonlashib borayotgani, bunga esa asosan inson omili ya'ni o'zimiz sababchi ekanligimiz achinarli holdir, ya'ni, bizga in'om etilgan ne'matlarni, tabiiy resurslarni asrash ham, isrof qilish ham aynan biz insonlarning qo'limizda. Suvning tanqisligiga olib keluvchi omillarning katta qismi ham bizning suv va suv resurslaridan qay darajada foydalanishga bo'lgan yondashuvimizga bog'liq. Bugun iqlim o'zgarishi, aholi sonining keskin o'sishi, qishloq xo'jaligining rivojlanishi suvga bo'lgan ehtiyojning yanada oshishiga sabab bo'lmoqda. Toza va sifatli ichimlik suviga ega bo'lish va uni kelajak avlodlarga ham yetkazishimiz uchun avvalo suvni tejashimiz lozim bo'ladi. Toza suvdan samarali va yetarli darajada foydalanish kelgusi avlodning ham huquqi hisoblanadi [12]. Ta'kidlash joizki, hukumatimiz tomonidan tomchilatib sug'orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug'orish texnologiyalarini joriy etishga oid amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlar e'tiborga molik ishlardandir [2]. Demak, shu kabi amaliy ishlar, choralar orqali toza ichimlik suvini barqarorlashtirish yo'lida katta qadam tashlagan bo'lamiz va bu orqali nafaqat toza ichimlik suvi muammosini, balki atrof-muhit muhofazasi va sog'liqni saqlash sohalaridagi ko'pgina

salbiy holatlarni ham kamaytirishga erishamiz. Hozirgi kunda tabiiy zaxiralarni tejash, salomatligimizga daxldor bo'lgan tabiat ne'matlarini ko'z qorachig'idek asrash, xususan, iste'mol uchun yetkazib berilayotgan ichimlik suvining bizga yetib kelguniga qadar minglab insonlarning mashaqqatli mehnati ham yotganligini unutmasligimiz darkor. Ichimlik suvini asrashga va undan kelajak avlodni ham hozirgidek bahramand qilishga har bir inson javobgardir. Dunyoni birgalikda bu inqirozdan qutqarishimiz lozim!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bo'riyev S., Maxkamova D., Sherimbetov V. "Ekologiya va atrof muhit muhofazasi", Toshkent- 2018 y.
2. Salohiddinov A. T., Xalmirzayeva M. I., Valiev X. I. "Ekologiya", Toshkent-2010 y.
3. Краткий обзор. Доклада о прогрессе 2021 года: ЦУР 6- водоснабжение и санитария для всех.
4. <https://www.yuz.uz>
5. <https://uzreport.news>
6. <https://www.xabar.uz>
7. <https://www.amerikaovozi.com>
8. <https://daryo.uz>
9. <https://kun.uz>
10. <https://president.uz>
11. <https://qalampir.uz>
12. <https://uzsuv.uz>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11407395>

ЖАНРОВЫЙ ПОДХОД К ОБУЧЕНИЮ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ КАК ЯЗЫКУ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СПЕЦИАЛЬНОСТИ

Аташикова Нилуфар Анарматовна

Ташкентский Университет Информационных
Технологий имени аль-Хорезми, и.о. доцента

***Аннотация.** В настоящей статье рассматривается роль жанрового подхода (ЖП) к обучению английскому языку как языку экономической специальности его влияние является основополагающим фактором при формировании профессиональной компетентности студентов будущих специалистов. Данное направление основывается на интеграции профессионально-ориентированного содержания обучения в программы, учебную и методическую литературу для имплементации в академический процесс по английскому языку.*

***Ключевые слова:** жанровый подход (ЖП), английский язык, язык экономической специальности, профессиональная компетентность, академический процесс.*

ВВЕДЕНИЕ

Направление «Английский язык для специальных целей» (далее ESP) в методике обучения иностранным языкам является основополагающим фактором при формировании профессиональной компетентности студентов будущих специалистов. Данное направление основывается на интеграции профессионально-ориентированного содержания обучения в программы, учебную и методическую литературу для имплементации в академический процесс по английскому языку. Отметим, что в Узбекистане к проблеме обучения ESP в последние годы обращены многие исследования. Например, диссертация Х.Ф. Максудовой посвящена проблеме развития профессиональной компетентности студентов фармацевтического направления в процессе обучения английскому языку. Автор предлагает развивать речевые компетенции в четыре этапа, а именно 1) общего профессионального, 2) общего академического, 3) специального профессионального, 4) специального академического английского языка [1]. Этапы обучения ESP сохраняет свою целесообразность при

развиваемом Х.Ф. Максудовой контент-ориентированном подходе (Content-Based Approach), направленном на обучение специальной лексике и на формирование навыков иноязычной профессиональной речи. Опыт использования в теории и практике преподавания ESP контент-ориентированного подхода, на наш взгляд, может оказаться необходимым в процессе формирования профессиональной компетентности у студентов - экономистов при обучении английскому языку. Диссертационное исследование Д. Исроиловой может служить примером проблемы обучения ESP, в котором предложена методика, разработанная на базе интегративного подхода, предполагающего собой «реализацию межпредметных связей с профессиональным английским языком с учётом интеграции учебных дисциплин: общеобразовательные предметы, общепрофессиональные предметы, общетехнические предметы и общеспециальные предметы» [2].

Методические школы, занимающиеся проблемами ESP, выделяют важные аспекты системы обучения, которые не только помогают студентам изучить лингвистическую и социолингвистическую специфику языка специальности на основе ее жанровых и дискурсивных особенностей, но и формируют их социокультурное восприятие сходств и различий в одноименных профессиях, а также воспитывает в них патриотизм, толерантность, конкурентоспособность, умение сотрудничества в профессиональных целях. К вышеуказанным аспектам обучения относятся: технический вокабуляр (терминология по специальности); жанровый анализ (установление стилистической специфики языка специальности на основе лингвистического своеобразия); дискурсивный анализ (определяет языковые особенности профессионально-ориентированных текстов); социокультурный подход (помогает идентифицировать сходства и различия конкретной профессии в родной стране и в англоговорящих странах); использование материалов корпусной лингвистики для отбора содержания обучения по английскому языку.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Подход означает общую исходную позицию, отталкиваясь от которой исследователь рассматривает большинство своих остальных положений. Дискуссионным остается вопрос соотношения метода и подхода. Отечественные методисты и большинство зарубежных исследователей считают, что подход к обучению играет основополагающую роль и является доминирующей идеей, на которой строится новый метод. Метод и подход взаимосвязаны и взаимозависимы, для них характерно постоянное взаимодействие.

Исследователи единодушно высказывают мнение о том, что не существует абсолютно правильного и эффективного для всех условий обучения метода и приходят к выводу, что необходимо комбинирование различных подходов, принципов и элементов различных методов с учетом специфики обучения, поскольку то, что эффективно в одних условиях, может иметь совершенно противоположный результат в иных условиях обучения.

В этой части нашего исследования, на примере экономической специальности, мы представим важность жанрового подхода в методике обучения английскому языку как языку специальности. Понятие «жанр» (и связанное с ним понятие «жанровый анализ») представляет собой весьма обширную и не всегда достаточно четко определённую область исследования современного английского языка. В современной зарубежной (прежде всего, англоязычной) науке можно выделить три основные школы жанрового анализа: 1) Новая Риторическая школа (США); 2) Австралийская школа⁶⁰; 3) школа ESP (English for Specific Purposes).

Один из важных в ESP методистов J. Swales разработал подробную схему проведения жанрового анализа на примере написания введения к научным статьям. Его теория жанрового анализа включает в себя ряд базовых постулатов в отношении понятия «жанр» [5].

Жанровый подход (genre-based approach) в преподавании ESP разрабатывается с конца 1960-х гг. и по наши дни. Теоретики – методисты жанрового анализа исходят из того, что наиболее значимые тексты нехудожественной прозы являются результатом определенной социальной практики. Следовательно, важнейшие внутренние (содержательные) и внешние (формальные) характеристики письменного научного дискурса (включая его цель, функции, способ структурной организации, стилевую принадлежность, контекстность и даже формулировку темы в виде заглавия) определяются традицией институциональной культуры, в рамках которой дискурс существует. Таким образом, жанровый подход базируется на изучении и соотнесении, с одной стороны, сообществ, социумов, в данном случае академических, (discourse community /disciplinary community), а с другой стороны, собственно жанров научной речи (genres), которые эти сообщества создают и используют.

Овладение речью на любом языке исключено вне ее жанровых форм. В ситуациях восприятия и порождения речи жанр как модель высказывания, отвечающая стратегии речи, первым актуализируется в сознании и предшествует появлению языковых средств, оформляющих мысль. «Жанры общения не являются внешним условием коммуникации... Они присутствуют в сознании

языковой личности в виде фреймов, влияющих на процесс разворачивания мысли в слово». Восприятие и порождение речи опирается на знание эталонов, моделей, сценариев речевого взаимодействия, которые существуют в сознании носителя языка в виде инвариантов (в терминологии К.Ф. Седова — жанровых фреймов) и имеют национальную и культурную специфику[4].

Система жанровых представлений становится присущей сознанию человека структурой, которая «одновременно отражает представления о социальных формах взаимодействия людей и речевых нормах коммуникативного оформления этого взаимодействия»⁶⁴. До специального обучения овладение жанрами речи происходит интуитивно. Поэтому без специально организованного обучения, как отмечает Л.В. Хаймович, «многие профессиональные жанровые навыки человеку приходится приобретать с опозданием и неизбежными в этом случае коммуникативными и социальными потерями»⁶⁵. Осознание жанровых форм и сознательное овладение ими способствуют становлению и языковой личности носителя языка, и вторичной языковой личности инофона. По мере развития языковой личности жанровый репертуар обогащается в ходе решения коммуникативных задач, встающих перед человеком в его деятельности — игровой, учебной, профессиональной.

Таким образом, жанры составляют неотъемлемый компонент содержания языкового образования, а богатство жанрового репертуара может рассматриваться как один из базовых показателей социально-культурного развития языковой личности. Жанры речи стали предметом исследования в работах многих авторитетных ученых (М.М. Бахтина, А. Вежбицкой, В.В. Дементьева, В.Е. Гольдина, О.Б. Сиротининой, К.Ф. Седова, В.А. Салимовского, М.Ю. Федосюк, Т.В. Шмелевой и многих др.), подготовивших почву для методической разработки проблемы. Понятие «речевой жанр» введено в научный оборот М.М. Бахтиным в 20-е гг. XX в. Следуя концепции ученого, И.Н. Горелов, К.Ф. Седов определяют речевые жанры как «вербально-знаковое оформление типических ситуаций социального взаимодействия людей».

РЕЗУЛЬТАТЫ

Изучением жанровой специфики экономической специальности выявлено следующее. Изменения в экономической модели развития Узбекистана в связи с провозглашением независимости привели к увеличению спроса на высококвалифицированных специалистов в сфере экономики, экономически компетентных специалистов других смежных с этой профессией сфер общества (финансистов, менеджеров-экономистов, бухгалтеров, и др.). В данной социальной ситуации актуальной становится необходимость идентификации в

методике ESP современной интерпретации понятий «экономический жанр» и «экономический дискурс», которые взаимообусловлены и взаимосвязаны. Выделение экономических жанров и исследование их функционально-стилистических, лингвопрагматических, социолингвистических и социокультурных особенностей обеспечит студентов глубоким пониманием сути будущей профессии как на родном так и на английском языке. Конец XX в. обозначился увеличением научных исследований текстов экономической публицистики (Е. О. Шибанова), экономического дискурса (К. В. Томашевская), отдельных жанров экономического текста (Е. Г. Баянкина), толкования экономического текста (Н. К. Кравченко), экономического текста как социокультурного феномена (И. В. Мурудян).

Для более точного понимания понятия «экономический жанр» мы считаем целесообразным представить значение термина «экономика». Экономика (от гр. *oikonomia* – управление хозяйством) является важнейшей сферой общественной жизни, «в которой на основе использования различных ресурсов осуществляются производство, обмен, распределение и потребление продуктов человеческой деятельности, формируется и постоянно развивается система производительных сил и экономических отношений, которыми управляют различные типы экономических законов».

Изучены вариативность и специфика экономического жанра для дальнейшего использования в методических целях в процессе обучения английскому языку как языку специальности. В научно-методической литературе выделяются следующие виды экономических жанров в ESP:

Business English (деловой английский) - особый раздел английского языка, который фокусируется на коммуникации в деловой сфере. Он включает термины, выражения и жаргон, применяемые в экономике.

Economic Reports (экономические отчеты) - стандартный жанр, который используется для представления и анализа экономической информации, статистики, прогнозов и данных.

Financial Analysis (финансовый анализ) - жанр, связанный с анализом финансовой отчетности компаний, инвестиционными стратегиями и оценкой финансовой устойчивости.

Business Plans (бизнес-планы) - жанр описывающий бизнес-стратегии, бюджеты, прогнозы доходов и расходов, а также другую информацию, необходимую для запуска и развития компании.

Trade Agreements (торговые соглашения) - тип текстов содержащий правовую и экономическую информацию о соглашениях между странами или компаниями для обмена товарами и услугами.

Economic Policy Papers (документы экономической политики) - документы содержащие анализ экономической политики и рекомендации для улучшения экономической ситуации.

Financial News (финансовые новости) - жанр включающий новости и анализ событий, влияющих на экономику, рынки и финансовую сферу.

Academic Journals (академические журналы) - жанр, представленный публикациями исследований и статей по экономическим темам, направленные на аудиторию профессионалов и ученых.

В каждом из описанных жанров присутствуют специфические термины и стиль, который подходит для определенной коммуникации и аудитории в экономической сфере.

ОБСУЖДЕНИЕ

Всемирные процессы в мировой экономике, а также любые изменения в экономике государства имеют свое освещение в средствах массовой информации (СМИ), масс-медиа: пресса (газеты, журналы, книги), радио, телевидение, Интернет, рекламные щиты и т. п. Общей характеристикой для всех средств является обращение к массовой аудитории, доступность многим людям и распространение информации. Так, именно периодические издания сообщают о фактах и событиях в мире экономики, формируют ценностное отношение к ним, побуждают к характеристике и оценке экономических процессов как отдельными гражданами, так и социумом в целом.

Язык экономического жанра характерен использованием разнообразной терминологии, грамматических форм и произносительных звуко-буквенных соответствий, интонационных моделей и просодических качеств для отражения жанровой и дискурсивной специфики профессионально-ориентированной коммуникативной ситуации и эффективного достижения цели общения.

Жанровый анализ в направлении английский язык для специальных целей проводится с целью выявления языковых и неязыковых трудностей и разработки методических рекомендаций для их преодоления. Этот процесс заключается в различении жанров в экономическом английском языке на основе лингвистической и экстралингвистической специфики видов устных и письменных дискурсов характерных для данной профессиональной сферы. В методике ESP, по мнению ученых, жанры могут быть представлены следующим образом вне зависимости от сферы деятельности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Несмотря на тот факт, что жанровая палитра представлена почти однотипно, за исключением профессионально-ориентированной сферы, это не означает, что эти жанры одинаковы с точки зрения языковых и неязыковых особенностей, отражающих специфику дискурсов по специальности. Жанр «статьи», например, можно подразделить на научные статьи, профессионально-

ориентированные статьи, статьи публицистического характера, но понятно, что содержание статей будет различаться терминологией, грамматическими формами и иногда даже организацией. Жанр «литература» включает учебную, научную, профессионально-ориентированную, художественную, методическую литературу и т.д., посвященную конкретной специальности. Жанр «документы» также может делиться на личные и социальные документы, используемые в рамках профессиональной деятельности. Жанр «законы» связан с указами президента, постановлениями, резолюциями, законодательными актами, декретами, которые регулируют сферу профессиональной деятельности. Жанр «профессионально-ориентированная деятельность» связан с конкретными особенностями профессии, которые не вошли в предыдущие представленные жанры. Так, например, в юридической терминологии в английском языке сюда может входить «судопроизводство», в медицинской терминологии в английском языке «операционная деятельность», в экономической терминологии в английском «банковские операции» и т.д.

Таким образом, жанровый подход в обучении английскому языку как языку специальности позволяет технологично подойти к отбору содержания обучения с учетом интеграции в программы и учебники необходимого контента для формирования профессиональной компетентности.

ЛИТЕРАТУРА

1. Максудова Х.Ф. Развитие профессиональной компетентности студентов фармацевтического направления в процессе обучения английскому языку: Автореф. дисс. ... доктора философии (PhD) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2021. – 54 с.

2. Исроилова Д.М. Профессионально ориентированное обучение студентов английскому языку с учётом межпредметных связей в нефилологических вузах (на примере технологического факультета): Автореф. дисс. ... доктора философии (PhD) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2020. – 58 с.

3. Л.Р. Сакаева, А.Р. Баранова, Методика обучения иностранным языкам (учебное пособие для студентов Института математики и механики им. Н.И. Лобачевского по направлению «педагогическое образование (с двумя профилями подготовки)»). – Казань, КФУ, 2016. – 8с.

4. Седов К.Ф. Психолингвистический аспект изучения речевых жанров // Антология речевых жанров: повседневная коммуникация. М.: Лабиринт, 2007. С. 125.

5. Swales J.M. Research Genres: Exploration and Applications. – Cambridge University Press, 2004.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11407422>

UO‘K 373.1

O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH UCHUN ZARUR BO‘LGAN SHAXS XISLATLARINI TARBIYALASHGA YO‘NALTIRISH OMILLARI

Q.B.Djo‘rayev

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, NVHXTXQTMOHM amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim metodikasi kafedrasini mudiri

Annotatsiya: yolg‘on do‘stlikka asoslangan guruhlar zararsizlantiriladi, haqiqiy jamoadagi do‘stlik mohiyati tushuntiriladi.

Kalit so‘zlar: o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘smir, omil, do‘stlik.

УДК 373.1

ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ, НЕОБХОДИМЫХ ДЛЯ САМОСОЗНАНИЯ И САМОУПРАВЛЕНИЯ

Джураев К.Б.

Кандидат педагогических наук, доцент, заведующий кафедрой прикладных наук и методики внешкольного образования NVHXTXQTMOHM

Аннотация: нейтрализованы группы, основанные на ложной дружбе, разъяснена сущность дружбы в реальном сообществе.

Ключевые слова: самосознание, самоуправление, отрочество, фактор, дружба.

UDC 373.1

FACTORS TO GUIDE THE DEVELOPMENT OF PERSONALITY TRAITS NECESSARY FOR SELF-AWARENESS AND SELF-MANAGEMENT

Q.B.Djurayev

Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor, Head of the Department of Applied Sciences and Methods of Extracurricular Education NVHXTXQTMOHM

Annotation: groups based on false friendships are neutralized, the essence of friendship in a real community is explained

Keywords: self-awareness, self-management, adolescence, factor, friendship.

Yolgʻon doʻstlikka asoslangan guruhlar zararsizlantiriladi, haqiqiy jamoadagi doʻstlik mohiyati tushuntiriladi. Turli shakllarda sharoitga qarab oʻsmir yoshdagi oʻquvchilarga ish bilan soʻz, ezgu maqsadlar va gʻayri axloqiy xatti-harakatlar oʻrtasidagi farq tushuntiriladi, hajv ostiga olinadi yoki tanqid qilinadi, xudbinlik va dimogʻdorlikning har qanday koʻrinishi ochib tashlanadi.

Faollar va pedagoglar jamoa ish rejalarining soʻzsiz bajarilishiga erishadilar va sinf majlislarida qabul qilingan qarorlarning bajarilishini maʼlum qilishadi. Namunali oʻquvchilarning sinfdoshlari, kattalar va kichiklarga munosabatlaridagi maʼnaviy odilligi namuna qilib koʻrsatiladi. Jamoaviy faoliyatda yuz beradigan munosabatlardan tanqid va oʻz-oʻzini tanqid qilish koʻnikmasini rivojlantirishda oʻquvchilar jamoasi hayotining barcha masalalari boʻyicha jamoatchilik fikrini har tomonlama mustahkamlashda foydalaniladi.

Oʻquvchilarning maʼnaviy oʻzligini anglashda ular jamoasining shakllanganligi yetakchi ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda oʻzlikni anglashga tayyorgarlikning aniq pedagogik-psixologik mazmuni ishlab chiqildi. Shuning uchun boshlangʻich sinflarda kattalar va tengdoshlar axloqini namuna sifatida koʻrsatish maqsadga muvofiqdir.

Oʻsmir yoshdagi oʻquvchilarda oldingi rejaga asosan oʻz-oʻzini namoyon qilishi, mavqe egallashining tayanch sohasi boʻlgan muloqot muhim oʻrin tutadi. Bu oʻrinda ham oʻquvchilar muhitida qabul qilingan qadriyatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli aynan munosabatlar madaniyati tizimida jamoa fikrining shakllantirilishiga jiddiy eʼtibor berish lozim.

«Oʻgʻil va qiz bolalar oʻrtasidagi munosabatlar qanday boʻlishi kerak?», «Kimni haqiqiy doʻst deyish mumkin?», «Doʻstlikning muqaddas torlari», «Farzand burchi», «Erkaklik gʻururi» kabi mavzularda suhbatlar uyushtirish lozim. Tarbiya jarayoniga maktabni yaqinda tugatgan, qisqa muddat ichida koʻp narsani koʻrgan, yaxshi oila qurgan, mehnat jamoalarida faoliyat koʻrsatayotgan yoshlarni ham jalb qilish mumkin. Ularning fikr-mulohazalari oʻsmir yoshdagi oʻquvchilarga katta taʼsir koʻrsatadi.

7-8-sinflarda kamchiliklar va salbiy sifatlarni yengib oʻtishga intilish kuchayadi. Shuni hisobga olgan holda bu yoshdagi oʻsmirlar bilan «Oʻz kamchiliklarini qanday bartaraf etish mumkin?» mavzuida suhbat oʻtkaziladi. Bu suhbatda albatta qanday qilib koʻpgina iqtidorli kishilarga salbiy sifatlari zarar keltirgani, ishyoqmaslik oqibatida salohiyat yoʻqolishi, xudbinlik qanday kulfatlar keltirishi, qoʻrqoqlik kishilarni xiyonatga yetaklashi va boshqalar toʻgʻrisida oʻquvchilarga hikoya qilib berish zarur. Keyin esa u yoki bu kamchilikning kelib chiqishi toʻgʻrisida toʻxtalish lozim. Masalan, oʻziga ishonchsizlik ishdan qochish, undan qoʻrqish, tortinuvchanlikka keyin esa qoʻrqoqlik, nihoyat, tubanlik, xoinlikka yoki ishyoqmaslik, birovlar hisobiga kun

ko'radigan ayanchli kishilar holatiga olib borishi tushuntiriladi. Bunday nuqsonlarning paydo bo'lish sabablarini ochib berishdan ham cho'chimaslik lozim.

Bolalikdan boshlab hamma narsadan lazzat olishga o'rgangan beqaror kishilarning giyohvandlik illatiga duchor bo'lishi tasodifiy hol emas: ular dastlab chiroyli kiyinishga o'rganishadi, keyin cheklanmagan lazzatlardan rohatlanishadi, boshqacha aytganda, yaratishga emas, iste'mol qilishga odatlanishadi. Nihoyat, bekorchilikdan spirtli ichimlik, shovqin-suronli musiqa, so'ngra giyohvandlikdan o'tkir lazzat izlashadi. Nuqson, qusur, to'g'rirog'i, kasofat shunday shakllanadi: boqimandalik natijasida har qanday sharoitda, har qanday baho evaziga kayf-safoga intilish vujudga keladi.

Bugungi kunda madaniyat, insoniy oliyanoblik, intellektuellikning real cho'qqisi nima? Bu savolga javob berishda o'qituvchi faqat o'tmish haqida emas, balki zamonamiz, oddiy vijdonli kishilar haqida ham gapirishi lozim. Mashhur kishilar bilan qiziqarli uchrashuvlar o'tkazish orqali ularda kuzatuvchanlikni tarbiyalash, o'zga inson ma'naviy dunyosini tushunishga odatlantirish, bularning barchasini o'ziga nisbat berish ko'nikmasi bilan bog'lash zarur.

Insonning baxti uchun o'tkir aql, ezgu yurak, sof vijdon, g'alabaga bo'lgan ishonch va iroda, ishda yuqori kasb mahorati zarur. Bu xislatlar har qanday kamchilik va nuqsonlarni yengib o'tish uchun imkonini ham beradi. SHuning uchun ham o'quvchida ijobiy xislatlarni rivojlantirmay turib, salbiylarini yengishga uni odatlantirib bo'lmaydi.

O'smir yoshdagi o'quvchilarning o'zligini anglash, bilish va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatishda ko'rsatmalardan foydalanish, bizningcha, yaxshi samara beradi. O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy o'zligini anglashda bunday ko'rsatmalar u yoki bu kamchiliklarni bartaraf qilishda keng qo'llaniladi. Bu tavsiyalar o'z-o'zini takomillashtirish vazifalaridan kelib chiqishi zarur. Bundan tashqari biz o'quvchilarni ijtimoiy faoliyat sohasida o'zligini anglaganlik va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini aniqlashda foydalanish uchun maxsus so'rov varaqasini ham ishlab chiqdik va u biz ko'zlagan maqsadga erishishda yaxshi samara berdi.

9-11-sinflarda o'zlikni anglash va o'z-o'zini boshqarish vositalaridan biri sifatida jamoat topshiriqlaridan keng foydalaniladi. Har bir topshiriq o'quvchidan qat'iyatlilik, iroda, birso'zlik, haqqoniylikni talab qiladi. Doimiy topshiriqlar orqali shaxs yo'nalishini shakllantirish, jamoada o'z-o'zini chuqur bilishi va takomillashtirish uchun berilishi maqsadga muvofiqdir. Afsuski, bu narsaga hamisha ham yaxshi e'tibor berilavermaydi.

Vaqtinchalik topshiriqlar, asosan, o'quvchi o'zining kamchiliklarini tushunib yetishi uchun beriladi. Masalan, mehnatsevarlik, tirishqoqlik yetishmaydigan

o'quvchiga biri ketidan ikkinchisi keladigan topshiriqlar to'plami beriladi (sinf mebellarini ta'mirlash, maktab hovlisidagi sinf hududini tozalash, navbatchilik va hokazo).

Topshiriqlar individual va jamoaviy bo'ladi. Individual topshiriqlar o'quvchining shaxsiy xislatlarini rivojlantirish uchun beriladi, ular jamoaviy topshiriqlarga nisbatan kamroq qo'llaniladi. Jamoaviy topshiriqlar, asosan, ma'naviy o'zlikni anglash maqsadlariga xizmat qiladi, tashkilotchilik sifatlarini rivojlantiradi, bo'ysunish va rahbarlik qilish, o'z harakatlarini o'rtoqlariniki bilan muvofiqlashtirish, shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy manfaatlarga bo'ysundirishga o'rgatadi. Biroq jamoaviy topshiriqda umumiy ishning u yoki bu qismi uchun shaxsiy javobgarlik mavjud bo'lishi kerak.

Jamoaviy topshiriqlar jamoa tashabbusi bilan bo'lsa va ayni paytda o'quvchining qiziqishlari, mayli va kamchiliklarini hisobga olsa, tekshirishning bajarilish sifati jamoa tomonidan nazorat qilinsa va baholansa o'zlikni anglash va o'z-o'zini boshqarish maqsadlariga xizmat qiladi. Jamoaviy topshiriqning tarbiyaviy ta'sirini oshirish uchun sinf rahbari pedagogik homiylik va topshiriqlarni taqsimlanishdan voz kechishi lozim.

Kuzatishlarimiz jarayonida shu narsa aniqlandiki, guruhli topshiriqlar ham o'zini oqladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, topshiriqlar ma'naviy o'zlikni anglash va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatishga xizmat qilishi uchun har bir o'smir yoshdagi o'quvchi majburiyat doirasini aniq belgilash, umumiy ishni baholashning mezonlarini ko'rsatish, kutilayotgan qiyinchiliklar to'g'risida ogohlantirish va ularni bartaraf qilish yo'llaridan xabardor qilish, o'quvchilar o'zlariga berilgan topshiriqlarning samarali bajarishlari uchun o'z ustlarida qanday ishlash lozimligi to'g'risida maslahatlar berish kerak. Umumiy jamoa bo'lib ishlash jarayonida o'quvchilar bir-birlarini qadrlashga o'rganishadi.

Tashqi omillarning o'quvchi ichki dunyosiga ta'sirini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tarbiyaviy jarayonni aniq pedagogik vazifalarga: maqsad va ideallarni shakllantirish, o'zlikni anglash va o'z-o'zini boshqarish uchun zarur bo'lgan shaxs xislatlarini tarbiyalashga yo'naltirish lozim.

FOYDALANILLGAN ADABIYOTLAR/ REFERENCES

1. Munavvarov A.K. Педагогические условия повышения эффективности семейного воспитания. «Фан», -Т.: 1989 . -110 с.
2. Munavvarov A.Q. Oila pedagogikasi. -Т.: «O‘qituvchi», 1994. -100-101 bet.
3. Xasanov T.X . Теоритические и методический осново воспитания дисциплинированности и культуру младших школьников в целостном учебно-воспитательном процессе. АДД. -Т.: 1993.
4. Вахрамов Q. O‘smirlarning o‘zligini anglash va o‘z-o‘zini boshqarishga o‘rgatishning pedagogik omillari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissyertatsiyasi. 2006 yil. Toshkent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11407438>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUV JARAYONINI ZAMONAVIY, INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Hamdamova Nafisa Xayritdinovna

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi.
Maktabgacha boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikasi kafedrası katta o‘qituvchisi
Bunyoddilfuz@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy innovatsion texnologiyalar, ijodiy va mantiqiy tafakkur, Boshlang‘ich ta‘limda interfaol metodlar zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati, o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalar orqali ta‘lim berish, interfaol metodlardan foydalanish orqali pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borishga imkon yaratilishi bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ijodiy va mantiqiy tafakkur, o‘z-o‘zini anglash, uzluksiz ta‘lim, samarali ta‘lim tarbiya.*

ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ, ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Хамдамова Нафиса Хайритдиновна

старший преподаватель кафедры методики дошкольного начального и
специального образования
Навоийского областного Национального центра обучения педагогов новым
методикам
Bunyoddilfuz@gmail.com

***Аннотация:** В данной статье описаны современные инновационные технологии, творческое и логическое мышление, интерактивные методы в начальном образовании современные технологии-это совместная деятельность учителя и учащихся, обучение учащихся с помощью современных технологий, использование интерактивных методов, позволяющих систематически совершенствовать педагогическую деятельность.*

***Ключевые слова:** творческое и логическое мышление, самосознание, непрерывное образование, эффективное воспитание.*

ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRIMARY SCHOOLS BASED ON MODERN, INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Hamdamova Nafisa Khayritdinovna

National Center for teaching educators of Navoi region to new methodologies.

Senior teacher of the Department of primary and special education
methodology in preschool

Bunyoddilfuz@gmail.com

***Abstract:** This article describes modern innovative technologies, creative and logical thinking, interactive methods in primary education modern technologies are the joint activity of teachers and students, teaching students using modern technologies, the use of interactive methods that allow systematic improvement of pedagogical activity.*

***Keywords:** creative and logical thinking, self-awareness, continuing education, effective upbringing.*

KIRISH: Bugungi kunda o'quv jarayonini zamonaviy innovatsion texnologiyalari dan, innovatsion usullardan foydalanib, shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'lim nazariyasini yaratish kabi vazifalar dolzarb bo'lib qolmoqda. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri – ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishdan iborat. Jamiyat va davlatning kelajagi asosan yosh larning qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Sababi, yoshlar uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida jamiyatdagi turli ijtimoiy munosabatlarda faollashadi.

ADABIYOTLARNI TAHLILI VA USULLARI: Mazkur jarayonda uzluksiz ta'lim tizimining o'rni katta. Uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki poydevori sifatida esa boshlang'ich ta'lim muhim ahamiyatga ega. Barkamol avlod ta'lim - tarbiyasi ilk maktab yoshidan boshlanganda ijobiy natija berishini barchamiz yaxshi bilamiz. Chunki boshlang'ich sinf bamisoli poydevor, poydevori mustahkam bino esa pishiq va samaralidir. Samarali ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish shaxs rivojlanishi yo'lida yangidan - yangi pedagogik texnologiyalarni izlab topishi, har bir masalaga ijodiy yondashishni talab etadi. Ta'lim jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kun ning dolzarb mavzularidan biridir. O'quvchilarni

fikr doirasini, dunyoqarashini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhim. O‘qituvchi darsda boshqaruvchi, o‘quvchilar esa ishtirokchiga aylanishi lozim. Ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyati ko‘p qirrali samara keltiradi.

Boshlang‘ich ta‘lim- bolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta‘minlovchi, uni uzluksiz ta‘limning keying bosqichiga har tomonlama maqsadli yo‘naltirilgan ta‘lim va tarbiya jarayonidir.

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning tafakkuri va malakalarini ko‘p tomonlama rivojlantiradi, shuning uchun faqat bir gina metod bilan cheklanib qolmasdan har xil metodlarni qo‘llash o‘rinli bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda muloqot madaniyati o‘sadi va guruh bilan ishlash malakalari rivojlantiriladi.

Boshlang‘ich ta‘limda interfaol metodlar zamonaviy texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taqqiyoti, uning ma‘lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘ri nishlaridan foydalanishadi, ya‘ni o‘zlashtirilayotgan ma‘lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi.

Ta‘limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta‘lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta‘limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish sharoitida tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma‘naviy boyitishdan iboratligi ta‘kidlangan. Ta‘limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikr lash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma‘naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy - axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

NATIJARAR: Darsda o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini ya‘ni interfaol metodlarni tanlash oson narsa emas. Bu muayyan yosh davrlariga mos holatda didaktik metodlarni tanlash, ulardan oqilona foydalanish hisoblanadi. Biroq, o‘qitish shartlarining muayyan to‘plami borki, uning yordamida o‘quvchida ongli

fikrlash ko'nikmalarini tarbiyalash mumkin. O'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar orqali ta'lim berish jarayonida quyidagi shartlarga alohida e'tibor berish zarur:

1. Mantiqiy va izchil fikrlash tajribasini orttirishga vaqt va imkoniyat berish;
2. O'quvchilarga fikrlash imkoniyatini berish;
3. Turli g'oya va fikrlarini qabul qilish va ularni to'g'ri fikr qabul qilishga o'rgatish;
4. O'quv jarayonida o'quvchilarning faol qatnashishlariga imkon berish;
5. O'quvchilarni tanqidiy mulohaza yuritishga qodir ekanligiga ishonirish.

Qiziqarli, mazmunli dars o'tish uchun nima kerak? Ta'limning sifati dars da qo'llaniladigan metodlarga bog'liqdir. Darsning mazmunli o'tish, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Mohir pedagog o'quv jarayonida tug'iladigan qiyinchiliklar ni bohqalardan ko'ra yaxshiroq tushunadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatini tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish orqali pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borishga imkon yaratadi. Shunday mualliflik texnologiyalari zamirida shakllantirilgan interfaol metodlardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

GULDASTA

O'quvchilarga bir necha gullar taqdim etiladi. Gul barglarida topshiriqlar joylashtiriladi. Matematika o'quv predmetida kasrlarni qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish kabi amallarni bajarish lozimligi ko'rsatiladi. Gul barglarida shu kasrlar bilan o'tkaziladigan amallar bajarib bo'lingandan so'ng, doskada birinchi bo'lib topshiriqni bajargan o'quvchi xuddi shunday gulni tasvirlashi kerak. Qaysi o'quvchi doskada yoki slayd shaklida ko'p gullar tasvirini tushursa, o'sha o'quvchi g'olib deb topiladi. Bu texnologiyadan boshqa fan darslarida ham foydalanish mumkin.

Alifbo metodi. Bu metod o'quvchilarni nutqini o'stirishga, harflarni to'g'ri ajrata olishga samarali yordam beradi. Ular bu metoddan jamoa bilan ishlashni yaxshi o'rganadilar. Har bir o'quvchini izlanishga undaydi va mustaqil fikrlashga undaydi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari.

1. Alifbodagi barcha harflarni qog'ozga tushuring
2. Alifbo yuzasidan unli va undoshlarni toping
3. Alifbodagi harflar yuzasidan X va H harflariga tegishli so'zni hosil qiling.

"Loyiha" metodi. Bu metodni darsning yakuniy qismida qo'llansa samarali natija beradi. Chunki, darslikdagi o'tilgan o'qish uchun berilgan ma'lumotlar nisbatan kam hajmda hamda dars vaqtining chegaralanganligi bois, o'quvchilar keng va to'liq ma'lumotlar olishi qiyin bo'lishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda ushbu usul yaxshi samara berishi mumkin. "Loyiha" metodi o'quvchilarni mustaqil o'rganishga va izlanishiga turtki beradigan metoddir.

“**Reklama**” metodi, asosan, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘z samara sini ko‘rsatadi. Mazkur metodni dars jarayonining bosqichlari: o‘tilgan mavzuni so‘rash va yangi mavzuni mustahkamlashda qo‘llash mumkin. Bu jarayonda o‘qi tuvchi o‘quvchilarga mavzu mohiyatiga mos tartibda tarqatma materiallarni beradi, ularda “Reklama qiling!” birikmasi yozilganligi asosiy qoidadir. O‘quvchilar tarqatmalarda berilgan mavzuni, undagi shaxs yoki predmetga xos sifatlar, hatti-ha rakatlar, asardan parchalar, rolli ko‘rsatmalar orqali reklama qilib berishlari kerak bo‘ladi. Shuningdek, mazkur metoddan sinfdan tashqari o‘qish darslari uchun she‘r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qilishda ham foydalanish mumkin. Bunda, o‘quvchi yoki o‘quvchilar jamoasi, boshqa o‘quvchilarga o‘qish uchun she‘r, ertak, hikoya va boshqa janrdagi kichik asarlarni tavsiya qiladi, tavsiya qilish jarayonida reklamaning turli ko‘rinishlaridan foydalaniladi.

“**Kamalak jilosi**” metodini boshlang‘ich sinflar uchun qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur metoddan ona tili, matematika va o‘qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darslarida so‘zlarni turkumlarga ajratishda qo‘g‘irchoq, mashina, kuldi, yig‘ladi, sariq, katta, kichik, to‘qqiz kabi so‘zlarni turkumlarga ajratish va ot so‘z turkumiga doir so‘zlarni ko‘k rangli chiziqqa joylash tirish, sifat so‘z turkumidagi so‘zlarni havo rang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi. Matematika darsida sonlarni xona birliklariga ajratish davomida ushbu metodni qo‘llash mumkin.

“Kamalak jilosi” metodi orqali bolalarda quyidagi bilim, ko‘nikma, malaka lar va sifatlar shakllanadi:

- o‘quvchi ranglar orqali so‘zlarning qaysi turkum doirasiga kirishini eslab qoladi;
- o‘quvchida tabiat hodisalari haqidagi tasavvurlar paydo bo‘ladi, ularda atrofmuhit va tabiatga muhabbat, uni asrab-avaylash ko‘nikmalari shakllanadi;
- o‘quvchilarning dunyoqarashi va tasavvur doirasi kengayadi, diqqatni jam lash, fikrlash, zehnilik va topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi.

MUHOKAMA: Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quvchi savolning qo‘yilishi va hal qilinishi zarur bo‘lgan muammoni aniqlashdan o‘z faoliyatini boshlaydi. Insoniyat o‘z tabiatiga ko‘ra qiziquvchidir. Biz biron - bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qandaydir tarixiy obidani ko‘rar ekanmiz, bizda uning ichkarisiga kirish istagi paydo bo‘ladi. Qiziquvchanlik har qanday tirik mavjudotning ajralmas xususiyatidir. Bu xususiyat yosh bolalarda ayniqsa kuchli bo‘ladi. Biroq, har qanday bosqichdagi haqiqiy bilish jarayoni o‘quvchining muammoni hal qilishi, o‘zining shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlaridan paydo bo‘lgan savollarga javob izlashi bilan belgilanadi.

XULOSALAR: Hozirgi davr o'quvchisi dunyoqarashi keng, erkin fikrlovchi voqelikka to'g'ri baho bera oluvchi, o'tkir zehni, mustahkam iro dali qisqa qilib aytganda, yuksak intellektual kuchga ega bo'lmog'i lozim. Bu ning uchun esa ta'lim tizimiga innovatsiyalarni ta'sis etish zarur. O'z o'rnida u innovatsiyalar dars jarayonida turli ijtimoiy -psixologik to'siqlarni yengish uchun shart-sharoit yaratib boradi. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishi dan qat'i nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilim olishni ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tatbiq eta olishi, ta'limning yangi yo'l va usullarini izlashi, ilg'or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiya" T.; Istedod 2010.
2. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
3. Ishmuhammedov R.J, Yuldashev M.A, "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" "Nihol" nashryoti,-T.2013 y.
4. "Yumta'lim maktablari ta'lim jarayonida axborot- kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari" mavzusidagi respublika ilmiy- amaliy konfrensiya materiallari Navoiy 2020- yil 19- iyun
5. O'zbekistonda ta'lim Ilmiy- metodik, ma'naviy- ma'rifiy, adabiy- badiiy jurnal 2023- yil 3- soni.

Internet resurslari

1. www.uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy veb sayti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11407452>

INGLIZ TILIDA AYRIM ISH YURITISH HUJJATLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Islomjon Turdiyev

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili

va adabiyoti universiteti o'qituvchisi

Email: mr.turdiyev93@gmail.com

Abstrakt: "Ish yuritish hujjatlari terminologiyasi" so'zi "Employment Documentation Terminology" degan tarjima qilinadi. Bu terminologiyaning asosiy maqsadi, ish bilan bog'liq jarayonlarda, xizmat ko'rsatish va ishning boshqarilishida ishlatiladigan maxsus so'zlarni, qisqartirishlarni, va tushunchalarni ifodalashdir. Bu terminologiya ishchi, ishni qabul qilish dasturlari, HR mutaxassislar, va boshqa shaxslar uchun muhimdir, chunki uning yordami bilan ular ish bilan bog'liq hujjatlarni tushuntirish, yorliqlar berish va qonuniy tartibni boshqarishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Yagona Konsensus, ish yuritish hujjatlari, Universalizm, semantik xususiyatlar.

Ingliz tilidagi ish yuritish terminologiyasining semantik xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

Kasbiylik: Ingliz tilidagi ish yuritish terminologiyasi kasbiy va so'zlararo bo'lishi lozim. Uning maqsadi, ish bilan bog'liq jarayonlarni tushuntirish va o'rganishni osonlashtirishdir.

Qisqa va aniq: Terminologiya qisqa, aniq va aniq bo'lishi lozim. Bu, ma'lumotlar oqimini osonlashtiradi va foydalanuvchilar uchun yorqinlik yaratadi.

Tekshirish va Tasdiqlash: Ingliz tilidagi ish yuritish terminologiyasida foydalaniladigan so'zlar va ifodalarning tekshirilishi va tasdiqlanishi muhimdir. Bu, ma'nolarni to'g'ri ta'kidlash va qat'i tasdiqovchi bo'lish uchun kerakli maqsadlarni amalga oshiradi.

Universalizm: Ingliz tilidagi ish yuritish terminologiyasi ko'plab mamlakatlarda ommalashtirilgan, shuning uchun uni barcha dunyoda bo'lib joriy qilish oson.

Tarqatilganlik: Terminologiyada ish bilan bog'liq jarayonlarni tushuntirishda qo'llaniladigan so'zlar va ifodalarning tarqatilganligi muhimdir. Bu, foydalanuvchilar uchun o'rganishni osonlashtiradi.

Yagona Konsensus: Ko'pgina so'z va ifodalarning bir xil ma'nosi bo'lishi kerak. Bu, kommunikatsiyani osonlashtiradi va nomzodlar, ishchi va HR xodimlari o'rtasidagi tushunchalarning o'xshash bo'lishini ta'minlaydi.

Harakatlanish va Yangiliklar: Ish yuritish terminologiyasi yangi o'zgarishlarga oson moslashish uchun o'ziga xos yangi so'zlar va ifodalardan foydalanishi mumkin. Bu, ish xayotida harakat qilish va yangiliklarga moslashish uchun muhimdir.

Ingliz tilidagi ish yuritish terminologiyasining semantik xususiyatlari, foydalanuvchilarga ma'lumotlarni oson tushuntirish, ish bilan bog'liq jarayonlarni oson o'rganish va kommunikatsiyani osonlashtirish uchun juda muhimdir.

"Ish yuritish hujjatlari" O'zbek tilidagi "employment documents" deb tarjima qilinadi. Bu hujjatlarni ish ro'yhatiga olib kelish va ish bilan bog'liq boshqa amallar uchun ishlab chiqiladi. Ular yordamida ishchilar, ishga qabul qilinish, shaxsiy ma'lumotlarni to'ldirish va boshqa ish bilan bog'liq jarayonlarni bajarish mumkin.

"Ish yuritish hujjatlari"ning boshqa atamalari va turli turdagi hujjatlari mavjud bo'lishi mumkin, masalan:

1. **Resumes/CVs:** Shaxsiy ma'lumotlar, o'quv va ish faoliyati tarixi, bilimlar va ko'nikmalar to'g'risida ma'lumotlar to'plami.
2. **Anotatsiyalar:** Ishtirokchilar ro'yxatini yordam berish, xodimlarning ta'limi, buyurtmalar va hokazolar uchun formalarni yaratish va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.
3. **Ish bilan bog'liq qonunlar va qoidalar:** Korxonaning to'plam va protseduralariga oid qonunlar va qoidalar.
4. **Topshirish ma'lumotlari:** Xodimlarga topshirilgan vazifalar va mas'uliyatlarni to'g'ri ko'rsatish uchun yaratilgan hujjatlar.
5. **Ish haqida ma'lumotnoma:** Ish haqidagi boshqa ma'lumotlar va ko'rsatkichlar, masalan, kompaniya maqsadlari, faoliyat turlari, tuzilish shakllari va boshqa ma'lumotlar.

Ular turli sohalarda foydalanish uchun ishchi, ishni qabul qilish, ish o'zgarishlari va boshqa ish bilan bog'liq jarayonlarni boshqarish uchun ishlab chiqiladi.

Semantik xususiyatlar tilning ma'noni ifodalovchi o'ziga xos tomonlaridir. Ish yuritish terminologiyalari haqida gap ketganda, tushunish uchun muhim bo'lgan bir nechta semantik xususiyatlar mavjud. Ofis ishi terminologiyalarining ba'zi asosiy semantik xususiyatlari:

Harakatga yo'naltirilgan terminologiya: Ofis ishi ko'pincha "delegate," "prioritize," "schedule," "organize," va "coordinate." kabi turli xil harakatga yo'naltirilgan atamalarni o'z ichiga oladi. Ushbu atamalar ofis sharoitida vazifalar va mas'uliyatni boshqarish bilan bog'liq harakatlar va tadbirlarni bildiradi.

Hamkorlik va muloqot: Ofis ishi samarali hamkorlik va muloqotni talab qiladi va semantik xususiyatlar "meeting," "conference call," "email," "agenda," "minutes," "feedback," va "discussion." bilan bog'liq atamalarni o'z ichiga oladi. " Bu atamalar ish yuritishning interaktiv va kommunikativ xususiyatini aks ettiradi.

Loyiha boshqaruvi terminologiyasi: Ofis sharoitida loyihalar ko'pincha asosiy e'tiborga ega bo'ladi, shuning uchun semantik xususiyatlarga "milestone," "deadlines," "task list," "scope," "deliverables," va "progress report," Loyihalarning borishini boshqarish va kuzatish uchun zarur bo'lgan.

Ma'muriy terminologiya: Ish yuritish ma'muriy vazifalarni o'z ichiga oladi, ular uchun semantik xususiyatlar "filing," "documentation," "record keeping," "inventory," "procurement," "compliance," va "policy," kabi atamalarni o'z ichiga oladi. ish yuritishning ma'muriy va tashkiliy jihatlari.

Inson resurslari terminologiyasi: Bunga tegishli bo'lgan "recruitment," "hiring," "onboarding," "training," "performance appraisal," "compensation," "benefits," va "employee relations," bilan bog'liq semantik xususiyatlar kiradi. tashkilotda inson kapitalini boshqarishda.

Texnologiya va IT terminologiyasi: Texnologiyaga tobora ortib borayotgan ishonch bilan ofis ishi endi "software installation," "network configuration," "troubleshooting," "data security," "backup," va "cloud computing," kabi IT bilan bog'liq bir qator semantik xususiyatlarni o'z ichiga oladi Ofis operatsiyalarida texnologiya integratsiyasini aks ettiruvchi "va" bulutli hisoblash.

Ushbu semantik xususiyatlarni tushunish ofis sharoitida samarali aloqa, hujjatlar va ish jarayonini boshqarish uchun juda muhimdir. Ushbu atamalarning ma'nosi va qo'llanilishini har tomonlama tushunib, shaxslar ofis ishlarini yanada samarali va samarali boshqarishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- ADAMS, L. and ZUCKERMAN, D., 1991, The effect of lighting conditions on personal space requirements. *The Journal of General Psychology*, 118, pp. 335 – 340.
- ALLEN, T. J. and GERSTBERGER, P. G., 1973, A field experiment to improve communications in a product engineering department: the non-territorial office. *Human Factors*, 15, pp. 487 – 498.
- ALTMAN, D. G., 2001, Systematic reviews of evaluations of prognostic variables In *Systematic Reviews in HealthCare*, M. Egger, G. D. Smith and D. G. Altman (Eds), pp. 228 – 247. (London: BMJ Publishing Group)
- ARIENS, G. A. M., VAN MECHELEN, W., BONGERS, P. M., BOUTER, L. M. and VAN DER WAL, G., 2001, Psychosocial risk factors for neck pain: a systematic review. *American Journal of Industrial Medicine*, 39, pp. 180 – 193.
- BANBURRY, S. and BERRY, D. C., 1997, Habituation and dishabituation to speech and office noise. *Journal of Experimental Psychology*, 3, pp. 181 – 195.
- BANBURRY, S. and BERRY, D. C., 1998, Disruption of office-related tasks by speech and office noise. *British Journal of Psychology*, 89, pp. 499 – 517.
- BARTEN, E., 2001, Fortezza. De Effecten in Beeld. (Fortezza, evaluation of the implementation of desk-sharing at ABN/AMRO) (Amsterdam: ABN AMRO, DOI&H Concern huisvesting en Vastgoed, Taskforce flexibel Werken)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11407469>

O‘ZBEKISTONDA MONETAR VA NOMONETAR OMILLARNING O‘ZARO TA‘SIRI TAHLILI

Jo‘rayev Ilhomjon Mashxurjon o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O‘zbekistondagi inflyatsiya dinamikasiga ta‘sir etuvchi monetar va nomonetar omillar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘rganadi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar, siyosat choralari va institutsional asoslarni har tomonlama tahlil qilish orqali tadqiqot O‘zbekiston iqtisodiyoti sharoitida inflyatsiya omillari haqida tushuncha berishga harakat qiladi. Pul taklifining o‘shishi va tezligi kabi an‘anaviy pul o‘zgaruvchilari, shuningdek, taklifning zarbalari, talab bosimi va institutsional omillarni o‘z ichiga olgan nomonetar determinantlarni hisobga olgan holda, maqola O‘zbekistondagi inflyatsiya tendentsiyalari haqida nozik tushuncha beradi. Ushbu tadqiqot natijalari mamlakatda narxlar barqarorligi va barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishga qaratilgan samarali pul-kredit va fiskal siyosatni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *inflyatsiya, monetar omillar, nomonetar omillar, iqtisodiy siyosat, taklif zarbalari, talab bosimi, institutsional asoslar.*

Kirish

Inflyatsiya, tovarlar va xizmatlar narxlarining umumiy darajasining doimiy o‘shishi sifatida butun dunyo bo‘ylab siyosatchilar uchun muhim makroiqtisodiy muammodir. Iqtisodiy o‘zgarishlar va taraqqiyotni boshdan kechirayotgan O‘zbekiston sharoitida inflyatsiya omillarini tushunish makroiqtisodiy barqarorlik va barqaror o‘shishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. An‘anaviy iqtisodiy donolik ko‘pincha inflyatsiyani birinchi navbatda pul taklifining o‘shishi va tezligi kabi monetar omillarga bog‘laydi, so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nomonetar omillar, jumladan taklif zarbalari, talab bosimi va institutsional omillar ham muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu ishning maqsadi O‘zbekiston iqtisodiyotidagi inflyatsiyani belgilovchi omillarni har tomonlama tahlil qilishdan iborat. Monetar va nomonetar omillarni va ularning o‘zaro ta‘sirini o‘rganish orqali ushbu tadqiqot O‘zbekistondagi inflyatsiya

dinamikasi va ularning makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga ta'siri haqidagi tushunchamizni chuqurlashtirishga intiladi.

O'zbekistonning iqtisodiy manzarasi o'ziga xos muammolar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Mamlakatda so'nggi yillarda savdo va investitsiyalarni erkinlashtirish, davlat korxonalarini xususiylashtirish, valyuta kursini unifikatsiya qilish kabi muhim islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar iqtisodiyotga keng ko'lamli ta'sir ko'rsatdi, ishlab chiqarish xarajatlari, iste'molchilarning xatti-harakatlari va bozor dinamikasi kabi omillarga ta'sir ko'rsatdi. Ushbu o'zgarishlarning inflyatsiya bosimini shakllantirish uchun monetar o'zgaruvchilar bilan qanday o'zaro ta'sirini tushunish narx barqarorligini saqlab qolish va barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga intilayotgan siyosatchilar uchun juda muhimdir.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola O'zbekistondagi inflyatsiya omillarini tahlil qilish uchun ko'p qirrali yondashuvni qo'llaydi. Turli iqtisodiy nazariyalar va empirik dalillarga tayangan holda, maqola inflyatsiya tendentsiyalarini qo'zg'atuvchi pul va nomonetar omillarning nisbiy ahamiyatini o'rganadi. Mavjud tadqiqotlarni sintez qilish va kerak bo'lganda empirik tahlillarni o'tkazish orqali ushbu tadqiqot O'zbekistonning rivojlanayotgan iqtisodiy landshaftidagi inflyatsiya muammolarini tushunish va hal qilishdan manfaatdor siyosatchilar va tadqiqotchilar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu maqola O'zbekistondagi inflyatsiya dinamikasini keng qamrovli tahlil qilib, monetar va nomonetar omillar o'rtasidagi o'zaro ta'sirga alohida e'tibor qaratgan holda mavjud adabiyotlarga hissa qo'shadi. Inflyatsiyaning asosiy determinantlari va ularning o'zaro ta'sirini yoritish orqali ushbu tadqiqot dalillarga asoslangan siyosat ishlab chiqish haqida ma'lumot berish va O'zbekistondagi makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish bo'yicha kengroq muhokamaga hissa qo'shishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Britannica entsiklopediyasiga ko'ra, inflyatsiya odatda narxlarning umumiy darajasining sezilarli o'sishi sifatida tushuniladi. Laidler va Parkin (1975) inflyatsiyani "narxlarning doimiy ravishda oshib borishi yoki pul qiymatining doimiy ravishda pasayib borishi ekvivalenti jarayoni" deb ta'riflash uchun iqtibos keltiradi¹. Bundan tashqari, unda ta'kidlanishicha, "narxlarni o'lchashning turli usullari mavjud bo'lganligi sababli, inflyatsiyaning turli ko'rsatkichlari ham mavjud. Zamonaviy dunyoda eng ko'p qo'llaniladigan o'lchovlar mamlakat iste'mol narxlari indeksining

¹ Laidler David. 2004. Monetary policy after bubbles burst: the zero lower bound, the liquidity trap and the credit deadlock. Canadian Public Policy, 30: 333-340.

yoki uning yalpi o'zgarishining foiz nisbati hisoblangan milliy mahsulot deflyatori" hisoblanadi (New Palgrave: A Dictionary of Economics, 1987).

Murali (2004) "inflyatsiya" atamasi lotincha "inflare" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "shishish" degan ma'noni bildiradi. Ushbu etimologiya inflyatsiyaning mohiyatini nisbiy tanqislik o'zgarishiga mos kelmaydigan narxlarning asossiz oshishi sifatida aniq ifodalaydi. Tarix davomida bunday narxlarning ko'tarilishi qayta-qayta sodir bo'lganini ko'rish mukmin.

"Inflyatsiya ham azaliy, ham zamonaviy muammodir. Tarixiy ma'lumotlar ko'plab inflyatsiya davrlarini ko'rsatadi: Diokletianing eramizning IV asrida Rim inflyatsiyasini nazorat qilishga urinishlari; O'rta asrlarda Evropada 1150 va 1325 yillar oralig'ida yashash xarajatlarining to'rt baravar oshishi; 200 dan 400 foizgacha, 1520 va 1650 yillar oralig'ida yangi dunyo konlaridan kelib chiqqan oltin oqimi tufayli Amerika Qo'shma Shtatlari janubda jiddiy inflyatsiyaga va Shimolda narxlarning ikki baravar oshishiga guvoh bo'ldi (Heilbronner, 1975). Biroq, inflyatsiyaning ko'p holatlari deflyatsiya davrlari bilan muvaffaqiyatli bo'ldi. Masalan, Qo'shma Shtatlarda 1943 yilda ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi 1810 yildagi qiymatdan biroz pastroq edi (Haslag, 1997).

Pulning miqdor nazariyasi doirasida $MV = PQ$ tenglamasi (bu erda M pul massasini, V tezlikni, P narxlarni va Q miqdorini bildiradi) agar M yoki V bir vaqtning o'zida o'sishni boshdan kechirsa, Q o'zgarmagan xolatda, narxlar oshishi mumkinligini ko'rsatadi. Pul miqdori nazariyasining asosiy tamoyillari 1752 yilda Devid Xunning "Pul haqida" inshosi nashr etilgandan so'ng mustahkamlandi (Snowdon va Vane, 2005). Keyinchalik, miqdor nazariyasining ikkita versiyasi paydo bo'ldi: Fisher tomonidan qo'llab-quvvatlangan yondashuv va Marshall va Pigu bilan bog'liq bo'lgan Kembrijning naqd pul balansi yondashuvi (Snowdon va Vane, 2005).

Milton Fridman shunday ta'kidlagan edi: "Inflyatsiya har doim va hamma joyda pul hodisasidir, chunki u pul miqdori ishlab chiqarishga qaraganda tezroq o'smasdan sodir bo'lmaydi". Biroq, Fridman qat'iy qo'llab-quvvatlagan ayirboshlash tenglamasi uchta o'zgaruvchini - pul taklifi, ishlab chiqarish va tezlikni o'z ichiga oladi, ular birgalikda narxni belgilaydi.

Ko'p munozaralar pul taklifi inflyatsiyasi nazariyalari atrofida, ayniqsa moliyaviy inqiroz davridagi markaziy bank harakatlari nuqtai nazaridan bo'lib o'tdi. Ushbu maqola ayirboshlash tenglamasining barcha to'rtta shartini o'z ichiga olgan inflyatsiyani tushunish uchun asosni taklif qiladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, narxlarga eng katta ta'sir pul massasi emas, balki ishlab chiqarish quvvati va tezligidir.

Eng qiziqarli kuzatuv shundan iboratki, har bir holatda narx darajasining o'sishi pul massasining o'sishidan oldin sodir bo'lgan - bu pul taklifining yuqori narx

darajasiga mos kelishini ko'rsatadi. Ushbu tushuntirish an'anaviydan sezilarli darajada farq qiladi, chunki boshqasidan orqada qoladigan o'zgaruvchining sababchi omil bo'lishi dargumon.

Natijalar va muhokamalar

O'zbekistonda inflyatsiyaning monetar omillari

O'zbekistonda inflyatsiyaga ta'sir etuvchi monetar omillarni tahlil qilishda bizning tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, pul massasining o'sish sur'ati inflyatsiya bosimining muhim omili bo'lib kelgan. O'zbekiston Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan ekspansion pul-kredit siyosati pul massasining ko'payishiga olib keldi, inflyatsiya sur'atlarining oshishiga xizmat qildi. Bundan tashqari, pul aylanish tezligining tebranishlari ham pul massasining o'sishi bilan solishtirganda kamroq darajada bo'lsa-da, inflyatsiya dinamikasiga ta'sir ko'rsatishda rol o'ynadi. Ishlab chiqarish dinamikasi va inflyatsiya o'rtasidagi bog'liqlik murakkab bo'lib, tez iqtisodiy o'sish davrlari inflyatsiya va deinflyatsiya tendentsiyalariga to'g'ri keldi, bu O'zbekiston sharoitida ishlab chiqarish hajmi va inflyatsiya o'rtasidagi nuansli bog'liqlikdan dalolat beradi.

O'zbekistonda inflyatsiyaning nomonetar omillari

Nomonetar omillarni tahlil qilish O'zbekistonda inflyatsiyaning bir qancha asosiy omillarini aniqladi. Ayniqsa, agrar sektordagi taklifning silkinishi O'zbekiston iste'mol savatchasining muhim qismini tashkil etuvchi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, iste'molchilarning xatti-harakatlari va kutishlaridagi o'zgarishlardan kelib chiqadigan talab tazyiqlari inflyatsiya dinamikasiga ta'sir ko'rsatdi, iste'mol xarajatlarining ko'payishi davrlari narxlarining yuqori bosimiga olib keldi. Institutsional omillar, jumladan, davlat siyosati va bozorni tartibga solish ham O'zbekistonda inflyatsion tendentsiyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi, narx nazorati va subsidiyalar bozor ishtirokchilarining xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatib, narxlar darajasiga ta'sir ko'rsatdi.

Monetar va nomonetar omillarning o'zaro ta'siri

O'zbekistonda inflyatsiyaning monetar va nomonetar omillari o'rtasidagi o'zaro ta'sir mamlakatdagi inflyatsiya dinamikasining murakkabligini ko'rsatadi. Pul taklifining o'sishi va tezligi kabi monetar omillar inflyatsiyaga bevosita ta'sir ko'rsatsa-da, taklif zarbalari va institutsional omillar kabi nomonetar omillar inflyatsiya bosimini kuchaytirishi yoki susaytirishi mumkin. Masalan, noqulay ob-

havo sharoiti yoki ta'minot zanjiridagi uzilishlar natijasida kelib chiqadigan ta'minot zarbalari inflyatsiya tendentsiyalarini kuchaytirishi mumkin, narxlarni barqarorlashtirishga qaratilgan samarali davlat siyosati esa inflyatsiya bosimini yumshata oladi.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistondagi siyosatchilar uchun bir qancha ta'sirlarga ega. Birinchidan, u inflyatsiyani boshqarishga monetar va nomonetar omillarni hisobga olgan holda kompleks yondashuvni qo'llash muhimligini ta'kidlaydi. Siyosatchilar pul massasining o'sishini nazorat qilish va pul muomalasi tezligini barqarorlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarga ustuvor ahamiyat berishlari kerak, shu bilan birga taklif tomonidagi cheklovlarni hal qilish va inflyatsiya bosimini boshqarish uchun oqilona soliq siyosatini amalga oshirishlari kerak. Bundan tashqari, institutsional salohiyatni oshirish va bozorni tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar O'zbekistonda narxlarning barqaror darajasini oshirishga va barqaror iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin.

Markaziy bank boshqaruvi majlisida "2024-yilga va 2025-2026-yillarga mo'ljallangan pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari"ni konseptual tasdiqlash berildi.

Makroiqtisodiy rivojlanishning barcha stsenariylarida Markaziy bankning asosiy maqsadi narx va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'lib qoladi.

Birlamchi stsenariy faol tarkibiy islohotlar bilan birga joriy tashqi iqtisodiy sharoitlarni davom ettirishni nazarda tutadi. Aksincha, muqobil stsenariylar kuchaygan noaniqliklar va potentsial tashqi zarbalarni hisobga oladi. Asosiy stsenariyning asosiy yo'nalishi keyingi yillarda makroiqtisodiy tuzatishlarni amalga oshirish, jumladan, turli tarmoqlarda tarkibiy islohotlarni o'tkazish va fiskal konsolidatsiyaga qaratilgan sa'y-harakatlarni o'z ichiga oladi. Maqsad xususiy investitsiyalar va eksportni ko'paytirish orqali tez iqtisodiy o'sishga erishishdir.

Prognozlar shuni ko'rsatadiki, doimiy 5% inflyatsiya maqsadiga erishish taklif omillariga uzoq davom etgan bosim va tartibga solinadigan narxlarni o'zgartirish tufayli 2025 yilning ikkinchi yarmigacha cho'zilishi mumkin. Maqsadli davrni kechiktirish iqtisodiyotning ichki iste'mol talablarini etarli darajada qondirish uchun kurashi va yalpi talabni jilovlash bo'yicha keskin choralar bilan bog'liq xavflardan kelib chiqishi mumkin.


Asosiy stsenariyda 2024 yil uchun inflyatsiya darajasi 8-9% oralig'ida bo'lishi prognoz qilinmoqda. Inflyatsiyani ushbu darajada ta'minlash uchun tartibga solinadigan narxlarning o'zgarishi va iqtisodiy sharoitlarga asoslangan tuzatishlar bilan pul-kredit shartlari nisbatan qattiq saqlanadi.

Bank tizimida dollarlashuvni kamaytirish, imtiyozli kreditlash amaliyotini minimallashtirish, foiz stavkalarini bozorga o'tishga qaratilgan sa'y-harakatlar pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishda davom etadi.

Asosiy stsenariy yalpi ichki mahsulotning real o'sishini 2024-yilda taxminan 5-5,7%, 2025-yilda 5-6% va 2026-yilda 5,5-6,5% da prognoz qiladi.

Muqobil stsenariyga ko'ra, 2024-yilda inflyatsiya 9-10% atrofida bo'lishi kutilmoqda, bunda tashqi sharoitlar unchalik qulay bo'lmaganligi sababli ichki narxlarga qo'shimcha bosim paydo bo'ladi. Biroq, 2026 yil oxiriga kelib u 5 foizga kamayishi prognoz qilinmoqda.

Bazaviy stsenariy prognozlariga nisbatan o'rta muddatli yalpi ichki mahsulot o'sishining potentsial pasayishiga qaramay, ushbu stsenariyda iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashda moliyaviy imtiyozlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi iste'mol narxlari indeksi (%da, 2018-2024)

2024 yilning I chorak yakunlari bilan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2023 yilning dekabriga nisbatan yig'ma INI 101,7 % ga yetdi. Bu o'tgan yilning martidagi ko'rsatkichdan 0,7 foiz bandga, 2022 yilning martidagi ko'rsatkichdan 1,2 foiz bandga past. Joriy yilning mart oyidagi yillik yig'ma INI 108,0 % ni tashkil etdi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola O‘zbekistondagi inflyatsiyaning murakkab dinamikasini o‘rganib, asosiy e‘tiborni monetar va nomonetar omillarning o‘zaro ta‘siriga qaratdi. Nazariy asoslar va empirik dalillarni har tomonlama ko‘rib chiqish natijasida bir nechta asosiy tushunchalar paydo bo‘ldi.

Birinchi, O‘zbekistonda inflyatsiya tendentsiyalarini shakllantirishda pul massasining o‘sishi va tezligi kabi monetar omillar muhim rol o‘ynaydi. Hukumat va markaziy bank tomonidan olib borilayotgan ekspansion pul-kredit siyosati pul massasining ko‘payishiga olib kelishi va shu bilan inflyatsiya bosimini kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, iste‘molchilarning ishonchi va moliyaviy innovatsiyalar kabi omillar ta‘sirida pul aylanish tezligining o‘zgarishi inflyatsiya dinamikasiga yanada ko‘proq yordam beradi.

Shu bilan birga, tahlil O‘zbekistonda inflyatsiyani qo‘zg‘atuvchi nomonetar omillar muhimligini ham ko‘rsatadi. Jahon miqyosida xom ashyo narxlarining o‘zgarishi yoki mahalliy ishlab chiqarishning uzilishi natijasida yuzaga keladigan taklif zarbalari inflyatsiya darajasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, inflyatsiya tendentsiyalarini shakllantirishda iste‘molchilarning xatti-harakatlari, davlat xarajatlari yoki valyuta kursining o‘zgarishi natijasida kelib chiqadigan talab bosimi ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda inflyatsiya dinamikasiga institutsional omillar, jumladan, davlat siyosati, bozorni tartibga solish va institutsional asoslar jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Inflyatsiya bosimini yengish va barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish uchun mahsuldorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan tarkibiy islohotlar bilan bir qatorda fiskal va pul-kredit siyosatini samarali muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ushbu maqola O‘zbekistondagi inflyatsiya dinamikasini tushunishda monetar va nomonetar omillarni hisobga olgan holda yaxlit yondashuvni qo‘llash muhimligini ta‘kidlaydi. Turli nazariy nuqtai nazarlar va empirik tadqiqotlardan olingan fikrlarni birlashtirib, siyosatchilar inflyatsiyani boshqarish va mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni rag‘batlantirish uchun yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari mumkin.

O‘zbekiston iqtisodiy islohot va taraqqiyot yo‘lida o‘z yo‘lini davom ettirar ekan, inflyatsiya dinamikasini puxta tushunish oqilona makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish va fuqarolarning uzoq muddatli farovonligini ta‘minlash uchun zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Monetary Fund. 2021. Annual Report on Exchange Arrangements and Exchange Restrictions: Overview 2021. Washington , DC: IMF., p.10.
2. Hyvonen M. Inflation Convergence Across Countries // Research Discussion Paper Economic Research Department Reserve Bank of Australia. – 2004.
3. Yakubova , S. (2021). Sh. The role of effective implementation of monetary policy in a pandemic condition/Sh. Sh. Yakubova , M.D. Raimova . Theoretical & Applied Science, (12), 104.
4. Vega M., Winkelried D. Inflation Targeting and Inflation Behavior: A Successful Story? // International Journal of Central Banking. - 2005. - Vol. 1, no. 3.
5. Mollik A., Torres R., Carneiro F. Does Inflation Targeting Matter for Output Growth? Evidence from Industrial and Emerging Economies. // World Bank Policy Research Working Paper. - 2008. -No. 4791.
6. Mishkin FS, Schmidt-Hebbel K. Does Inflation Targeting Make a Difference? // NBER Working Paper. - 2007. - No. 12876.
7. Goncalves C. E, Salles J. Infation targeting in emerging economies: What do the data say? // Journal of Development Economics. - 2008. - No. 85
8. Batini N., Breuer P., Kochhar K., Roger S. Inflation Targeting and the IMF // IMF Board Paper SM/06/33. – 2006.
9. Mu'ayyad al Rasassi and Ezekiel Cabezon, 2022. "Uzbekistan's Transition to an Inflation-Targeting Regime," IMF Working Paper 2022/229, International Monetary Fund. Page 4.
10. Ways of effective implementation of monetary policy in our country/Sh.Sh. Yakubova, RI Rashidov, MXQ Umarova, KTU Urinov// – 2022. – No. 3(107). - P. 859-864. – DOI 10.15863/TAS.2022.03.107.64. – EDN MEPGVP.
11. Yakubova, Sh. Sh. Peculiarities of inflation targeting in our country / Sh. Sh. Yakubova, MD Raimova // - 2022. - No. 3(107). - P. 655-661. – DOI 10.15863/TAS.2022.03.107.43. – EDNKVKAHJ.
12. <https://cbu.uz/ru/monetary-policy/reviews/>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11407487>

DAVLAT XIZMATCHISINING QONUNGA XILOF RAVISHDA MODDIY QIMMATLIKLAR OLISHI YOKI MULKIY MANFAATDOR BO'LISHI JINOYATINING TUSHUNCHASI, BELGILARI VA O'ZIGA XOSLIGI

Pulatov Asatbek Shuxratovich

O'zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistratura tinglovchisi,
e-mail: asadbek6471@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Davlat xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi jinoyatining tushunchasi, belgilari va o'ziga xosligi batafsil tahlil qilinadi. Maqolada davlat xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi jinoyatidagi tushuncha va belgilarini xorijiy davlat qonunchiligiga tayangan holda milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan asoslangan takliflar ishlab chiqilganligi keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** davlat xizmatchisi, jinoyat, qonunchilik, haq olish, xizmat, javobgarlik, g'araz, manfaat, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari.*

***Аннотация:** В данной статье подробно анализируются понятие, признаки и особенности преступления незаконного приобретения материальных ценностей или имущественного интереса государственным служащим. В статье представлено, что понятия и признаки преступления незаконного приобретения материальных ценностей или имущественного интереса государственным служащим на основании законодательства иностранного государства разработаны и основаны на предложениях по совершенствованию национального законодательства.*

***Ключевые слова:** государственный служащий, преступление, законодательство, вознаграждение, служба, служба, злой умысел, интерес, государственный орган, организация с государственным участием, органы самоуправления граждан.*

Annotation: *This article analyzes in detail the concept, signs and characteristics of the crime of illegal acquisition of material assets or property interest by a civil servant. In the article, it is presented that the concepts and signs of the crime of illegal acquisition of material assets or property interest by a civil servant based on the legislation of a foreign country have been developed and based on the proposals for improving the national legislation.*

Key words: *civil servant, crime, legislation, remuneration, service, service, malice, interest, government body, organization with state participation, self-government bodies of citizens.*

Jinoyat huquqida davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi xodimlarining muayyan xizmat uchun haq berishning qonunga xilofligi haqidagi fikr-mulohazalarga o'z ijtimoiy-huquqiy mohiyatiga ko'ra poraxo'rlikning tavsifida duch kelamiz. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining tahlili, shuningdek uning shakllanish va rivojlanish jarayoni turli bosqichlarini o'rganish qonun chiqaruvchi pora olish va berishni tartibga solishning o'zi bilan hech qachon kifoyalanmagan, amalda davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining mulkiy manfaatdorligining bir qator jihatlari jinoyat qonunida o'z aksini topgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

O'zbekistonning 1959 yilgi Jinoyat kodeksida poraxo'rlik jinoyatlarning tarkiblari bilan bir qatorda guvoh, jabrlanuvchi yoki ekspertni yolg'on ko'rsatuvlar yoki soxta xulosa berishlari uchun sotib olish (163-modda) nazarda tutilgan, bundan tashqari, Kodeksda qonunga xilof ravishda haq berishning turlaridan yana biri – "Aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarganlik uchun grajdanlardan g'ayriqonuniy tarzda haq olish" (177¹-modda)¹ to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekistonning 1994-yilgi Jinoyat kodeksida qator normalarda davlat xizmatchisini pora evaziga og'dirganlik uchun javobgarlik belgilandi. Aslida davlat xizmati umumiy ma'nodagi xizmat tushunchasining bir turi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, xizmat – bu inson, davlat va jamiyatning maqsadga muvofiq faoliyat yo'nalishlaridan biri².

N. Said-gaziyeva o'zining tadqiqot ishlarida bunday cheklashlarni to'rtta guruhga ajratib³, ular qatoriga davlat xizmatchisining jismoniy va yuridik shaxslardan haq (pul,

¹ O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksiga sharhlar. –Toshkent: O'zbekiston, 1988. –B.135.

² Бахрах А.П. Административное право. –М., 1993. –С. 135

³ Said-Gaziyeva N.Sh. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh etish masalalari: Monografiya./ Mas'ul muharrir: Z.M. Islomov. –Toshkent: TDYI, 2008. –58-59-betlar

sovg'a, qarz, xizmatlar, dam olish uchun haq to'lash, transport xarajatlarini qoplash va boshqa ko'rinishdagi haq) olish, xorijiy xizmat safarlariga jismoniy va yuridik shaxslar hisobidan chiqishlarini kiritadi. Albatta, bunday ta'qiqlarni buzish, o'z navbatida tegishli javobgarlikni yuzaga keltiradi.

M.H.Rustambayev "shaxsning javobgarlik maqomi uning xizmat xususiyati bilan belgilanadi - u davlat xizmatchisi hisoblanadi va xizmat yuzasidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolatli hisoblanadi"¹, deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, davlat xizmatchisini qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi, bevosita davlat funksiyalari bilan munosabatlarga zarar yetkazadi, davlat faoliyatini ishdan chiqarishga qaratiladi. Bunday xulosa, uning davlat xizmatchisi ekanligidan, faoliyatining davlat xizmati vazifalari bilan bog'liqligidan kelib chiqadi.

Shuni qayd etib o'tish lozimki, poraxo'rlik ham, davlat xizmatchisini qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi ham qonunga xilof ravishda haq berish yoki olishning jinoyat qonunida aks ettirilgan ayrim ko'rinishlari, xolos.

O'zbek tilining izohli lug'atida qayd etilishicha, haq deganda, "huquq, qonun va shu kabilar yuzasidan biror kimsa yoki narsaga tegishli hissa, to'lanadigan yoki olinadigan narsaga tegishli hissa, to'lanadigan yoki olinadigan narsa", shuningdek "ish, mehnat, xizmat evaziga to'lanadigan, olinadigan pul yoki boshqa narsa"² tushuniladi. Z.A.Vishinskaya fikriga ko'ra, qonuniy haq berish yoki olish deganda, normative-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan ishni bajarish yoki xizmat ko'rsatish uchun olinuvchi haq tushuniladi³. Haq berish yoki olishning qonuniyligi to'g'risida so'z yuritganda tayanch sifatida olingan vaziyatning xususiyatini hisobga olib, qonunga xilof ravishda haq berish yoki olish "bunday shaxs hiyla-nayrang ishlatish, aldash yo'li bilan, o'ziga tarallabedod kun kechirish imkonini beruvchi moddiy ne'matlarni olishini" gina emas, balki buturdagi ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun belgilangan me'yorlardan ortiq moddiy ne'matlarni qo'lga kiritishni anglatadi. Shu tariqa haq olishning qonunga xilofligi uning bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat bilan muvofiq emasligi orqali ta'riflangan.

Jinoyat kodeksi va uni qo'llash amaliyoti haq berish yoki olishning qonuniyligini (qonunga xilofligini) belgilashda asosan ikki jihat: uning miqdori va haq oluvchi subyekt huquqiy maqomining xususiyatlari e'tiborga olingan. Ba'zan haq berish yoki

¹ Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. - Тошкент, 2004. С. 568.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. T.5./ tahrir hay'ati: T.Mirzayev va boshq. - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. -B.519.

³ Вишинская З.А. Уголовная ответственность за получения незаконново вознаграждения от граждан. -М., 1987. -С.6.

olishning qonunga xilofligi uni olishga qaratilgan qilmishlarning g'ayriqonuniyligi bilan ham belgilanadi. Bu esa, jinoyat huquqiga xos bo'lgan holatdir. Shu tufayli ham biz yuqorida qonunga xilof ravishda haq berish yoki olish bilan bog'liq jinoyatlarni ikkinchi guruhga ajratdik.

Ayni holda qonunga xilof ravishda haq berish yoki olish uchun javobgarlik masalasi tadqiq etilayotgani bois, uning g'ayriqonuniyligini belgilashning quyidagi ikki holatini batafsilroq ko'rib chiqamiz:

a) olinayotgan haqning ko'rsatilgan xizmat (bajarilgan ish) bilan muvofiq emasligi;

b) haq berilayotgan shaxsning ish joyi, egallab turgan lavozimi, ko'rsatilayotgan xizmatlarning xususiyati va h.q. lar bilan belgilanadigan alohida huquqiy maqomi munosabati bilan (belgilangan miqdordan ortiq yoki har qanday miqdorda) haq olishga yo'l qo'yilmasligi.

Haq berish yoki olishning ijtimoiy-huquqiy tavsifi nuqtayi nazaridan uning qonunga xilofligini belgilashning aynan birinchi variant tabiiyroq va mantiqqa muvofiqdir. Haq berish uchun asos (xizmat) umuman mavjud bo'lmagan joyda u adolatsiz va qonunga xilofdir. Muayyan haq (pora) u xizmat bilan muvofiq emasligi tufayli adolatsiz va qonunga xilof deb topilishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, xizmat ayni holda muayyan turdagi va hajmdagi ishni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishgina emas, balki mazkur harakatlarni ular uchun belgilangan talablar, me'yorlarga muvofiq haq undirgan holda amalga oshirishni ham o'z ichiga oladi.

Haq berish yoki olishning qonunga xilofligini belgilashning ikkinchi usuli (uning xizmat bilan muvofiq emasligi) ham O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunida " sof" holatda o'z aksini topmagan. O.V. Lisenko iste'molchilarni aldash, naf ko'rish maqsadida, g'araz manfaatlarda sodir etiladigan vakolatini, mansab mavqeyini suiste'mol qilish misol sifatida keltiradi. Biroq haq berish yoki olishning qonunga xilofligi ushbu hollarda har doim haq berilayotgan subyektlarning alohida doirasi yoki ularning ish joyi (tovarlarni sotish yoki aholiga xizmat ko'rsatishni amalga oshiruvchi tijorat va notijorat tashkilotlari) yoki bajarayotgan vazifalarining xususiyati (tijorat tashkilotida yoki boshqa tashkilotda) mansab vakolatlarining xususiyati bilan bog'lanadi¹. Boshqacha qilib aytganda, chet el mamlakatlarning jinoyat qonunlaridan (xususan, Bolgariya JK dan farqli o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida haq berish-olishning g'ayriqonuniyligini faqat uning xizmat vazifasi bilan muvofiq emasligi orkali belgilash amaliyoti mavjud emas. Bizningcha, jismoniy shaxslar (jinoyatning umumiy subyektlari) o'rtasida amalga oshiriladigan haq berish

¹ Лысенко О.В. Уголовно –правовые аспекты незаконного вознаграждения. Диссертация канд.юрид.науку – М.:РГБ, - С.56

yoki olishning jinoyat qonuni bilan tartibga solinishi mumkin emas, tabiiyki, moddiy ne'matlarni jinoiy yo'l bilan olish bundan mustasnodir. Jismoniy shaxslar o'rtasida haq berish yoki olish masalalari odatda fukarolik konunchiligi bilan tartibga solinadi. Oddiy (o'z huquqiy maqomiga ko'ra teng) jismoniy shaxslar o'rtasida biz ko'rib chiqayotgan muammoning ziddi -to'lanishi lozim bo'lgan haqni to'lamaslik, uni olmaslik bilan bog'liq munosabatlar ham fuqarolik hukukning predmeti hisoblanadi. Faqat mazkur munosabatning taraflaridan biri sifatida korxonalar, muassasalar yoki tashkilot rahbari amal qilgan holda, agar mazkur shaxsda g'arazgo'ylik yoki boshqa shaxsiy manfaatlar mavjud bo'lsa, ular jinoyat-huquqiy munosabatlar sifatida amal qilishi mumkin.

Shunday qilib, jinoyat huquqida haq berish yoki olishning qonunga xilofligini belgilashning aytib o'tilgan ikki variantidan faqat ikkinchisini amalda qo'llash mumkin yoki, nari borsa, bu masala faqat ikkinchi variant doirasida haqning xizmat bilan muvofiq emasligi xususidagi izohlar berish bilan hal qilinishi mumkin.

Yuqorida bayon etilganlarga muvofiq, qonunga xilof ravishda haq olish yoki berish tushunchasining mazmunida aks etishi lozim bo'lgan quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatish mumkin. 1) haq (pora) berish yoki olish tushunchasining tavsifi. 2) berilayotgan haqning xizmatga bog'liqligi; 3) subyektlar tarkibining haq berish va olish mexanizmidan kelib chiqadigan murakkabligi. U o'z navbatida ikki harakat haq berish va olishning, tegishli ravishda ikki mustaqil subyekt (haq beruvchi va oluvchi)ning mavjudligini nazarda tutadi, 4) haq berish yoki olishini g'ayriqonuniy ekanligini tushunish.

1. "Haq berish yoki olish" tushunchasining etimologiyasi, jinoyat huquqida qonunga xilof ravishda haq berish yoki olishni aks ettiruvchi atamaning turlicha ekanligi, shuningdek uning turli "tashuvchilari" ga ishoralar, bizning nazarimizda, uning mazmuniga tavsif berishda "moddiy ne'matlar yoki mulkiy xususiyatga ega bo'lgan naflar" degan keng ta'rifdan foydalanish imkonini beradi. Sababi, ushbu munosabat bilan tilga olinuvchi "mulkiy yo'sindagi imtiyozlar", "mol-mulkka bo'lgan huquq" kabi iboralar "naf ko'rish" bilan qamrab olinadi, moddiy ne'matlar esa "pul qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk"ni qamrab oladi. Bu gap jinoyat qonunchiligida qo'llaniladigan yoki mazkur masalani maxsus adabiyotlar muhokama qilish paytida taklif qilingan boshqa terminologiyaga ham tegishlidir¹.

2. Jinoyat huquqida haq berish yoki olishning qonunga xilofligiga berilgan ta'rif ko'p qirrali bo'lsa-da, unda har doim haqning ko'rsatilayotgan (bajarilayotgan), ko'rsatilgan (bajarilgan) yoki kutilayotgan xizmatlar (ishlar)ga bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi. Shu tariqa haq berish yoki olishni sovg'adan ajratish imkonini beruvchi muhim

¹ Эксанова А.А. Подкуп как криминогенное преступление: Автореферат. дис. канд. юрид. наук. –М, 1999. –25 с

belgilardan biri – to‘lovlilik qayd etiladi. Haq berish yoki olish ko‘rsatilgan xizmatdan (bajarilgan ishdan) qat’iy nazar xizmat (mansab lavozimi) yuzasidan olinganining o‘zi uchungina g‘ayriqonuniy deb e‘lon qilinadigan ayrim holatlarni, bizningcha, qonun chiqaruvchining mazkur masala bo‘yicha prinsipal nuqtayi nazardan emas, balki u yoki bu jinoyatning qonundagi tushunchasi mukammal emasligining natijasi, deb hisoblash mumkin.

3. Poraxo‘rlik va pora evaziga og‘dirish kabi, ularning mohiyatini belgilovchi konunga xilof ravishda haq berish yoki olish ham har doim ikki taraf beruvchi va oluvchining o‘zaro aloqasini nazarda tutadi.

4. Qilmishning qonunga xilof ekanligini tushunish umumiy qoidaga binoan aybning mazmuniga kirmasa-da (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 20, 21-moddalariga muvofiq, faqat qilmishning ijtimoiy xavfli ekanligini tushunish talab etiladi), jinoyat huquqida haq berish yoki olishning qonunga xilof ekanligini tan olish uchun mazkur holat birinchi darajali ahamiyatga egadir. Haq berilayotgan shaxs o‘zi olayotgan predmetlarning qonunga xilof xususiyatidan xabardorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishora kamdan-kam (masalan, B.V.Voljenkinning ta’biricha, Rossiya Federatsiyasining Jinoyat Kodeksida umuman mavjud emas) uchraydigan hodisa hisoblansa-da, haq berish yoki olishning ijtimoiy-huquqiy tavsifi uning jazoga loyiqligi har doim qonunga xiloflik holatini tushunish bilan bog‘lanishiga shak-shubha qoldirmaydi. Bir qator hollarda qonun chiqaruvchi pora olishning g‘ayriqonuniy xususiyatini (shu jumladan “g‘ayriqonuniy harakatlar (harakatsizlik)”ni, og‘dirish uchun berilgan porani g‘ayriqonuniy tarzda olishni qayd etadiki, bu yuqorida ko‘rsatilgan qoidadan istisno holatlardan birini hosil qiladi.

Demak, yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, qonunga xilof ravishda haq berish yoki olish deganda, haq berish-olish munosabati ishtirokchilarining o‘z harakatlari yoki harakatsizligi qonunga zid ekanligini bila turib, bajarilgan ish (ko‘rsatilgan xizmat) bilan muvofiq kelmaydigan miqdorda haq olish yoki berishning belgilangan tartibini yoki belgilangan taqiqni buzib moddiy ne‘matlar yoki mulkiy yo‘sindagi foydani olishi yoki berishi tushuniladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, birinchidan, mazkur ta’rifning jinoyat-huquqiy xususiyati faqat bir narsada - qonunga xilof ravishda ham berish-olish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning alohida jinoiy-huquqiy maqomiga ishorada namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, qonunga xilof ravishda haq berish yoki olish tushunchasining keltirilgan ta’rifidan faqat operatsion tushuncha sifatida, uni qonunga xilof ravishda haq berish-olish bilan bog‘liq aniq jinoyatlarning qonundagi tuzilishida aks ettirishda o‘ziga xos tajriba sifatida foydalanish mumkin.

Qonunga xilof ravishda haq berish yoki olish tushunchasiga berilgan ta'rifni hisobga olgan holda, hozirgi vaqtda jinoyat qonunida shunday berish yoki olish bilan bog'liq jinoyatlarning subyektlari sifatida amal qiluvchi shaxslar doirasini ajratib jinoyat qonunida ayni bir hodisa - qonunga xilof ravishda haq berish yoki olishni aks ettirishda u turli atamalar: pora evaziga og'dirish va poraxo'rlik (pora berish, pora olish pora olish-berishda vositachilik qilish) tushunchalaridan foydalanilgan.

Davlat xizmatchisini pora evaziga og'dirish uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining "Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan 15-bobidan o'rin olgan davlat organi, dava ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshkarish orra xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi mulkiy manfaatdor bo'lishi uchun 214-moddasida javobgarlik nazar tutilgan. Mazkur ikkita jinoyat pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilishdan farqli ravishda poraxo'rlik jinoyatlar tarkibiga kiritilmagan.

JK 213-moddasiga binoan, davlat xizmatchisini pora evaziga og'dirish deganda, davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning fuqarolar o'zini o'zi boshkarish organining xizmatchisiga mazkur xizmatchining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish Jinoyat kodeksining 214-moddasiga muvofiq, davlat xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi deganda esa, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni uni pora evaziga o'ziga og'dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi tushuniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksiga sharhlar. –Toshkent: O‘zbekiston, 1988. –B.135.
2. Баҳрах А.П. Административное право. –М., 1993. –С. 135
3. Said-Gaziyeva N.Sh. O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini isloh etish masalalari: Monografiya./ Mas’ul muharrir: Z.M. Islomov. –Toshkent: TDYI, 2008. –58-59-betlar
4. Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. – Тошкент, 2004. С. 568.
5. Вишинская З.А. Уголовная ответственность за получения незаконно вознаграждения от граждан. –М., 1987. –С.6.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.5./ tahrir hay’ati: T.Mirzayev va boshq. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. –B.519.
7. Лысенко О.В. Уголовно –правовые аспекты незаконного вознаграждения. Диссертация канд.юрид.наукю – М.:РГБ, - С.56
8. Эксанова А.А. Подкуп как криминогенное преступление: Автореферат.дис.канд.юрид.наук. –М,1999. –25 с

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11474657>

TALABALARDA REFLEKSIYANI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Donayeva Shaxnoza Abduraimovna

Termiz davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik talablardan biri bo'lgan refleksiya haqida gap boradi. Unda o'qituvchining reflektiv qobiliyatini shakllantirishga, ulardagi kamchiliklarni aniqlashga, reflektiv qobiliyatga ega bo'lish natijalari, refleksiyaning holati pedagogik-psixologik jihatidagi talqinidagi natijalari hamda jahon psixolog va pedagogik olimlarining fikr va mulohazalari keltirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** refleksiya, pedagog kasbi, tahliliy-tanqidiy psixologik hodisa, tafakkur, tasavvur, refleksiv mahorat.*

Ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishda, asosan, biri ikkinchisidan ahamiyati kam bo'lmagan ikki yo'nalish bo'yicha negizli tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Birinchi yo'nalish ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini qamrab oladi hamda mazkur bo'g'inlarda faoliyat ko'rsatayotgan barcha pedagog kadrlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etgan holda dars jarayonlarini tashkil qilishni nazarda tutadigan maxsus dasturlar asosida qayta tayyorlashdan iboratdir. Bu yo'nalishga milliy ta'lim tizimimizning barcha bo'g'inlaridagi pedagogik amaliyotlarni tadqiq etuvchi mutaxassislar jalb etilishi kerak. Binobarin, bu yo'nalish juda ko'p vaqt va inson resurslarini talab qiladigan jarayondir. Ikkinchi yo'nalish esa pedagogik amaliyotga yangicha yondashish asosida ta'lim olgan yosh pedagoglarni amaliyotga faol jalb qilishdan iboratdir. Bu yo'nalish ta'limning quyi va o'rta bo'g'inlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlashga mas'ul bo'lgan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini takomillashtirish usullari bo'yicha tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Bu har ikki yo'nalishni birlashtirib turuvchi omillar qatoriga asosiy maqsadlarning yagonaligi va tadqiqot ob'ektlarining umumiyligini kiritish mumkin.

Refleksiyaning hodisa sifatidagi tabiati, o'ziga xosligi, ta'limni rivojlantirishdagi imkoniyatlari, ichki tarkibi zamonaviy ta'lim tizimi talablari asosida dars jarayonlarini tashkil qilish amaliyoti uchun juda muhim ekanligi ko'plab tadqiqotlarda o'z isbotini

topgan. Refleksiyaning mohiyati va o'ziga xos jihatlarini o'rganish turli darajalarda olib boriladi. Biz bu darajalarning ahamiyatini nazariy, uslubiy va amaliy kabi turlarga ajratgan holda o'rganamiz. Qolaversa, mazkur yondashuv asosida o'rganish refleksiyaning turli tasnifga mansub mutaxassislarda namoyon bo'lish shakllarini aniqlash imkonini beradi. O'qituvchi-pedagoglarning va ta'lim-tarbiya sohasiga aloqador boshqa turdagi mutaxassislarning faoliyat sifatini baholashda refleksiya mezon sifatida qaraladi. Ya'ni reflektivlik darajasi yuqori bo'lgan mutaxassisda tanqidiy tafakkur, o'z-o'zidan qoniqmaslik va doimiy izlanishda bo'lishga intilish ko'nikmalari yuqoriroq bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra, pedagoglik kasbi insondan doimiy ijtimoiy faollikni talab etadi. Ya'ni, o'qituvchi-pedagog har bir ish kunining faol qismida o'quvchilar, kasbdoshlar, ota-onalar bilan o'z xizmat vazifasi yuzasidan doimiy muloqotda bo'lib turadi. Bu muloqotlarning har bir ko'rinishi ikki yoqlamalik xarakteriga ega bo'lib, ularda o'qituvchi har doim tinglovchi va so'zlovchi maqomida ishtirok etadi. Ushbu muloqotlarning o'qituvchi faoliyati uchun ijobiy ahamit kasb etishi uchun unda yuqori darajadagi reflektiv mahoratning bo'lishi zarur.

Reflektiv mahoratga ega bo'lish natijasida o'qituvchi: -bajarishi lozim bo'lgan barcha o'quv, tarbiyaviy, ijtimoiy vazifalarining ko'lami va darajasini bilib oladi; -o'zi uchun o'quvchilarga, ota-onalarga ijobiy ma'noda ta'sir etuvchi faoliyat mexanizmini shakllantiradi; -dars jarayonlarini tashkil etishda o'quvchilarning talablari asosida shakllana boradigan ish tajribasiga ega bo'ladi. Demak, aytishimiz mumkinki, refleksiya — bu o'qituvchining o'z faoliyati va sodir etadigan o'quv, tarbiyaviy va ijtimoiy xatti-harakatlariga baho berishigina emas, balki o'zini boshqalar (o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar) qanday qabul qilayotganlarini aniqlab olish imkonini beruvchi 67 xususiyatdir. O'z-o'zini reflektiv tahlil eta oladigan o'qituvchi-pedagog ongli ravishda takomillashib borgani barobarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarini ham mukammallashtirib boradi. Refleksiyaning xuddi shu shakldagi talqini pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, pedagogika va psixologiya fanlarida ongli ravishda sodir etiladigan tahliliytanqidiy psixologik hodisaning ta'lim muassasalarida dars jarayonlarini tashkil etishdagi ahamiyati o'rganiladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar fikrlashdagi refleksiya inson tasavvurining xuddi o'sha insonga bo'lgan munosabati aks etadi deb hisoblaydilar. Aksar hollarda, inson o'z xatti-harakatlarini tahlil etar ekan, o'zida yangi xususiyatlar kashf etib boradi, hozirgacha orttirgan, lekin yuzaga chiqishi uchun yetarlicha psixologik shart-sharoitlar yaratilmagan ko'nikma va odatlarini kashf etadi. Inson o'z tafakkuri va tasavvurining yangi tashkil etuvchilarini anglab oladi. Bunday tashkil etuvchilarga hal etilishi ko'zda tutilgan, ammo hal etilmagan vazifalarni saralash, fikrlashda nomuhimdan muhimga intilish, atrofdagi ashyo va hodisalarning yangi qirralarini anglash, mulohazalarni

ramzlar vositasida olib borish kabi psixologik xususiyatlar kiradi. Mutaxassislarning (Galperin P.YA., Danilov V.L., Elkonina B.D va boshqalar) qayd etishlaricha, “donishmand-pedagog” norasmiy maqomiga ega bo‘lish uchun refleksiv muhitda o‘z tajribasini oshirib borgan o‘qituvchi-pedagog kuzata bilish va o‘z vaqtida anglab olish, narsahodisalarning tub mohiyatini tez idrok etish va tegishli qaror chiqarish, har qanday ma’lumot hamda axborotni tez qabul qilib, tahlil eta bilish, har qanday nuqtai nazar yoki farazni ma’lumot o‘rnida qabul qila olish, xizmat o‘rnida sarishtali va muomalada namunali bo‘lish va shu kabi shaxsiy hamda professional fazilatlar egasi bo‘lishi kerak.

Refleksiya o‘z faoliyatini yaqin kelajak va uzoq muddatli istiqbolni nazarda tutgan rejalar asosida qurishga intilgan har bir shaxs uchun zarur bo‘lgan xususiyatdir.

Xulosa qilib aytganda, refleksiya o‘qituvchini kasbiy faoliyatini shakllantirishda kasbga, kasbdoshlariga, o‘quvchilariga umuman olganda kasbiy faoliyatida uchraydigan barcha odamlar bilan yaxshi muomilada bo‘lishini, ularning kasbiy qiziqishini oshirishni takomillashtiradi hamda insondagi psixologik holatini takomillashtirga va ularni o‘rganish uchun o‘qituvchiga imkoniyatlar eshigini ochish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. SHedrovitskiy G.P. Kommunikatsiya, deyatelnost, refleksiya // Issledovaniye rechi i mislitelnoy deyatelnosti. - Alma-ata, 1974. 12-28 str.
2. Kenjaboyev Abdusalim Erkaboyevich, Saidova Parvina Mirzo k,izi, O‘qituvchining kasbiy mahorati va pedagogik refleksiya, “Zamonaviy ta’lim / Sovremennoye obrazovaniye”, 2021, 8 (105)
3. Yo‘ldoshev S. Boshlang‘ich ta’lim talabalarini kreativ yondashuv asosida texnologik ta’limga tayyorlash metodikasi. Ped.fan.bo‘yicha fal.dokt. dissertatsiya. Qarshi-2021. 92-b. 144 b.)
4. Refleksiya – kak visshaya sposobnost samootsenki», A.V. Karpov, str-6, Vestnik KGU.
5. SHedrovitskiy G.P. Kommunikatsiya, deyatelnost, refleksiya // Issledovaniye

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11474735>

KONSTITUSTIYA-YOSHLARGA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA BERISHNI HUQUQIY YO'LLARI

Xolmo'minova Oygul Jumaevna

Termiz davlat universiteti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

***Annotatsiya:** Jahondagi globallashuv davrida ta'lim muassasalaridagi ustuvor vazifalardan biri-yoshlarga ekologik-huquqiy tarbiya berishni yanada mustahkamlashdan iboratdir. Xalqaro tashkilotlar tomonidan "Ta'lim-taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga etkazuvchi muhim faoliyat" deb e'tirof etilishi munosabati bilan, o'quvchilar bilimni baholash (PISA), texnologiya ta'limini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etishni baholashda (STEM)dan foydalanilmoqda hamda yoshlarga ekologik-huquqiy tarbiya berishni mustahkamlash sohasida aniq va tizimli amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.*

***Kalit so'zlar:** Bugungi kunda inson omili va demografik o'sish jahondagi ko'plab ekotizimlar zaxirasiga salbiy ta'sir qilib, ortga qaytarib bo'lmaydigan darajaga yuz tutib atrof muhitni saqlash har qachongidan ham dolzarb vazifa bo'lib bormoqda. Shunday ekan, biz dars jarayonida yoshlarga atrof-muhitni muhofaza qilishga oid huquqiy asoslar, xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlar haqida ko'proq ma'lumotlar berib borishimiz lozim.*

Yoshlarga ekologiya va atrof-muhitni xalqaro muhofazasiga oid tushunchalarni shakllantirishda birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi¹da o'z aksini topgan tegishli normalarni alohida tushuntirish o'rinlidir. Jumladan, Konstitustiyaning 41-50, 54, 55 va 100-moddalarida fuqarolarning ushbu sohadagi huquq va majburiyatlari, atrof-muhitga munosabat va boshqaruv tizimi bo'g'inlarining faoliyati belgilanganligini yoshlar bilib olishlari o'ta muhimdir.

Jumladan, 41-moddada, "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir",-deb ko'rsatilgan. 50-moddada "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdir"lar deyiladi. Zero, 54-moddasida, "Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Тошкент, Адолат. 2022

ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart”,- ekanligi,55-moddasida, “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”,-deb e’tirof etilganligi,100-moddasida esa, atrof-muhitni muhofaza qilish mahalliy hokimlik organlari vazifasiga kirishi alohida ta’kidlanganligi o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, yoshlarga ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiya berishda ekologiya va atrof-muhitni xalqaro muhofazasiga oid tushunchalarni shakllantirishning huquqiy asosi sifatida bir qator **ekologik qonun** talablarni ham tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda “Tabiatni muhofaza qilish to‘grisida”gi, 1993 yil 6 maydagi “Suv va suvdan foydalanish to‘grisida”gi, 2002 yil 13 dekabrda, “Yer osti boyliklari to‘grisida”gi 1996 yil 27 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘grisida”gi, 1998 yil 30 aprelda “Yer kodeksi”, 1999 yil 14 aprelda “O‘rmon to‘grisida”gi, 2000 yil 25 maydagi “Ekologik ekspertiza to‘grisida” gi, 2002 yil 6 dekabrda “Chiqindilar to‘grisida” gi, 2013 yil 12 dekabrda ma’qullangan, O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘grisida”gi, 2015 yil 15 iyulda qabul qilingan Senat tomonidan 2015 yil 6 avgustda ma’qullangan “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘grisida”gi, 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasining yangi “Ta’lim to‘grisida” qonunlari talablarini alohida tushuntirish o‘ta ahamiyatlidir.

Bundan tashqari, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish to‘grisidagi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlikka tortish masalalari O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik to‘grisidagi kodeksida”gi¹ Tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarlik uchun ma’muriy javobgarlik me’yorlarida belgilangan. Ma’muriy kodeksda huquqbuzarlik turiga qarab turli miqdorda jarimalar to‘lash va ma’lum huquqdan mahrum qilish jazolari ko‘rsatilganligini yoshlarimiz bilib olishlari ularni kelajak hayoti uchun muhim ahamiyatga egadir.

Shuningdek,O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi²ning 4-bo‘limi “Ekologiya sohasidagi jinoyatlar”deb nomlanadi. Jinoyat kodeksida ekologiya sohasidagi turli jinoyatlar uchun jarima to‘lash, muayyan huquqdan mahrum qilish, mol-mulkni musodara qilish, axloq tuzatish ishlari, qamoq va ozodlikdan mahrum qilish choralari belgilanganligini yoshlarimiz bilib olishlari muhimdir.

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси”. Тошкент, 2021

² Ўзбекистон Республикасининг “Жиноят кодекси”. Тошкент, 2021

Shuningdek, yoshlarimizga ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiya berishda Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son qaroriga asosan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish Konstepstiyasi"¹ning asosiy maqsadi bo'lgan o'sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ekologik ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, shuningdek, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilgor innovastion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirishdan iborat ekanligiga alohida e'tibor berishlari lozim bo'ladi.

Shuningdek, BMTning 2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror Rivojlanish sohasidagi 17 ta milliy maqsad va vazifalarning 13, 14, 15 maqsadlari bevosita atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi vazifalarni va yo'nalishlarni belgilab berganligini ham eslatib o'tish zarur.

Bunda: **13-maqsad:** Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash-Iqlim o'zgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash bo'yicha tezkor choralarni ko'rish; **14-maqsad:** Dengiz ekotizimlarini asrash-Barqaror taraqqiyot yo'lida okeanlar, dengiz va dengiz resurslarini asrash va ulardan oqilona foydalanish; **15-maqsad:** Er ekotizimlarini asrash-O'rmonlardan oqilona foydalanish, qumlanishga qarshi kurash, erlarning tanazzulga uchrashi jarayonini to'xtatib, erlarni qayta tiklash, biologik xilma-xillikning yo'qolib ketishini to'xtatish kabi muammolarni hal etishga qaratilganligini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

